

ISBN 978-83-68188-42-4

Mahmatqulov I.T.

ARXITEKTURA TARIXIGA KIRISH

Darslik

 **iScience**

Warsaw, Poland - 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich

ARXITEKTURA TARIXIGA KIRISH

Darslik

60731100 – Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi.
60212200 – Madaniy meros obyektlarini asrash ta'lim yo'nalishi talabalari
uchun mo'ljallangan darslik

Warsaw - 2026

Tuzuvchi: Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich

Taqrizchilar:

Uralov A.S. – Samarqand davlat arxitektura-qurilish niversitetining professori.

Kayumov X.I. – MChJ “GEOFUNDAMENTAL PROYEKT” direktori.

Mahmatqulov I.T. Arxitektura tarixiga kirish. Darslik. – Warsaw: iScience Sp. z.o.o. – 2026. – 140 p.

Mazkur darslik 60731100 – Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi, 60212200 – Madaniy meros obyektlarini asrash ta'lim yo'nalishi talabalari mutaxassislik fanlar blokiga kiruvchi “Arxitektura tarixiga kirish” fani bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Ushbu darslik talabalarda arxitektura tarixiga kirish bo'yicha boshlang'ch ko'nikma va malaka shakllantirishga katta yordam beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, arxitektura yutuqlari, arxitektura jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalari haqidagi masalalarni o'z ichiga oladi va keyinchalik olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Shuningdek, undan ushbu yo'nalishlar fanlaridan dars berayotgan o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Данный учебник предназначен для студентов образовательного направления 60731100 – Реконструкция и реставрация памятников архитектуры, 60212200 – Сохранение объектов культурного наследия, изучающих предмет «Введение в историю архитектуры» в блоке специальности. Этот учебник во многом поможет учащимся развить базовые навыки и квалификации для занятий историей архитектуры. Для достижения этой цели наука включает вопросы теоретических знаний, практических навыков, архитектурных достижений, методического подхода к архитектурным процессам и задачи формирования научного мировоззрения, а затем помогает применить полученные знания на практике.

Его также могут использовать преподаватели, преподающие предметы этих направлений.

This textbook is intended for students of the educational direction 60731100 – Reconstruction and restoration of architectural monuments, 60212200 – Preservation of cultural heritage objects studying the subject "Introduction to the history of architecture" included in the block of specialized disciplines. This textbook will greatly help students develop basic skills and qualifications in the history of architecture. To achieve this goal, the subject includes issues related to the formation of theoretical knowledge, practical skills, architectural achievements, a methodological approach to architectural processes, and the tasks of forming a scientific worldview, and will help them later apply the knowledge they have gained in practice.

It can also be used by teachers teaching these disciplines.

ISBN 978-83-68188-42-4

© I.T. Mahmatqulov, 2026

© iScience Sp. z o. o.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| KIRISH | 8 |
| I-BO'LIM. QADIMGI DUNYO ARXITEKTURASI TARIXI | 11 |
| 1.1. Kurs tavsifi, maqsadlari va ko'lamini tushuntirish | 11 |
| 1.2. Arxitektura nima. Insoniyat jamoalarini barpo etishga o'tish, o'tmishdagi sivilizatsiyalar arxitektura tarixining davriy rivojlanishi va arxitektura sohasidagi rivojlanish, Mesopotamiya arxitekturasi | 13 |
| 1.3. Misr me'morchiligi. Tarixdan ilgari asrlarda | 20 |
| 1.4. Krit-Miken Yunon me'morchiligi | 24 |
| 1.5. Etrusk va Rim me'morchiligi | 29 |
| II-BO'LIM. O'RTA ASRLAR ARXITEKTURA TARIXI | 37 |
| 2.1. Ilk xristian me'morchiligi davrida Vizantiya arxitekturasi. Vizantiya imperiyasidan Uyg'onish davriga qadar Evropa me'morchiligi | 37 |
| 2.2. Uyg'onish davridan sanoat inqilobi va ma'rifat davrigacha bo'lgan Evropa me'morchiligi, XVIII-asr oxiridan to hozirgi kungacha jahon me'morchiligi | 48 |
| 2.3. O'rta va yaqin sharq davlatlari arxitekturasi | 55 |
| III-BO'LIM. O'RTA OSIYO ARXITEKTURASI TARIXI | 61 |
| 3.1. Amir Temur davri arxitekturasi tarixi | 61 |
| 3.2. Temuriy davri arxitekturasi tarixi | 71 |
| 3.3. Buxoro amirligi arxitekturasi tarixi | 79 |
| 3.4. Xiva xonligi arxitekturasi tarixi | 87 |
| 3.5. Qo'qon xonligi arxitekturasi tarixi | 97 |
| 3.6. XIX asr oxiri-XX asr boshlari O'rta Osiyo arxitekturasi tarixi | 102 |
| 3.7. Yevropa arxitektura stillarining O'rta Osiyo arxitekturasi ta'siri | 107 |
| “ARXITEKTURA TARIXIGA KIRISH” FANIDAN ASOSIY ATAMALAR (TAYANCH IBORALAR) | 113 |
| “ARXITEKTURA FANIGA KIRISH” FANIDAN | |
| NAZORAT SAVOLLARI | 119 |
| XULOSA | 136 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI | 138 |

Annotatsiya

Mazkur darslik 60731100 – Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi ta'lim yo'nalishi talabalarining mutaxassislik fanlar blokiga kiruvchi “Arxitektura tarixiga kirish” fani bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Ushbu darslik talabalarda arxitektura tarixi bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishga katta yordam beradi.

Darslik talabalarda arxitektura nazariyasi, arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi va madaniy meros obyektlarini asrash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishga katta yordam beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, arxitektura yutuqlari, arxitektura jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini ham o'zida ifoda etgan.

Darslik “Qadimgi dunyo arxitekturasi tarixi”, “O'rta asrlar arxitektura tarixi” va “O'rta osiyo arxitektura tarixi” bo'limlardan iborat bo'lib, “Arxitektura tarixiga kirish” fanidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Arxitektura va Madaniy meros ta'limotida o'tmish davrlar me'moriyatini anglash katta ahamiyatga ega. Bunga ko'proq “San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi” fani orqali erishiladi. Mukammal arxitekturani yaratish uchun uning rivojlanish tartibotlarini (qonun-qoidalarini) o'zlashtirish lozim. Zero zamonaviy arxitektura o'tmish arxitekturaning davomi bo'lib, ikkisi ham bir yaxlitlikni yaratadi. Aslini olganda fanning besh asosiy bo'limlari (san'at tarixi, arxitektura tarixi, shaharsozlik tarixi, O'rta Osiyo me'morligi tarixi va zamonaviy arxitektura) mustaqil fanlarni tashkil etishi ham mumkin. Fan bo'limlarining ketma-ketligi umumiydan xususiyga tamoyiliga (prinsipi) mos keladi.

Arxitekturani yaxshi anglash, shaharsozlikni tushunishga zamin yaratadi. Ma'lumki, arxitektura asari uch tomonlama – funksiya, konstruksiya, estetik bo'yicha sifatlanadi. Hamon shaharsozlik arxitekturasi bo'lagi ekan, mazkur sifatlar soha asarlari shaharlarga ham taaluqlidir. Biroq, bu sifatlar o'ziga xos xususiyatarga egadir.

Bular shaharning moddiyati-konstruksiyasidir. Arxitekturaning asosiy badiiy vositalari hajm va fazoviy muhit hisoblanadi. Bu ikki vositaning ahamiyatlari har xil: arxitekturada deyarlik teng bo'lgan holda, shaharsozlikda muhitning ahamiyati ustuvordir, hajm esa unga nisbatan kamdir.

Darslik 60731100 – rxeitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi ta'lim yo'nalishi talabalari hamda Arxitektura tarixi faniga

qiziquvchi professor-o'qituvchilar, arxitektorlar, mutaxassislar va keng doiradagi kitobxonlarga mo'ljallangan.

Annotation

This textbook is intended for students studying in the subject "Introduction to the History of Architecture", which is part of the block of specialized subjects of the educational direction 60731100 – Reconstruction and Restoration of Architectural Monuments. This textbook will greatly help students to form knowledge, skills and qualifications in the history of architecture corresponding to the profile of the direction.

The textbook will greatly help students to form knowledge, skills and qualifications in the theory of architecture, reconstruction and restoration of architectural monuments and preservation of cultural heritage objects. To achieve this goal, the subject also includes the tasks of providing students with theoretical knowledge, practical skills, architectural achievements, a methodological approach to architectural processes and the formation of a scientific worldview.

The textbook consists of the sections "History of Ancient World Architecture", "History of Medieval Architecture" and "History of Central Asian Architecture", which allows you to further deepen the knowledge, skills and qualifications gained in the subject "Introduction to the History of Architecture".

Understanding the architecture of past eras is of great importance in the teaching of Architecture and Cultural Heritage. This is best achieved through the subject "History of Art, Architecture and Urban Planning". To create perfect architecture, it is necessary to master its development procedures (laws and rules). After all, modern architecture is a continuation of past architecture, and both create a single whole. In fact, the five main sections of the subject (history of art, history of architecture, history of urban planning, history of Central Asian architecture and modern architecture) can also form independent disciplines. The sequence of sections of the subject corresponds to the principle from general to particular.

A good understanding of architecture creates a basis for understanding urban planning. As is known, a work of architecture is characterized by three aspects - function, construction, aesthetics. Since urban planning is also a part of architecture, these qualities also apply to works of art in cities. However, these qualities have their own characteristics.

These are the materiality-construction of the city. The main artistic means of architecture are volume and spatial environment. The significance of these two means is different: being almost equal in architecture, the

significance of the environment in urban planning is paramount, and volume is less important.

The textbook is intended for students of the educational programs 60731100-Reconstruction and restoration of architectural monuments as well as professors and teachers interested in the history of architecture, architects, specialists and a wide range of readers.

Аннотация

Учебное пособие предназначено для студентов, изучающих учебный предмет «Введение в историю архитектуры», входящий в блок профильных дисциплин для студентов образовательного направления 60731100 – Реконструкция и реставрация памятников архитектуры. Этот учебник окажет значительную помощь студентам в развитии знаний, навыков и компетенций, соответствующих профилю их специальности по истории архитектуры.

Учебник окажет значительную помощь студентам в формировании знаний, умений и навыков, соответствующих профилю специальности в области теории архитектуры, реконструкции и реставрации памятников архитектуры, сохранения объектов культурного наследия. Для достижения этой цели дисциплина также воплощает задачи по обеспечению студентов теоретическими знаниями, практическими навыками, архитектурными достижениями, методическим подходом к архитектурным процессам, формированием научного мировоззрения.

Учебник состоит из разделов «История архитектуры Древнего мира», «История средневековой архитектуры», «История архитектуры Средней Азии» и позволяет учащимся дополнительно углубить знания, умения и навыки, полученные по предмету «Введение в историю архитектуры».

Понимание архитектуры прошлых эпох имеет большое значение при изучении архитектуры и культурного наследия. Лучше всего это достигается с помощью предмета «История искусств, архитектуры и градостроительства». Чтобы создать совершенную архитектуру, необходимо овладеть правилами (законами) ее развития. Ведь современная архитектура является продолжением архитектуры прошлого, и обе создают единое целое. Фактически, пять основных разделов дисциплины (история искусств, история архитектуры, история градостроительства, история архитектуры Центральной Азии и современная архитектура) также могут представлять собой самостоятельные дисциплины. Последовательность научных разделов соответствует принципу от общего к частному.

Хорошее понимание архитектуры закладывает основу для понимания городского планирования. Как вы знаете, произведение архитектуры характеризуется тремя аспектами: функцией, конструкцией и эстетикой. Поскольку это также часть городской архитектуры, эти качества применимы и к городам. Однако эти качества имеют свои особенности.

Это материальная конструкция города. Основными художественными средствами архитектуры являются объем и пространственная среда. Значимость этих двух инструментов различна: если в архитектуре они почти равны, то в городском планировании первостепенное значение имеет окружающая среда, а объем относительно незначителен.

Учебное пособие предназначено для студентов образовательной программы 60731100 – Реконструкция и реставрация памятников архитектуры, а также преподавателей, интересующихся историей архитектуры, архитекторов, специалистов и широкого круга читателей.

KIRISH

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti arxitektura bilan chambarchas bog'liq bo'lib uning rivojlanish jarayoni jamiyat faoliyati tarixiy jabhalarining barcha pog'onalarida o'z aksini topib kelmoqda. Arxitektura qiyofasi dunyo hududlarining geografik o'rni, iqlim-sharoitlari, aholisining mafkuraviy, estetik qarashlari va iqtisodiy-siyosiy tizimi taqozasiga ko'ra turlicha shakl kasb etar ekan u jamiyatning ijtimoiy faktorlari ta'siri ostida rivojlanadi va ma'lum davrni o'zida aks etdiradi.

Arxitektura bu grekcha so'z bo'lib – «**bosh quruvchi**» – binoni qurish san'ati, hamda majmualarni jamiyat talablariga nafaqat amaliy xizmat, balki, badiiy-g'oyaviy jihatdan uyg'unligini hal qilishi kerak.

Bino va inshootlarni qurilishida ruxsat berilgan amaliy, eng sodda maqsadlarni bevosita badiiy ijodiy uyg'unlik bilan birga hal qilinishi kerak.

Arxitektura inshootlari jamiyat madaniyatining bir bo'lagi bo'lishi bilan birga, u san'at asari hamdir.

Shunday qilib, arxitektura insoniyat taraqqiyotining bir turi bo'lib, uni oddiy qurilish ishi bilan chegaralab bo'lmaydi, lekin uni faqat badiiy ijod turi deb ham bo'lmaydi.

Har bir davrda arxitektura tushunchasi turlicha talqin etilgan. Rim me'mori Vitruviy klassik formulasi bo'yicha me'morchilik inshootining asosiy sifatini quyidagicha belgilagan: **mustahkamlik, foyda va chiroylilik**.

Insonlar er sharining qaysi joyida yashamasin ularning go'zallik haqidagi qarashlari va rangbarang tasavvuri o'ziga xos ravishda to'la – to'kis arxitekturada, san'atda o'z ifodasini topadi. Shu boisdan qadimgi Rim arxitektura nazariyachisi Vitruviy “- arxitektor - mustahkamlik, foydalilik va go'zallik kabi talablarga rioya qilishi kerak” degan edi.

Dunyo mamlakatlarining tarixiy taraqqiyot jarayoni shuni ko'rsatadiki, ularda arxitekturaga bo'lgan talab turli asrlarda turlicha kechingan, yangilik eskilikni inkor etib turli uslub, turli shakllar va qurilish materiallari barpo etilgan va har doim san'at bilan sintezlashib o'sha xalqning moddiy, jismoniy, ijtimoiy estetik talablarini va xis tuyg'ularini, umuman olganda ularning ma'naviy dunyosini o'zida mujassamlashtirib kelgan. Shuning uchun ham arxitektura malakatlarning tarixiy taraqqiyoti kuzgusi desak xato bo'lmaydi. Arxitektura qiyofasi, uning konstruktiv tuzilishi, unda qo'llanilgan ashyoga bog'liq. Shuning uchun qurilishda paydo bo'lgan yangi texnologiyalar arxitekturaning shakliy o'zgarishiga keskin ta'sir qiladi. Qadimgi Yunon klassik arxitekturasi marmar toshlaridan barpo etilgan bo'lsa Rim imperiyasi davriga kelib bino va inshootlar qurilishida asosan pishiq g'isht va “beton” ishlatila boshladi. Bu o'z yo'lida arxitektura kompozitsiyasini shakllanishida va qurilish ishlarida yangi imkoniyatlarni

tug‘ulishiga olib keldi.

Arxitektor loyiha ustida ishlar ekan u har doim yangi texnologiyalarga, binoning yangicha funkcionallik va estetik omillarga, ya’ni zamon talablariga tayanib ish tutadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin O‘zbekiston taraqqiyotining barcha jabhalarida tubdan o‘zgarish, islohatlar davri boshlanib ketdi. Jumladan arxitektura-qurilish, shaharsozlik sohalariga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev bu borada Davlat arxitektura va qurilish qumitasi tizimini tubdan qayta tashkil etish, shaharsozlikni eskirgan metodologiya va normativlari, kapital qurilishdagi nomutonositlik va muammolarni bartaraf etish, shuningdek, loyiha institutlarining samarasiz faoliyatlarini qayta ko‘rib chiqishni, arxitektura sohasi bo‘yicha jahon standartlari talablari darajasidagi yosh mutaxassislar tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarini, zamonaviy, yangi avlod o‘quv, o‘quv – metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish, axborot – resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish, arxitektura, loyihalashtirish va qurilish sohalarida, tizimli asosda malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlash, respublikaning ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari va kasb – hunar kollejlari ta’lim jarayonining darajasi va sifatini tubdan oshirish, qurilish sohasidagi loyihachilar va mutaxassislarni doimiy asosda malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish haqida ta’kidladi. Bundan xulosa qilish mumkinki jahondagi bugungi kunda eng taraqqiy qilgan mamlakatlar xalqlari va ajdodlarimiz yaratgan betakror, monumental me’moriy obidalar kabi, vatanimizda yuksak zamonaviy arxitektura namunalari qad ko‘taraveradi.

Arxitektura tarixiga kirish fani insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotini o‘rganish bilan birga uning qurilish sohasidagi tajribalarini umumlashtiradi, jahon arxitektura madaniyatini o‘ziga xos tomonlarini tahlillab talaba saviyasini oshiradi va shaharsozlik, arxitektura, qurilish sohalaridagi bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Loyiha ishlaridagi g‘oyaviy, kompozitsion fikirlash doirasini kengaytirib uning fazoviy idrokini shakillantiradi. Darslikda keltirilgan ma’lumotlarni talabalar engil o‘zlashtirishlari uchun yangi zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham ko‘zda tutilgan. Arxitektura va dizayn yo‘nalishlarida arxitektura va shaharsozlik fani o‘rganiladi. Darslikda talabalarga dunyo arxitekturasi rivoji jarayonining ibtidoiy jamoa chayla qurilmalaridan boshlab to bugungi kungacha bo‘lgan taraqqiyoti bo‘yicha materiallar kiritilib, o‘quv dasturida ajratilgan vaqtga moslangan tarzda tayyorlandi.

Darslikda arxitekturaning rivojlanish omillari, uning turli mamlakatlardagi tarixiy dialektik rivojlanish jarayonlarini yoritib berishga shuningdek bugungi kunda ta’lim tizimini yangilanayotgan va yungicha

shakllanayotgan davrda o‘zbek tilidagi adabiyotlar etishmayotganligini inobatga olgan holda, hamda darslikning ilmiy va didaktik mazmunini arxitektura sohasi davlat ta’lim standartlari talablariga mos ravishda bo‘lishligini ta’minlashga qaratildi.

I-BO'LIM. QADIMGI DUNYO ARXITEKTURASI TARIXI

1.1. Kurs tavsifi, maqsadlari va ko'lamini tushuntirish

Kurs tavsifi: “Qadimgi Dunyo Arxitekturasi Tarixi” kursi arxitekturaning eng qadimgi shakllaridan boshlab, yirik sivilizatsiyalarning arxitekturaviy merosiga qadar bo'lgan davrni o'rganadi. Kursda asosan qadimgi misrliklar, mesopotamiyaliklar, yunonlar, rimliklar, hindlar va boshqa qadimiy xalqlar tomonidan qurilgan yodgorliklar va inshootlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu davrlarda arxitektura va sanoatning rivojlanish jarayonlari, diniy, madaniy va ijtimoiy jihatlarining arxitekturadagi aks etishi o'rganiladi.

Kursning maqsadlari:

1. **Qadimiy arxitektura turlari va uslublarini o'rganish** - Kursda, qadimgi sivilizatsiyalarning arxitekturasi va ularning farqlari, struktura va dizayn tamoyillari haqida to'liq tushuncha hosil qilish.

2. **Tarixiy yodgorliklarni tahlil qilish** - Turli madaniyatlar tomonidan qurilgan eng mashhur arxitektura yodgorliklari va inshootlarini tahlil qilish, ularning tarixiy va madaniy ahamiyatini tushunish.

3. **Arxitekturaning jamiyatdagi roli** - Arxitekturaning ijtimoiy, diniy va siyosiy kontekstlarda qanday ishlatilganini o'rganish. Bu, ayniqsa, qadimiy imperiyalar va davlatlarning arxitekturasi orqali jamiyat tuzilmalari va qadriyatlarini anglashga yordam beradi.

4. **Arxitektura tarixi va rivojlanish jarayonini anglash** - Kurs arxitektura tarixining qanday rivojlanganini, bu jarayonda nima uchun muhim omillar mavjudligini, va har bir sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishni maqsad qilgan.

Kursning ko'lamini tushuntirish: Kursda qadimiy arxitektura tarixining boshlanishi, uning rivojlanish bosqichlari va turli madaniyatlar tomonidan amalga oshirilgan arxitekturaviy inshootlar o'rganiladi. Arxitektura tarixining birinchi bosqichlaridan to, qadimiy Yunoniston, Rim imperiyasi, Mesopotamiya, Misr, Hindiston va boshqa yirik sivilizatsiyalarga qadar, ularning asosiy arxitekturaviy inshootlari, yodgorliklari va shu bilan birga, arxitektura tafakkurining rivoji va metodologiyasi haqida ham gapiriladi.

Kurs davomida o'rganiladigan asosiy mavzular:

1. Qadimiy Misr arxitekturasi
2. Mesopotamiya arxitekturasi
3. Yunon va Rim arxitekturasi
4. Hindiston va Xitoy arxitekturasi
5. Mavjud arxitekturaviy yodgorliklar va ularning ta'siri.

Bu kurs talabalarga arxitektura tarixini nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki jamiyatdagi tarixiy, madaniy va diniy o'rnini tushunish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni taqdim etadi.

Arxitektura tarixiga kirish tavsifi tarkibiy qismi shaharsozlik tarixidir. Mazkur darslikning jahon shaharsozligi tarixiga tegishli umumiy qismlari ko'proq ikki - jildli "Istoriya gradostroitel'nogo iskusstva" (T.F. Savarenskaya) va boshqalar o'quv qo'llanmasi asosida tuzildi. O'rta va Yaqin Sharq hamda Markaziy Osiyo shaharsozligiga tegishli qismlarini yozishda boshqa manbalardan keng foydalanildi. Darslikga o'quv jarayonidagi o'zbek tilida yozilgan navbatdagisi sifatida qarash lozim. Darslikni boshqa tarqoq holda mavjud bo'lgan so'nggi barcha tadqiqotlar natijalari bilan to'ldirish, O'zbekiston tarixiy shaharlarining jahon shaharsozligidagi o'rnini yanada to'laroq ko'rsatish kelgusida qilinishi lozim bo'lgan ishdir. Arxitektura ta'limotida maxsus - tarixiy fanlar bloki muhimdir.

Bo'limlar o'zaro san'at, arxitektura va shaharsozlik tarixlari bilan chambarchas bog'lik hamda har biri o'ziga xos xususiyatlariga ega. Arxitektura ta'limotida o'tmish davrlar me'moriyatini (arxitekturasi) anglash katta ahamiyatga ega. Bunga ko'proq "San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi" fani orqali erishiladi.

Zero zamonaviy arxitektura o'tmish arxitekturaning davomi bo'lib, ikkisi ham bir yaxlitlikni yaratadi. Aslini olganda fanning besh asosiy bo'limlari (san'at tarixi, arxitektura tarixi, shaharsozlik tarixi, O'rta Osiyo me'morligi tarixi va zamonaviy arxitektura) mustaqil fanlarni tashkil etishi ham mumkin. Fan bo'limlarining ketma-ketligi umumiydan xususiylik tamoyiliga mos keladi. San'at tarixi san'atning to'rt asosiy turlari: arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy san'at turlari bo'yicha umumiy rivojlanish qoidalarini tushuntiriladi, har turning o'ziga xos jihatlarini ochib berildi, san'atdan uslublar (stillar) va yo'nalishlar to'g'risida tushuncha beradi. Keyingi bo'limda san'atning bir tarmog'i arxitekturaning tarixi beriladi. Bu hali kelajakda Markaziy Osiyo me'morchilik tarixini va zamonaviy arxitekturani o'zlashtirishga imkoniyat yaratib beradi.

"Shahar", "qishloq" kabi tushunchalar turli ma'nolarni bildiradi. Shaharning qishloqdan farqi sotsial, kasb - hunar, demografiya, me'moriy rejalash jihatlariga tegishlidir. Shaharda insonlarni muloqati jamlanadi. Shaharsozlik tarixi shaharlarni rivojlanish jarayonida o'rganadi. Shahar har davrda ham yaxlit fazoviy makon sifatida me'morlarning bir necha avlodlari mahsuli sifatida qaraladi. Uning har bir davrning o'ziga hos bo'lgan qiyofasi mavjud.

Arxitekturani yaxshi anglash, shaharsozlikni tushunishga zamin yaratadi. Ma'lumki, arxitektura asari uch tomonlama – funksiya,

konstruksiya, estetik bo'yicha sifatlanadi. Hamon shaharsozlik arxitekturasi bo'lagi ekan, mazkur sifatlar soha asarlari - shaharlarga ham taaluqlidir. Biroq bu sifatlar o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Arxitektura asarida funksiya asosan bir maqsadli bo'lgan holda shaharning funksiyasi ko'p maqsadlidir. Shahar-turar uy-joy hududlari, ko'cha, maydon, suv tarmog'i kabi unsurlardan tashkil topgan.

Bular shaharning moddiyati-konstruksiyaasidir. Arxitekturaning asosiy badiiy vositalari hajm va fazoviy muhit hisoblanadi. Bu ikki vositaning ahamiyatlari har xil: arxitekturada deyarlik teng bo'lgan holda, shaharsozlikda muhitning ahamiyati ustuvordir, hajm esa unga nisbatan kamdir.

Nazorat savollari


1. Arxitektura tarixiga kirish fanining asosiy maqsadi nima?
2. Kurs tavsifi bo'yicha talabalar qanday nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishadi?
3. Arxitektura tarixini o'rganishning dolzarbligi va ahamiyati nimada?
4. Qadimgi davr arxitekturasi asosiy xususiyatlarini sanab bering.
5. Kurs doirasida talabalarga qaysi davr va uslubdagi arxitektura shakllari o'rgatiladi?
6. Rekonstruksiya va restavratsiya jarayonida arxitektura tarixini o'rganish qanday ahamiyatga ega?

1.2. Arxitektura nima. Insoniyat jamoalarini barpo etishga o'tish, o'tmishdagi sivilizatsiyalar arxitektura tarixining davriy rivojlanishi va arxitektura sohasidagi rivojlanish, Mesopotamiya arxitekturasi

Insoniyat er yuzida paydo bo'lar ekan u o'z hayotiy faoliyatini barqaror va osoyishta kechishi uchun har doim kerakli muhit va sharoit yaratishga intilib keldi. O'ziga kerakli boshpana, jihoz va saramjonliklikka eltuvchi unsurlar bilan ta'minladi va asta-sekin uning hayotiy ehtiyojlarini o'sishi, didi, komfort sezgilarini shakillanishi, shuningdek texnik, badiiy talablarga ehtiyoj darajasining kengayib borishi u yashayotgan binoning hajmiy fazoviy tizimini ham turlicha shakllanishiga olib keldi.

Arxitektura atamasi yunoncha arxitekton quruvchi, qurilishni yaratuvchi, tashkillashtiruvchi ma'nosini anglatadi. Ilm fan, texnika va madaniyatning uncha taraqqiy etmagan davrlarda u arxitektor, injenerlik (muhandislik) ish yurituvchi, va ko'pincha rassom va haykaltaroshlik vazifalarini ham bajarib kelgan.


Arxitekturaviy g'oyalarni amalga oshirilishi uchun turli qurilish materiallaridan foydalaniladi. Bu esa o'z yo'lida arxitekturaning konstruktiv tuzilishiga va uning tektonik qiyofasiga ta'sir etib, me'morning moddiy – ashyoviy, fazoviy - shakliy echimlarining amalga oshish va ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Insonlar o'zlarining arxitektura qurilishi bo'yicha bo'lgan ilk faoliyatidayoq asosiy konstruktiv tizimlarni o'zlashtira boshladi. Devor tiklash, ustun - to'sin yoki arkalardan foydalanib tom yopish usullarini o'zlashtirdilar. Keyinchalik bu tizimlar barcha xalqlarga tarqalib, bugungi kungacha qo'llanilib kelmoqda (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm. Qadimgi Misr va G'arbiy Osiyo me'morchiligidagi konstruksiyalar.

1 - tosh bloklar va plitalardan yasalgan eskpetiya ustunli konstruksiyasi, 2 - soxta gumbaz (Abidosdagi ibodatxona); 3-tonozlarni vertikal qismlarga yotqizish; Ahamoniylar davridagi Eronning nurdan keyingi tuzilishi: 5 ta poytaxt kolovim Persepolisdagi chuqurlikdan (miloddan avvalgi VI-IV asrlar): Sosoniylar davridagi Eronning 6 ta gumbazli inshooti (Firuzobodagi saroy, miloddan avvalgi 3-asr).

Ustun-to'sin konstruktiv tizimida o'zlashtirish oson bo'lgani uchun asosan yog'och va toshdan foydalanilib kelindi. Bu tizimdan qadimgi Misrlıklar, forslar, yunonlar va boshqa xalqlar keng foydalanib ular bu borada o'z uslublari, ya'ni- stillarini yaratdilar (1.2.2.-rasm).



1.2.2.-rasm. Ustun –to‘sinli konstruksiya echimlarga misollar: Misr, Rim va Yunon arxitekturasi ustunlari.


Arxitekturaviy stil - bu biror xalq tomonidan, ma’lum bir davrda yaratilgan me’moriy asarining tipologik, konstruktiv va g’oyaviy - badiiy xususiyatlarining yig‘indisidir. Dunyo xalqlarining tarixiy taraqqiyoti jarayonida ularning mafkuraviy, ijtimoiy ongi shakllana borishi, mamlakatlar o‘rtasida savdo sotiqning rivojlanishi natijasida odamlarning turmush tarzining barqarorlashishi arxitekturaning ham dialektik ravishda rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib keldi. Shuningdek davlatlar o‘rtasidagi urushlar, ekspansiya, istilo, istibdodlik va boshqa omillar ham arxitekturaga o‘z ta’sirini o‘tkazib keldi.

Arxitektura stillarini va uning muhitida fazoviy formalarning tashkillashuviga iqlim, geografik shart-sharoitlar va boshqa ko‘pgina omillarning ham ta’siri katta. Masalan qadimgi quldorlik mamlakatlari Misr, Yunon, Rim davlatlarining tabiiy sharoitlari, geografik o‘rni va ijtimoiy siyosiy, hamda iqtisodiy faktorlarining turlicha bo‘lganligi ulardagi stillarni ham turlicha shakllanganligini misol keltirish mumkin.

Arxitektura o‘z taraqqiyot jarayonida har doim tasviriy san’at bilan omuxta bo‘lib rivojlanib keldi. Chunki u nafaqat boshpana vazifasini bajaribgina qolmay balki u insonning mafkuraviy, estetik maskani hamdir.

Yunonstonning o‘ziga xos quldorchilik ijtimoiy tizimi, materialistik dunyoqarashni rivojlanishiga va san’tda realistlik yo‘nalishni yuzaga

kelishiga imkoniyat yaratdi. Bu esa noyob jamoa qurilmalari va ellinlar arxitekturasi va shaharsozligida ratsional prinsiplarini shakllantirdi. O‘z asoslariga ko‘ra Yunon ustunlarining arxitekturaviy formalari realistik bo‘lsa Misr arxitekturasida esa ramziy - narigi dunyo tasavvuridagi mistik qarashlarga bag‘ishlangan, o‘simliklar tasviri tushurilgan ustunlari bilan farqlanadi. Shunday qilib Yunon arxitekturasining badiiy formalari, ayniqsa o‘z taraqqiyotining birinchi bosqichlaridagilari o‘zining konstruktiv va funksional vazifalariga moslangan edi (1.2.3-rasm).




1.2.3-rasm. Antik me'morchilikning elementlari va naqshlari.

Antik arxitekturasi formalari arxitekturaga nisbatan ma'lum bir sinfiy talablarga ko‘ra ustun – to‘sin tizimini badiiylashtirish asosida yuzaga keldi. Yunon klassik arxitekturasi sharq quldorchilik davlatlaridan farqli ularoq me'morchilikda kishi shaxsiyatini tahqirlash yoki ruhiyatini ezuvchi ta'sir etadigan, mahobatlilik, kishini vahimaga solish maqsadlarida bo‘lmay balki gumanistik yaratuvchanlik, insonparvarlik, go‘zallik kabi g‘oyalar olg‘a surilgan edi.

Yunonlar barpo etgan klassik arxitektura namunalari jahon arxitekturasining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir etib uning an'analari Rim davlati arxitekturasida, keyinchalik esa butun evropa mamlakatlari arxitekturalarida ham o‘z aksini topa boshladi.

Rimliklarning sun'iy qurilish materiali - betonni o'zlashtirishi svodli yopilmalar plastikasini o'zlashtirish imkonini va shuning bilan ular oralig'ini 30-40 m, ga kattalashtirish imkonini berdi. Ular endi ichki o'lkan fazolarni va turli gabaritdagi svodli yopilmalar yarataboshladilar.

Kechki o'rta asrlar davriga kelib taraqqiyot yo'liga ko'z tutgan shahar ahli va feodallar o'rtasida o'zlarining iqtisodiy va siyosiy haq - huquqlari uchun hamda diniy aqidaparastlik dunyoqarashlari va ilmu - fan o'rtasida shiddatli kurashlar jarayonida gotika arxitekturasi barpo etildi. Karkas g'oyasiga asoslanib toshdan bajarilgan yangi bino sxemasi inter'er fazosi va butun arxitekturaviy formalarni o'zgartirib yubordi (1.2.4-rasm).



1.2.4-rasm. Gotik arxitekturaning konstruktiv detallari va elementlari.

Natijada nayzasimon baland arkalarining har biri o'z tayanchiga (raspor) ega bo'lib, og'irlikning gorizonta kuchlanishi keskin kamaydi. Binoning tashqi qiyofasi yuqoriga dinamik ravishda intilayotgan jim-jimador ko'rinishi go'yoki yuzagaga kelayotgan yangi jamoa ahlining xis - tuyg'ularini eslatar edi. Umuman olganda bu yangilik tufayli arxitekturada iqtisodiy texnik, funktsionallik va badiiylik kabi faktorlarlarning o'zaro bog'langan uyg'unligi barpo etildi.

O'yg'onish davriga kelib Italiyada dengiz orqali savdo sotiqning gurkirab o'sishi uning iqtisodiy salohiyatini barqarorlashishiga olib keldi. Bu esa arxitektorlar oldiga yangi-yangi g'oyaviy, ijodiy, ishlab chiqarish vazifalarini qo'ydi. Italiya me'morlari antik Yunonston arxitekturasi va

san'atining gumanistik, boy merosi namunalardan foydalangan holda arxitekturaga yangi texnologiya va formalar kiritdilar. O'yg'onish davri arxitektorlari tomonidan Yunon order tizimi qo'llanilayotgan bo'lsada, beton ixtiro qilinishi, devor konstruksiyasi va svodli yopilma yuzaga kelishi bilan endi binoning tektonik ko'rinishini ifodalash maqsadlarida ishlata boshladilar. Devorlar g'ishtdan terilib ularga marmar qoplamalar bilan ishlov berilar edi. Qoplamalar yordamida pilyastra, antablementlar va boshqa elementlar ishlanib ularga og'irlik tushirilmas edi. Shunday qilib, arxitekturaviy formalar endi shartli, simvolik vazifalarni bajara boshladi. Pilyastralar devorga dekrotiv - konstruktiv ko'rinish berishi bilan birga uni bo'laklarga bo'lib devor tekisligiga kompozitsion salobat bag'ishlash maqsadlari qo'yilgan edi. Shunday maqsadlarda yuqori qavatlardagi orderlar o'lcham jihatdan kaltaroq va nafis, pastki qavatdagilari esa og'irroq va balandroq ishlangan bo'lib, bino ko'rinishini mustahkam, ishonchli tayanchga ega ekanligidan dalolat berib turar edi. Umuman italiya arxitekturasida order tizimi o'zining g'oyaviy – badiiy vazifalariga ko'ra dekorativ yoki tektonik maqsadlarda qo'llanilib, bino konstruktiv – fazoviy tizimini faqat ko'rimli (illyuzorli) aks etdirar edi.

Qurilish ishlarida temir, armo – sement, shisha, temirbeton, keyinchalik alyuminiy, plastmass va turli xildagi materiallarni poydo bo'lishi arxitektura imkoniyatlarini kengaytirib yubordi. Texnika va fanning rivojlanishi inshootdagi tayanch, turg'unlik tushunchalarini o'zgarishi bilan qurilish xarakteri butunlay o'zgarib, binoning mayda elementlardan bittalab terish ishlari, endi zavodlarda tayyorlanadigan katta detallarni karkaslarga montaj etish kabilar bilan almashdi. O'tgan asrlarda devor bino asosini tashkil etgan bo'lsa, endi xonani issiq-sovuq va shamoldan himoyalovchi, karkasga ilib qo'yilgan yupqa plastinaga aylandi.

Uzunligi 100 m. dan ziyod osma yopilmalar tizimi, qobiqli murakkab fazoviy konstruksiyalar yuzaga kela boshladi, tayyor fazoviy elementlardan uylar qurila boshlanib, binolarning yangi tiplari yaratilaboshladi. Qurilishdagi bunday o'zgarishlar, ilg'or konstruktiv tizimlarga, bugungi kunni ijtimoiy, estetik ideallari talablariga asoslangan, yangi – yangi arxitekturaviy formalarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida arxitektura dunyo mamlakatlaridagi kabi o'ziga xos taraqqiyot pog'onalarini bosib o'tdi. O'rta Osiyo hududi xalqlarining ijtimoiy madaniy shakllanishi o'ta murakkab tarixiy jarayonlarda kechingan. Siyosiy olg'ov-dolg'ovlar, boqinchilik va istilolarni boshdan kechirishi, mafkuraviy, madaniy integratsiya, diniy oqimlarning ko'p xilligi arxitekturaga o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Zardushtiylik, buddizm, nasroniylik, moniizm, iudizm, islom, sufizm O'rta Osiyoda tarqalgan asosiy

diniy oqimlar bo‘lib, ularning ibodatxonalari ham o‘z e‘tiqodlari talablariga ko‘ra shakllanib kelgan (1.2.5-rasm).



1.2.5-rasm. Navoiy viloyati Karmana tumanidagi Qisim Shayx xonaqosi.

Ammo afsuski ulardan faqatgina arxiologik ma'lumotlarga mavjud. O'rta Osiyo arxitekturasi o'tmishi haqida qal'alar xarobalari, IX-X asrlarda qurilgan Samoniylar maqbarasi va XI-XII asrlarga mansub Sulton Sanjar maqbarasi va boshqa namunalar "moziy sadosi" sifatida etib kelgan bo'lsa islom davri arxitekturasiga mansub, Buyuk Temuriylar yaratgan, dunyoviy arxitektura durdonalari (shedevrlari) qatoridan joy olgan betakror namunalari Samarqand, Buxoro Shahrisabz, Xiro, Qobil, Agra shaharlaridagi va keyingi asrlarda Xiva xonliklari tomonidan yaratilgan arxitekturaviy qurilmalari yurtimizda qurilish san'ati taraqqiyotining naqadar yuqori darajada bo'lganligi haqida namunalardir (1.2.6-rasm).

O'rta Osiyo hududida arxitektura va san'atning uyg'unlikda taraqqiy qilganligi, qal'alar xarobalari Afrosiyob, Varaxsha, To'proq qala, Ayritom, Qo'y qirilgan qala va boshqalar qurilmalar qoldiqlaridan topilgan V, VI, VII asrlar, qoraxoniylar davriga mansub mahobatli rangtasvir va haykaltaroshlik asarlar namunalari, arxitektura va san'atning uyg'unligi, xalqimizning yuksak ma'naviy, mafkuraviy salohiyatining naqadar yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.



1.2.6-rasm. Mozori Sharif shahri Ro'zai Hazrati Ali ansamblidagi masjid arxitekturasi. XV-XVII aa.

Nazorat savollari

1. Arxitektura tushunchasi nima va uning asosiy funksiyalari qaysilar?
2. Arxitektura insoniyat jamiyatini barpo etishda qanday rol o'ynaydi?
3. Qadimgi sivilizatsiyalar arxitekturasi davriy rivojlanishi qanday bosqichlardan iborat?
4. Arxitektura tarixida qadimgi Sharq, Misr va Mesopotamiya arxitekturasi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega edi?
5. Arxitektura sohasidagi rivojlanish jarayoni insoniyat ijtimoiy va madaniy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

1.3. Misr me'morchiligi. Tarixdan ilgarigi asrlarda

Qadimgi Misr hayoti va taraqqiyoti Nil daryosi bilan bog'liq edi. Daryo odamlarni ozuqa, qurilish materiallari bilan ta'minlashda, hamda ularga qulay yo'l sifatida xizmat qilardi. Ammo daryo ularga ancha qiyinchiliklarni ham tug'dirardi. Iyun oylaridan boshlab toshqinlar boshlanib odamlarga juda katta tashvish, noqulayliklar keltirardi. Shuning uchun uning suvidan unumli foydalanish, toshqin suvlarini kerakli shaxobchalarga burish uchun minglab ariq va kanallar qazish, shuningdek, suvlarni boshqarish, saqlash uchun baland dambalar qurish talab etilardi.

Bu ishlarga katta ishchi kuchi talab qilinishi, qaysiki, tartibli tashkillashtirilgan ish boshqarishni talab etar edi. Bu hol o'ziga xos davlatchilikni yuzaga kelishiga sabab bo'lib, oqibatda bu jamiyatni sinflarga bo'linishiga va quldorchilik tizimini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.


Erni davlat tasarrufida bo'lishi, shuningdek, istibdodning cheksiz huquqi va uni din tomonidan qo'llab-quvvatlanishi Misr davlati iqtisodiyotining yuksalishi uchun qulay sharoit tug'dirdi.

Misrda jamiyatini tabaqalanishi quyidagicha edi:

- 1-Fir'avn,
- 2-Rohiblar,
- 3-Ma'muriyat,
- 4-Hunarmandlar,
- 5-Qullar.


Eramizgacha bo'lgan 3 mingginchi yillarda Misr quldorlik jamiyati siyosiy uyushmasi tugab, qadimgi podsholik davri boshlandi. Qadimgi Misrda asosiy qurilish materiallari loy, qamish, tosh bo'lib qamishni ustidan loy suvoqlab soddagina hujralar qurilar edi.

Qisman xom g'ishtdan ham foydalanishni va sodda metall uskunalardan foydalanib, toshlarga ishlov berishni ham amaliyotda qo'llay boshlashdi. Misrliklar toshlarni yog'och fonalar orqali bo'lishni, temir uskunalar orqali ularga ishlov berishni, bloklarni qumda yoki yog'och g'ovalalarda sirg'altirib surgashni hamda richaglardan foydalanish kabi ishlarni a'lo darajada o'zlashtirib oldilar. Bunday ishlarni minglab qullar bajarar edilar (1.3.1-rasm). Fir'avnlarni tekin ishchi kuchidan foydalanib, ulkan qurilmalar qurar edilar. Katta bo'lmagan yashash va ish uchun mo'ljallangan hujralar hovli atrofi bo'ylab qurilar, ular oynasiz tomlari yassi, loy bilan suvoqlangan bo'lar edi. Fir'avnlarni va zodagonlarni saroylari esa bog'-rog'larga burkangan, soya salqin muhit yaratilgan, qalin va baland devorlar bilan o'ralgan bo'lar edi.



1.3.1-rasm. Misr devoriy rasm. Ibodatxona qurilishi.

Misrliliklar qabrlarni toshdan qurar edilar. Chunki, ular odamning u dunyosi boqiy deb tushunar edi. Qabrlarning keng tarqalgan turi mastaba deb atalib, uzoq muddatga chidashi uchun va xom g'isht mo'rt va bo'sh bo'lganligi sababli uning yuqori qismi asosiga nisbatan kichraytirib, pastga qarab esa kengaytirilib qurilar edi. Qurilmaning yuqori qismi marhumning xonasi hisoblanib, mumiyolangan tanasi er osti kamerasiga joylashtirilib, yuqori xona devorlariga marhumga "u dunyoda" kerak bo'ladigan barcha zaruriy narsalar rel'efli etib tasvirlanar edi. Tasvirda ifoda etilgan syujetlar marhumning jamoa o'rtasida egallagan mavqeini aks etdirib, mastabaning katta kichikligi ham uning obro'-e'tiboriga qarab qurilar edi (1.3.2-rasm).



1.3.2-rasm. Mastabaning sxematik kurinishi.

Shu nuqtai nazardan, Fir'avnlarning sag'analari uning eng yuqori mavqega ega bo'lganligi bois katta o'lchamda qurilgan. Piramidalar o'lchamlarini kattalashtirish va formalarini soddalashtirilish prinsipi bo'yicha pog'onali tarzda, Djosser piramidasidan boshlab to ulkan Xiops piramidalari ko'rinishida rivojlanib bordi. Qadimgi Misr podsholik davri qurilmalari ichida Gizadagi (nekropol-marhumlar maskani) arxitekturaviy jihatdan to'g'ri rejalashtirilgan eng etuk piramidalar kompleksi hisoblanadi. Piramidalar ichida eng yiriklaridan biri Xeops (Xiops (Xufu) - IV fir'avnlr

sulolasining II fir'avni) bo'lib uning balandligi 146.8 m. ga ko'tarilgan (1.3.3-rasm).



1.3.3-rasm. Xeops. Qadimiy podsholik inshooti.

Gerodotning yozishicha, Xeops piramidasini 100 mingta qul 20 yilda qurib bitirgan edi. Bunga “Yorug‘ dunyoda hamma narsa vaqtdan qo‘rqadi, ammo vaqt esa piramidalardan qo‘rqadi” degan qadimgi maqolni eslash joiz bo‘ladi.

Tog‘dek ulkan Xiops piramidasi ichiga fir'avning kichik dahmasi qurilgan (5,2x10,143m) bo‘lib, bunda uning tobuti joylashtirilgan edi. Piramidalar ichidagi dafn kameralariga bir-biriga chigallashtirib tutashtirigan maxfiy (labirint) koridorlar orqali borilar edi. Juda og‘ir yukni ko‘tarish uchun mo‘jallangan murakkab konstruksiya o‘sha davr uchun hayratlanadigan darajadagi qurilma edi.

Misir quruvchilari o‘sha davrlarda ustun – shopil usulini ishlab chiqdilar, shuningdek, ular ustunlarga bezak berishni va ularning turlarini (tiplari) yaratdilar. Misrliklarning arxitekturaga qo‘shgan hissalarini beqiyosdir. Ular birinchi marta anfiladali, ya’ni, ketma-ketli xonalar etib joylashtirishni, binolarni oldindan me’moriy rejalashtirishni, toshlarni ma’lum modulga keltirib ularga ishlov berib qo‘llashni, qabr toshlariga monumental obraz va mazmun berishni, muqaddas ansambllar qurilishi va rivojlanishiga asos solib, arxitektura, haykaltaroshlik, rangtasvir sintezini yaratilishiga yo‘l ochib berdilar.

Nazorat savollari

1. Misr me'morchiligi tushunchasi nima va uning asosiy xususiyatlari qanday edi?
2. Tarixdan ilgari davrlarda (prehistorik davr) Misrda inson yashash joylari va inshootlar qanday qurilgan?
3. Qadimgi Misr sivilizatsiyasida arxitektura shakllari va materiallari qanday bo'lgan?
4. Tarixdan ilgari asrlarda Misr me'morchiligi ijtimoiy va diniy hayotga qanday bog'langan?
5. Misrda qadimgi inshootlar, masalan, ibodatxonalar yoki tosh binolar qaysi maqsadlarda qurilgan?


1.4. Krit-Miken Yunon me'morchiligi

Yunoniston shaharsozligida asosiy uch davr mavjud: arxaika mil.av. 8-6 asrlar; klassikka mil.av. 5-4 asrlar, va ellinizm mil.av. 4-1 asrlar. Polislarning maydoni turlicha bo'lgan. Masalan: Sparta 8400 km², Afina 2550 km² xududni egallagan edi. Afina aholisi 300000 aholi kishini tashkil qilgan.

Seminuit akropoli kompozitsiyasida plixromiya, qo'lanilgan. Tarxida muntazamlilik mavjud. Shaharni Karfagen bir necha marta buzgan.

Pestum. Shahar o'tasida dumaloq basseyn bo'lgan. Olimp muqaddasgohi atlas deyilgan mil.av. 776 yilda dastlabki Olimpiya o'yinlari o'kazilgan. Bu joyda asosiy ibodatxona Zevs ibodatxonasi edi. Zevs sajdagohida yorqin olov ushlab turishgan. Ibadatxona qarshisida «Exo» stoasi bo'lgan. Altis yonida 40 ming O'rinli stadion bo'lgan. Yaqinidagi Alfey daryocha yoqasida ippodrom bo'lgan. Altes atrofida gimnasiy, plestra kabi imoratlar, bulevterit bo'lgan. Olimpiya o'yinlariga qullar kirgazilmagan. Altis arxaika davrida tuzilgan bo'lsada, muntazam emas, balki erkin tarhli qilib tuzilgan (1.4.1-rasm).

M.a. VII-VI asr dengizchilik, savdo-sotiq, aholining o'tishi kolonnizatsiya rivojiga olib keldi. Dastlabki kolonnizatsiya markazi Evbed oroli shaharlari edi. Keyin Kornif, Megara va Rodos shaharlari kolonniyalar qurdilar. Miletliklar. 80 kolonniya (yangi shaharlar) quridilar shu jumladan qora dengizda Istriya, Odesa, Olviya, Feodosiya, Pantikapey, Dioskuriada shaharlarini barpo etdilar. Yangi shahar uchun kerakli shartlar quyidagilar hisoblangan: kema uchun qurfaz yaqinligi, toza suv, unumli er, muxofaza uchun relef qulayligi, shamollar tarzi, yomg'ir suvlarining oqishi uchun nishablilik va boshqalar.




1.4.1-rasm. Akropolning umumiy ko'rinishi.

- 1 - Propylaea, 2 - Nike Apteros ibodatxonasi, 3 - Bravronion, 4 - Xalkoteka, 5 - Partionon, 6 - Athena Promachos haykali, 7 - Arrephorion, 8 - Pandroseion, 9 - Erechtheion, 10 - Hecatompedion, 11 - Afina qurbongohi, 12 - Zevs ziyoratgohi, 13 - Pantion ziyoratgohi, 14 - Elevsinion, 15 - Herod Atticusning Odeoni, 16 - Evmen stoasi, 17 - Asklepion, 18 - Dionis teatri, 19 - Odeon Perikla, 20 - Temenos Dionisa.

Miletlik Gippodam m.a. V asrda ijod etgan me'mor va matematikdir. Shaharsozlikdagi muntazamlilik m.a. VII-VI asrlarda ham ma'lum edi. Etrusklar va finikiyaliklar ham uni ishlatganlar lekin Gippodam ularni yangicha funksional va estetik mazmunda qo'lagan. Arastu ma'lumotiga ko'ra, Gippodam Pireyni qurilishida qatnashgan. U Miletni qayta qurgan (A.Gerkan bo'yicha). Ikkala shaharda yangi va umumiy xususiyatlardan biri: shundan iboratki ularda zonalar: savdo markazi, jamoat markazi va ikki daha ajratilgan. Pireyda Gippoda nomli maydon ikki bandargoh (gavon) orasida tashkil etilgan. G'arbroqda-skdad va port xududi mavjud. Dahalar shimoli-sharqda va janubi-g'arbdan joylashgan. Boshqa ikkinchi umumiy jihati asosiy ko'ra janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa yo'nalganligidan iborat. Kvartallarning nisbatlari: Gippodamgacha chuzinchoq edi, keyin esa kvadratga yaqinlashadi.

Milet shahri markazi ikki yo'nalishda rivojlangan: biri bo'yicha gimnasiy, stadion, park joylashgan, boshqasi bo'yicha savdo va jamoat markazlari (ikki agora, o'rtasida bulevteriy, fuqarolar qasam qilishlari uchun

sajdagoh va yana nimnasiy) taxmin bo'yicha shimoliy kvartallar klassik davrda qurilgan bo'lsa, janubiylarining qurilishi ellinizm davriga to'g'ri keladi. Milet katta shahar bo'lgan. Aholisi 100 ming atrofida edi. Bu erda yirik olim va faylasuflar ijod etgan. Pifagor ham shu erga yaqin bo'lgan Samos orolida yashagan. Bunday muntazam tizimdagi shaharlar «ochiq» tiyatga (xarakterga) ega edi. Qo'rg'on devor shaharni berkitib qo'yamagan uning ham dahalarini, ham markazini kengaytirish va rivojlantirish imkoniyati bor edi(1.4.2-rasm).



1.4.2-rasm. Qadimgi Milet shahri. Markaziy qism.

- 1 - Teatr, Shimoliy bozor, Janubiy bozor, Bulevteriy, 5 - Apallon ziyoratgohi,
6 - Gimnaziya, Rim nimfioni, Sharqiy bozor, Afina masjidi, Faustin termi.

Delflilik koxinlar qaysi erda qanday er o'lashtirish kerakligini bashorat qilishgan. Delfdagi Appolon muqaddasgoxi, ikki tog' orasida barpo bo'lgan. Asosiy kiraverish bo'ylab turli qabila (polis)larning xazinaxonasi, ustunlar va haykallar joylashgan.

Mazkur egri yo'ldan bosh ibodatxonaga borilgan. Aditonida koxin ayol so'rovlarga javob berardi. Uni yozib she'r tarzida so'rovchiga etkazilar edi. Majmuada teatr ham bor. Afina yorqin shaharsozlik namunasidir. Pireyni rejalash uchun Milet dan Gippodam chaqirtiriladi. Femistokl (m.a. 525-460 y) davrida devorlar, jumladan uzun devorlar qurildi. Afina dengiz ittifoqini tuzishda boshchilik qildi. Shahar Perikl (m.a. 443-429 yil) davrida rivoj topdi. Xalq majlisida har 20 yoshga to'lgan erkin fuqaro qatnashgan. Bu butun aholining 20% edi. Majlis qatnashchilari fildan (rayondan) saylangan. 500 kishidan iborat kengash saqlanib qolindi. Perikl davrida Afina g'arbdan-sharqqa 1,5 km.ga cho'zilgan edi. Dungliklar ikki kichikkina daryo oralig'ida

edi. Shahar m.a. VI asr qurilgan akvarumdan suv ichgan. Bosh savdo va jamoat agorasi Akropol bilan Dipilon darvoza oralig'ida edi. Agora atrofida ba'zi ma'lumotlarga ko'ra chinorlar o'tkazilgan edi. Limpa, kabi dahalari bo'lgan. Melits, Keramik turar uylar yog'och va xom g'ishtdan qurilar edi. Akropol bir vaqtlar qal'a va o'rda vazifasini o'tagan. Uzunligi taxminan 300 m, eni 150 m. atrofida bo'gan. Rivoj vaqtida Afinada Gerodot, Esxal, Sofokl, Evrinid, Fidiy, Iktin, Kallikrat, Mnesikl kabi allomalar ijod etgan. Avvalgi Gekotompelon ibodatxonasi vayronaga aylangan edi. Qayt qurish vaqtida Akropolda uch g'oya o'z ifodasini topdi:

1. Yunon olamida Afinaning e'tiborini e'tirof etish; 2. Attikaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini aks ettirish; 3. Demokratik tuzumni ifoda etish. Akropolda diniy funktsiya vatanparvarlik bilan uyg'unlashib ketgan. Avval Afina Proshaxos haykali qurildi, keyin-Parfenon ibodatxonasi, Propilleya, hamda Nika Apteros va Erexteyon ibodatxonalari qad ko'tardi. Parfenon ham Olimpiyadagi Zevs hamda Delordagi Appolon ibodatxonalari kabi umum yunon ibodatxonasi edi. U harbiy shuhrat yodgorligi kabi edi. Unda arxitektura va haykaltaroshlik chambarchas bog'liq Afinaning yana Afina Gigeyya (sog'liq xoshiyasi), Afina Ergana (hunar xoshiyasi) qiyofalari ham uchraydi (1.4.3-rasm).

Panafineya bayramlari to'rt yilda bir marta o'tkazilgan. Mahaliy Afineya bayrami har yilda o'tkazilgan. Panafineya bayrami esa Olimpiya o'yinlar kabi qadimiy bo'lmay m.a. VI asr o'rtalarida shahar mavqesini ko'tarish maqsadida joriy etilgan. Iyul oyining oxirida bir necha kun davom etgan. Ishtirokchilar kechga yaqin agoraga yig'ilgan. Bayram qo'shiq va raqs bilan boshlangan. Keyin bayram ishtirokchilari akropol tomon yurishgan. Orasida turli marosimlar o'tkazilgan. Quyosh chiqish vaqtida tepaning sharqiga yotilgan. Quyosh Parfenonning sellasiga bir necha daqiqa kirib xrisoelefaitin haykalini yarqiratgan.

Keyin marosim tepalikning janubiy, Dionis teatri va Perikl odeonida (musiqa binosida) qo'shiq-raqs bilan davom etgan. Kunning ikkinchi yarmisida Propilleya orqali akropolga chiqilgan. Marosim Parfenonning zoforida aks etilgan. Unda e'tiborli oiladan chiqqan qizlar peplos ko'tarishgan, ulardan keyin oqsoqollar, boshqa shahar elchilari sovg'a ko'tarishgan o'z xizmatkorlari bilan, atletlar, ruxoniylar, qurbonlikka hayvonlar etaklashgan holatlar tasvirlangan. Marosim quyosh yo'li bilan hamohang ravishda o'tkazilgan.



1.4.3-rasm. Afinadagi Parfenon ibodatxonasining umumiy ko'rinishi.

Aflotun (m.a. 428-348), Arastu (m.a. 384-322 y.) polis (shahar-davlat) tuzilishiga oid izlanishlarga yakun berishdi. Ularning qarashlari bir xil bo'lmagan. Aflotun zodagon bilan bog'liq edi. U bayon etgan hikoyada Atlantida davlatini podsho va arxoiplar boshqaradi. Aflotunning ideal shahar-davlat to'g'risida fikrlari uning «Davlat» va «Qonunlar» kitoblarida berilgan. Shahar-davlatda 3 tabaqa: davlat boshqaruvi-faylasuflar, muhofaza qiluvchi navkarlar va moddiy boylik yaratuvchi dempurglar (hunarmand, dehqon va savdogarlar). Ular Aflotun nazdida «mehnat qurollaridir».

Shahar-davlat aholisiga 12 moli teng guruhga (fil)ga bo'linadi, va har biri o'z joyiga ega. Ular 5040 er bo'linmalarga ajraladi. Har er bo'lmalari yana ikkiga bo'linadi biri shahar chetida, biri mamlakat chetida. Bosh shahar o'rtasida akropol bosh shahar tevaragida bir xilda tarqalgan dehqonchilik erlarining markazi bo'lgan 12 kasaba joylanadi. Shahar aholisi chamasi 3040 ming kishi bo'lishi kerak. Aholi soni doimiy bo'lishi zarur. Ko'paysa yangi davlat tuzilishi zarurati tug'iladi. Hokim Klisfen (m.a. 510-509 yil) urug' qabilaga qarab 4 filga bo'lingan Attikan 10 filga qayta taqsimlangan. Attikani 3 zonaga ajratdi (Afina, mesageya-O'rta Attike, Paraliya, Attika cheti). Har 10 fil har uch zonada o'z eriga ega edi. Demak, Aflotun g'oyalari o'tib bo'lingan yo'l edi. Shunga qaramay uyg'onish va yangi zamon olimlari ko'p marotaba uning g'oyalari murojaat etishgan.

Arastun fikrlari ustozinikidan ancha farq qilgan. Aflotunda shahar tashqi dunyodan ayniqsa dengiz savdosidan holi bo'lishi kerak. Uning

tushunchasi bo'yicha polis o'z xojatini o'zi chiqarishi lozim. Arastu bo'yicha esa shaharning dengiz bo'yida joylashuvi rivojning garovidir. Aflotun shahar rejasida muntazamlik va uylarning birxilligini maqul kurgan. Arastu buni ortiqcha kattqlik deb biladi. U shunday deydi: Bus-butun shaharni to'g'ri rejali qilish yaxshi emas. Shaharning ayrim qismlari va mahallalari (kvartallari) gina to'g'ri rejali bo'lishi lozim. Shunday xolatgina shaharning mudofaasi va ko'rinishi maqbuldir Arastu bo'yicha shaharning ba'zi maydonlarini savdo ixtiyoriga berib ularning atrofiga bazilika, korxonalar va sud maxkamalarini joylashtirish zarur. Boshqa «pokiza» maydonlarda esa ibodatxona, gimnasiy va boshqa jamoat binolari qurish lozim. Xullas Arastu shahari Aflotunnikidan erkinroq va xayotiyroq edi. Arastu tasavvuridagi shaharda o'sha vaqtdagi (m.a. IV asr). Afnaning ba'zi xususiyatlarini ham ko'rish mumkin.

Arastuning ba'zi estetik klassik davrga yakun yasab yangi ellinizm san'atiga asos bo'ldi. Arastuning estetik tushunchalariga ko'ra go'zallik mutanosiblik va tartibdir; uyg'unlik butunning o'z qismlari bilan bog'liqligidir, bu bog'liqlik o'xshash bo'lgan nisbat orqali ifodalanadi; o'lchov butunning boshlang'ich va bo'linmas birligidir. Bu qarashlar o'sha vaqtning badiiy muammolarini falsafiy umumlashtirish natijasi edi.

Nazorat savollari

1. Krit-Miken sivilizatsiyasi davrida arxitektura qanday rivojlangan va uning asosiy xususiyatlari nima edi?
2. Krit orolidagi minoiy me'morchilikning asosiy binolari va yodgorliklari qaysilar edi?
3. Miken me'morchiligidagi qal'alar va saroylar qanday tuzilishga ega bo'lgan?
4. Krit va Miken me'morchiligida diniy va ijtimoiy ehtiyojlar arxitekturaga qanday ta'sir qilgan?
5. Krit-Miken me'morchiligida foydalanilgan qurilish materiallari va texnologiyalari haqida tushuntiring.

1.5. Etrusk va Rim me'morchiligi

Qadimgi Rim me'morchiligi Apenin yarim orollaridagi ko'pgina xalqlar, jumladan, etrusklar, keyinroq Rim bosib olgan erlardagi boshqa xalqlar arxitekturasi tasirida rivoj topdi. Uning ravnaqiga, ayniqsa, grek arxitekturasi kuchli ta'sir o'tkazdi. Lekin Rimliklar o'zga xalqlar arxitekturasi o'zlashtirib, o'rganib, uni ijodiy boyitdilar, shu arxitektura an'alarini rivojlantirib, uning yangi tipi va ko'rinishlarini ham vujudga keltirdilar.

Rimdagi tarixiy sharoit, ijtimoiy tuzum xarakteri arxitekturaning

g'oyaviy yunalishini belgilashda muhim rol o'ynadi. Rimda me'morlik etakchi o'rinni egalladi. Me'morlikda davlatning kuch - qudratini tarannum etildi. Rimliklar ko'pchilikka mo'ljallangan muxtasham binolar qurdilar. Bunday xarakterdagi binolar bu davr uchun yangilik bo'ldi. Me'morlikda rimliklarning aql-zakovati yaqqol namoyon bo'ldi (1.5.1-rasm).



1.5.1-rasm. Qadimgi Rim arxitekturasi - yodgorliklari, tarixi, xususiyatlari.

Bu sistema katta fazoviy kenglikni yopa oladigan, xona ichida katta fazoviy kenglikni yaratish imkoniyatini beradigan me'morlik kompozitsiyalarini vujudga keltirdi. Qadimgi Rim tarixi eramizdan avvalgi VI asrdan boshlanib, yangi eraning V asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi VI asrga kelib, Rim aristokratlari quldorlik respublikasiga aylandi.

U Apenin yarim orolini zabt etib, O'rta er xavzasida o'z hukumronligini o'rnatgach, eramizdan avvalgi II asr o'rtalariga kelib, shu erdagi yirik davlatga aylandi. Bosib olingan erlardan boyliklarni Rimga olib kelinishi uning ravnaqida muhim rol o'ynadi, shu bilan birga, inqirozni ham tezlashtirdi. Mulkiiy tengsizlik oshdi, ekspluatatsiyaning kuchayishi esa omma noroziligini keltirib chiqardi. Ayniqsa, qullar qo'zg'oloni (bo'lar ichida Spartak qo'zg'oloni mashxur) respublika davrining inqiroziga yuz tuta boshlaganini bildirdi. Uning o'rniga Rim imperatorlik davri egalladi. Bu davr eramizdan avvalgi I asr oxiridan yangi eraning 476 yiligacha davom etdi.

Me'morlik rivojlanib borgan sari, ellada ustalari ustun va to'sinlarga, ular orasidagi boshlanish, dekorativ bezaklarning eng minimal tomonini topish, badiiy va funksional tomoning uyg'un bo'lishiga xarakat qiladilar. Bu butun badiiy sistema order nomini oldi (lotincha «ordo» - to'zilish, tartib ma'nosini bildiradi). Order keyinchalik Gretsiya me'morligining asosiy xususiyatini belgilovchi muhim omilga aylandi (1.5.2-rasm).




1.5.2-rasm. Qadimgi Yunonistonning tartib tizimi.

Grek me'morligining asosiy orderlari doriy va ion orderi hisoblanadi. Doriy orderi asosan, Peloponnes va Buyuk Gretsiya ion orderi Ioniya deb nomlangan. Kichik Osiyo sohillarida ko'proq ishlatilgan. Doriy orderida ishlangan ibodatxona yuqoriga kichrayib boruvchi uchta supacha tarzidagi tosh asos-stereobatga qurilgan.

Ustunlar taglicsiz (bazasiz) bo'lib, ular tepaga torayib boruvchi shaklda ishlangan. Yuzasi esa tarnovchalar-kannelyuralar bilan pardozlangan. Doriy ustuni bevosita stilobatga o'rnatilgan. Ustunning tepa qismi exinga taqaladi. Uning tepasida esa abaka bo'lib, unga antablement qo'yiladi. Doriy orderi arxivra tekis ishlangan. Friz esa metop va tringliflardan tashkil topgan. Ibodatxona tomi ikki nishabli bo'lib, uning old va orqa tomonida hosil bo'lgan uchburchakli maydon fronton deb atalgan. Fronton va metoplar burtma tasvirlar bilan bezatilgan.

Ibodatxonaning tomi burchaklariga akroteriyalar o'rnatilgan. Arxaika davrida fronton va tringliflar yuzasi ko'k, metoplar yuzasi qizil rang bilan bo'yalgan.

Ion orderi er. av. VII asr oxirlarida paydo bo'lgan. U doriy orderidan o'zining nafisligi, bejirimligi hamda tag tomonida stilobatga qo'yilgan tagkursining mavjudligi bilan ajralib turadi. Ion orderida tarnovchali ustunning kapitelinu ikki tomonga bo'ralib to'rgan jingalak sochini eslatuvchi shakl-valyuta va abak tashkil etadi. Arxivra esa uchta gorizonta tasma tekislika ajratilgan. Friz lentasimon qilib ishlangan va bezaksiz (1.5.3-rasm).



1.5.3-rasm. Rim orderlari.


Korinf orderi birmuncha kechroq - klassika davrida paydo bo'ldi. U ion va devoriy orderiga nisbatan jijimador va ko'rkam, kapitelli akanf daraxti barglaridan tashkil topgan buketni eslatadi.

Ilk arxaika ibodatxonalari birmuncha past va uzunchoq qilib ishlangan. Ularning ko'rinishi vazmin va salobatli. Pestumdagi (Italiya) Gera ibodatxonasi (er. av. VI asr o'rtalarida qurilgan) shu xususda xarakterli korinfdagi Appolon ibodatxonasi (er. av. VI asr ikkinchi yarmida qurilgan) perepter tipidagi doriy orderida ishlangan bo'lib, uning old tomonida 6 en tomonida 15 ustun o'rnatilgan. Bu ibodatxonalarda ham arxaika me'morligining xarakterli tomonlari ochiladi.

Efesdagi Artemida ibodatxonasi ion orderida ishlangan, u hajmining kattaligi va badiiy bezagining serhashamligi bilan ajralib turadi.

Rim arxitekturasi rivojlanishi 2 asosiy davrga bo'linadi: respublika davri (IV – 30 yil eramizgacha bo'lgan), imperator davri (30 yildan V asrgacha). Lekin ancha rivojlangan Rim arxitekturasi beton ishlatiladi boshlangan. Beton texnikasi gumbazli konstruksiyalarni rivojlantirishda katta hissa qushdi. Beton iqtisodiy kursatkichlari bo'yicha ancha tejimli va ishlab chikarishda sodda, hamda quruvchilardan yuqori malakani talab etmasdi.

Memorial inshootlar ichida eng tarqalgani bu triumfal arkalar. Eng yorqin misol sifatida Konstantin arkasini kursatishimiz mumkin. Ushbu arka Kolizey oldida qurilgan va u boshqa arkadan nafakat o'lichamlari bilan (balandligi 21,5 m, eni 25 m), balki bezaklarining kupligi bilan ajralib turadi (1.5.4-rasm).



1.5.4-rasm. Konstantin arkasini janubiy tomonidan kurinishi.

Kolizey – Rimning eng yirik amfiteatridan biri bo‘lib, gladiatorlar urushlari va boshqa musobaqalar uchun mo‘ljallangan edi. Uning asosiy o‘lchamlari 156 x 188 m, balandligi 48,5 m. U 50 ming tomoshabinga mo‘ljallangan (1.5.5-rasm).

Yana bir arxitektura inshoot bu Rimdagi Panteon ibodatxonasi bo‘lib, uning gumbazi diametri 43,2 m ni tashkil qiladi (1.5.6-rasm).

Rim davri quruvchilar oldida juda kup amaliy va muxandislikka oid muammo va masalalarni qo‘ydi. Usha paytdan Sezar va Avgust paytida yashagan arxitektor va muxandis Vitruviyning “Arxitekturaga oid 10 ta kitob” ilmiy ishi saqlanib qolgan. Har bir kitobi har xil qurilish inshootlarga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu inshootlar haqidagi izchil ma‘lumot berilgan.

Rim arxitekturasida ham oldin ishlatilgan qurilish ashyolari ishlatilgan. Lekin ancha rivojlangan rim arxitekturasida beton ishlatila boshlagan. Beton texnikasi gumbazli konstruksiyalarni rivojlantirishiga katta hissa qo‘shdi. Beton iqtisodiy kursatkichlari bo‘yicha ancha tejimli va ishlab chiqarishda sodda hamda quruvchilardan yuqori malakani talab etmasdi. Bu esa o‘z navbatida qurilishda qullarni ishlatishga imkon berar edi.

Juda katta jadallik bilan Rimda saroylar qurilishi rivojlanmoqda edi. Ayniqsa, Palatindagi imperator saroyi, qabul saroyi va imperator yashash

joyidan tashkil topgan.



1.5.5-rasm. Rimdagi shahridagi qadimiy Kolizey amfiteatri.



1.5.6-rasm. Rimdagi Panteon ibodatxonasi.

Donato Bramante (1444-1514) Yangi davr me'morligining asoschisi va yirik vakildir. U o'z ijodini Milanda (1472-1499) boshladi. Lekin Rimga kuchib kelganda keyingina bu erda antiqa san'atini o'rganish va o'zlashtirish asosida o'sha davr kishilari qarashlariga

mos bo'lgan bir qator yirik me'morlik kompozitsiyalari ishlab davrning harakatlari uslubini yaratdi. Uning bu Yangi prinsiplari Tanpeto nomlangan ijodxonada nomoyon bo'ldi. Planda aylanasiimon ishlangan gumbazli bino atrofi ustunlari bilan urab chiqilgan hajmi jihatdan katta bo'lmagan bu bino o'zining Man'um metanligi bilan yaxshi taassurot qoldirdi.

Barmente ijodining eng yuksak na'munalari Vatikanni rekonstruksiya qilishni maqsad qiladi va uni Bramantega topshiradi.

U bu erda mavjud dastlabki binolarni tartibga keltirish va ulardan yagona ansambl tuzishga kirishadi. Qator galereya va zinalar qurdiradi, keng, bahavo, quyosh nuriga tula hovlilar yaratib, yirik ansambl tashkil etadi. Bramantening muhim asarlaridan biri Rimdagi avliyo Petr soborining loyihasidir. Me'mor bu bino qurilishga markaziy qubbali bino qurish prinsipini asos qilib oldi. Sobor plani asosiga kvadrat va uning ichida hamma tomoni teng bo'lgan Grek buti olingan. Pastki qator qurilmalar ustiga o'rnatilgan gumbaz ustunlar bilan o'ralgan uning tepasida tunkarilgan qozonni eslatuvchi katta (diametri 43m) bo'lgan gumbazlar joylashgan (1.5.7-rasm).

Bramante loyihasi to'liq amalga oshmadi. U fakat gumbaz osti plani va soborning tashqi devorlarini qurishga ulgurdi. U vafot etganidan sung sobor qurilishi bilan qator me'morlar shug'ullandilar. Bramante palatso qurilishi sa'atida ham muhim rol uynaydi. Pilyastr, gorizontal tasma va karnizlarning o'ziga xos yaxlit va soddaligi bilan qurilgan binolariga monumental va ulug'vorlik baxsh eta oladi.



1.5.7-rasm. Rimdagi avliyo Petr soborining hozirgi kurinishi.

Nazorat savollari

1. Etrusk me'morchiligida diniy va ijtimoiy ehtiyojlar qanday ifodalangan?
2. Rim me'morchiligining rivojlanishining asosiy bosqichlari qaysilar?
3. Rim arxitekturasida foydalanilgan asosiy konstruktsiya elementlari va materiallar qaysilar?
4. Etrusk va Rim me'morchiligi o'rtasidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar nimadan iborat?
5. Rim me'morchiligida arka, tonella va gumbaz kabi inshoot elementlari qanday qo'llangan?

II-BO'LIM. O'RTA ASRLAR ARXITEKTURA TARIXI

2.1. Ilk xristian me'morchiligi davrida Vizantiya arxitekturasi. Vizantiya imperiyasidan Uyg'onish davriga qadar Evropa me'morchiligi

O'z taraqqiyotini XV-XVI asrlarda boshidan kechirgan bu yangi madaniyat tarixda "Uyg'onish" deb nom oldi. Bu iborani italiyalik rassom va san'atshunos Djordj Vazari Itaiiyada san'at uzoq o'rta asrdan so'ng yana qaytadan uyg'onganligi sababli ishlatgan va asosan Jotto ijodiga nisbatan qo'lanilgan edi. Keyinchalik esa bu keng mazmun nasib etib Itaiiyada so'ngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan, o'rta asrlar davridan farq qiladigan san'atni ta'riflash uchun qo'llanila boshlagan.

Uyg'onish davri arxitekturasi va san'ati o'z xarakterini Itaiiyada to'liq nomoyon etib qator taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi.

Bular asosan quyidagilardan iborat:

1. Uyg'onish arafasi davri - proterenesans (XIII-XIV asrlar).



2. Ilk uyg'onish davri - kvatragento I (XV asr)

Uyg'onish davri haqidagi adabiyotlarda ko'pgina asarlarining italyancha atamasi: X-III asr - duchento, XIV asr - trechento, XV asr - kvatrachento, XVI asr chinkvachento ishlatiladi.

3. Yuqori uyg'onish davri (XV asrning 90 yillari - XVI asrning 20-30 yillari).

4. So'nggi uyg'onish davri (XVI asrning ikkinchi yarmi).

Uyg'onish davri taraqqiyoti hamma mamlakatlarda bir xil bo'lmaydi. Masalan, Germaniyada so'ngi uyg'onish Niderlandiyada esa yuqori uyg'onish davri taraqqiyotini boshidan kechirmagan. Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim bosqich edi. Bu insoniyat shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarishi edi. Bu shunday davr ediki, davr ulug' siymolarga muhtoj edi va bu davr o'z tafakkur kuchi, ehtiros va xarakter jihatidan mukammallik va olimlik jihatidan juda ulug' siymolarni yetishtirib berdi. Uyg'onish davri san'ati me'morchiligi antic dunyo san'ati me'morchiligidan ta'sirlandi. Uning yodgoriiklarini qund bilan o'rgandi, lekin bu davr ijodkorlari uning quliga aylanadilar. Real voqeliylikka go'zailikka qiziqish davr taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Me'morlik yangi tendensiyalarining shakllanishiga xizmat qildi. Jumladan me'morlar qadimgi an'analarni o'zlashtirib uni yangi mazmun bilan boyitdilar. Shu bilan birga me'morlikning yangi konstruksiyalarini vujudga keltirdilar, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi ijtimoiy binolar qad ko'tardi (2.1.1-rasm).




2.1.1-rasm. Uyg'onish davri arxitekturasining badiiy ifodalanish vositalari.

Binoning tashqi va ichki tomonini bezash, kenglikni tashkil etish borasida ham qator yutuqlar qo'lga kiritildiki, ular keyingi Yevropa san'ati taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Itaiyaning sharq va g'arb orasidagi muhim savdo yo'lida joylashishi unda kapitalistik munosabatlarning juda er talashishiga olib keldi. Savdo-sotiqning

rivojlanishi, o'zga yurtlar bilan aloqasining intensivligi hunarmandchilikning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Italiyaning Yevropada birinchi bo'lib kapitalistik mamlakatga aylanishiga imkon berdi. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan bu xususiyat san'at va madaniyatda o'z ifodasini topdi. Bu o'zgarish savdo va ishlab chiqarish rivojlangan o'rta Italiyada joylashgan Florensiya, Piza, Siena hamda shimoliy qismidagi Genuya, Milan, ayniqsa savdogar va bankirlar respublikasi bo'lgan Venesiyada juda sezilarli bo'ldi (2.1.2-rasm).



2.1.2-rasm. Florensiya Plani:

- 1 - Santa-Kroche darvozasi; 2 - Santa -Kroche cherkovi; 3 - Santa -Kroche maydoni;
- 4 - Vekkio palassosi; 5 - Sinorii m aydoni; 6 - dei Lansii lodjiyasi; 7 - Uffisii; 8 - del Podesta (Bardjello) palassosi; 9 - sobor; 10 - sobor maydoni; 11 - San-Djovanni baptisteriy; 12 - Medichi-Rikkardi palasosi; 13 - San-Lorenzo cherkovi, 14 - Santa-Mariya Novella cherkovi; 15 - Strossi palassosi; 16 - Ruchellai palassosi; 17 - shahar istehkomi minora -darvozas i; 18 - San-Minyato cherkovi; 19 - ponte alle Grasie; 20 - ponte Vekkio; 21 - Boboli bog'i; 22 - Pitti palassosi; 23 - Pitti maydoni; 24 - ponte Trinita; 25 - San-Spirito monastiri; Santa-Mariyadel Karmine va Brankachchi kapellasi; 27-Piza va Livorno yo'li.

Barokko arxitekturasi. Bu davrda Yevropa san'ati avvalgi an'analar, eng avvalo uyg'onish davri an'analari zaminida kamol topdi. Me'morlik

binolari ko'cha, maydon va tabiat bilan yanada uyg'unlashdi. Suv kaskadlari va favvoralariga qiziqish ortdi.

XVII asr "barokko asri" deb ham yuritiladi. Bu esa bejiz emas. Chunki davrning g'oyaviy estetik qarashlari ayni shu uslubda ko'proq o'z ifodasini topdi. Arxitektura, san'at tarixida XVII asr me'morchiligining o'ziga xos jihatlarini ta'riflash uchun qollanilgan, barokko uslubining belgulari, dastlab Italiyada paydo bo'lgan. Vinola, Palladio me'morlik asarlarida shu tamoyillar namoyon bo'ldi. Ispaniya va Portugaliyada barokko nihoyatda hashamdor, jimjimador edi. Buning sababi mahalliy naqqoshlik san'ati ravnaq topganligidir. Germaniyada esa barokko gotika ta'sirida rivojlanganligi seziladi (2.1.3-rasm).



2.1.3-rasm. Barokko uslubida qurilgan ob'ektning ichki qismi.

Flandriyada "namand barokkosi" shakllangan bo'lsa, Fransiya barokko klassisizm tamoyillari ta'sirida namoyon bo'ldi. Barokko Angliya, Skandinaviya mamlakatlari, keyinroq esa Rossiyaga ham kirib keldi.

Barokkoga xos fazilatlar Rim me'morligida o'zining klassik ko'rinishiga erishdi. Barokko inter'erlarida dekorativ rang tasvir, haykal va kolonnalar muhim o'rinni egallaydi. Ular xonalarga badiiy mazmun kiritadi.

Barokko san'atida fazoviy kenglik masalasi ham o'ziga xos talqin etiladi. U kompozitsiyada yagona ansambl tashkil etuvchi omil vazifasini bajaradi.

XVI asr o'rtalarida Fransiya va Ispaniyaning Italiyani bosib olish uchun olib borgan harbiy harakatlari Ispaniya galabasi bilan tugadi. Italiyaning ko'pgina shaharlari uchun tasarrufiga o'tdi. XVII asrda Italiya iqtisodiy va siyosiy jihatdan tarqoq mamlakat edi. Biroq undagi hukmron tabaqa vakillari chet el bosqinchilari homiyligida dabdabali hayot kechirish. Serhasham, serjilo binolar, Saroy va qasrlar qurish, tantanali kamavallar o'tkazish orqali jamiyatdagi kamchiliklarni yashirishga intildilar. Ular cherkov binolari, saroylar, shahardan tashqarida serjilo va serhasham qasrlar qurdilar. Bu qurilishlar ayniqsa katolisizm markazi bo'lgan Vatikanda qizg'in bo'ldi. Papa davlati xasham uchun mablag'ni ayamadi.

Siyosiy jihatdan tarqoq va qaram iqtisodiy jihatdan qashshoq Italiya XVII-XVIII asr mobaynida Yevropadagi muhim markaz sifatida dong chiqardi. Bu yerda shakllangan va rivojlangan ko'plab badiiy uslubiy yo'nalishlar Italiyadan tashqarida ham shuhrat qozondi. Rim esa Yevropada badiiy hayotning muhim markazi baynalminal akademiya rolini o'ynadi.

Antik va renessans durdonalarini saqlab kelayotgan Rimda ko'hna va yangi san'at aralashib mahalliy va chet el san'ati an'analari ta'sirida o'ziga xos yangi san'at yuzaga keldi. Inter'erlar bezakka boyligi, san'at sintezining nozik ko'rinishi bilan o'ziga xoslik kasb etdi, qurilgan binolar ko'p hollarda gumbazli bo'ldi. Me'morlikda asosan barokko uslubi yetakchi o'rinni egalladi. Italiya me'morlari shahar ko'cha va maydonlarini qayta rejalashtirish asosida ularga o'rta asr shahar ko'rinishiga xos tugallik va ko'rkamlik kiritdilar. Yangi qurilgan favvora, yodgorlik va zinalar shahar maydonlari badiiyligi va emosionalligini oshiradi. Shahar tashqarisidagi qurilmalarda tevarak atrof rel'efi hisobga olinib, majmualar yaratildi.

Tepalik va soyliklarga haykaltaroshlik hamda amaliy san'at asarlari o'matilib, yagona me'mor majmuasi vujudga keltirildi. Barokko memorligida bino old tomoniga alohida e'tibor beriladi va uning dekorativ jihatdan bo'lishi hisobga olinadi. Rimdagi Del Jezu cherkovi barokko namunasidir. Uni me'mor Jakomoda Viniola (1507-73) boshlagan edi. Uning vafotidan keyin shogirdi Jakomodela Portabu ishni tugatgan, qush plyastr, valyuta va favvora va boshqa qator dekorativ bezaklar binoning old tomoniga o'ziga xoslik baxsh etgan.

San-Karlo ibodatxonasi ham barokko uslubining o'ziga xos jihatlarini to'liq namoyon etadi. Bu binoda ham yuqoridagidek bezaklar mavjud. Yarim aylana, oval, yarim ustun shaklidagi hajmlar bino yuzasidagi nur-soya o'yinini kuchaytirib, uning yanada ko'rkam bo'lishini ta'minlagan. Bu cherkov binosi muallifi, barokko uslubining yirik namoyondasi me'mor Franchesko Borrominidir. Ba'zida me'yoridan ham oshirib yuboradi.

Italiyada barokko arxitekturasini XVII asrga to'g'ri keladi. Nazariyotchil arningshaharsozlik sohasidagi ilmiy asarlari Rimdagi ansambllar Dela Ponolo maydoni, Avliyo Petr jomesi oldidagi maydonning ta miri, binolarda Rimdagi del Popolo maydoni, 1662 y. me'moriy bezaklarning planirovkasi. Arx. Raynaldii Karlomo'lligi, bog'larda, may-Fontana. Bosh plan, donlarda va favvoralar atrofi haykaltaroshlik ishlari b ilan ishlanishi barokko arxitekturasining san'at darajasiga chiqishi bilan ajralib turadi (2.1.4-rasm).



2.1.4-rasm. Barokko arxitekturasining san'at darajasiga chiqishi.

Barokko stilida ijod etgan arxitektorlar K. Fontana, Riynaldi, Bernini, Borromini, Petroda Kartonalar o'z ijodlari bilan barokko uslubining boshqa davlatlar arxitekturasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ayniqsa shaharsozlik borasida T. Kaponellaning "Quyosh shahri" loyiha asarlarining bir qancha me'moriy yechimlari va ko'plab ishootlar Yevropaning boshqa mamlakatlariga kirib bordi.

Qadimgi Rusiya shaharlari. Qadimgi Rus san'ati tarixi sharqiy slovyanlarning birinchi feodal davlati Kiev Rusi tashkil etilishi (X asr) dan boshlanib, Rossiyada o'rta asr munosabatlari va badiiy madaniyat prinsiplarining inqiroziga yuz tutishigacha (XVII asr) bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. X asrgacha sharqiy slovyanlar bino, kal'a-qo'rg'onlar hamda ibodatxonalarni loy va yog'ochdan qurganlar, zodogonlarning uylari hamda qadimiy din bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar yog'och o'ymakorligi va devoriy suratlar bilan bezatilgan (2.1.5-rasm).



2.1.5-rasm. Qadimgi Rus cherkovlarini tashqi kurinishi.

Qadimgi Rus san'ati bevosita o'ziga yaqin xalqlar san'ati va madaniyati ta'sirida rivojlangan bo'lsa ham, lekin o'ziga xos fazilatlariga ega bo'lib, o'rta asrning muhim madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi Rusda feodal munosabatlar boshqa mamlakatlar, masalan, Vizantiya singari, quldorlik formatsiyasini boshidan kechirmasdan boshlandi. qadimgi Rus san'atidagi o'ziga xos xususiyat me'morlikda, ayniqsa, fuqoro me'morligi, qal'a hamda ibodatxonalar qurish san'atida yaqqol nomoyon bo'ldi. qadimgi Rus me'morligining kompozitsiyalari tabiat bilan uyg'unlikda ishlanishi va uning xarakteriga mos kelishi bilan xarakterlanadi. Bu binolar shakl va tip jihatidan rang-barang bo'lib, eng qadimgi davr yog'och va tosh me'morligi san'ati bilan bog'liqligi seziladi.

Feodal munosabatlar sharqiy slavyanlarda birinchi ming yillikning o'rtalarida paydo bo'ldi va VIII-IX asrlar chegarasiga kelib, bu shakllanish tugallandi. Bu jarayonning tezlashishida IX asrda Kiev va Novgorodning yuksala boshlashi va yirik Kiev Rusi davlatining paydo bo'lishi muhim o'rinni egallaydi. X asrda xristian dini rasmiy davlat dini deb qabul qilindi. Bu Rusning g'arbiy Evropa va Vizantiya bilan aloqasini kuchaytirdi. Vizantiyaliklar yaratgan me'morlik prinsiplari ham Rusga kirib keldi. Toshdan qurilgan ibodatxonalar paydo bo'ldi.

X asr va XI asrning birinchi yarmida Kiev Rusi Evropada ko'zga ko'ringan yirik davlatlardan biriga aylandi. San'at va madaniyat sohasida haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi.

Davrning muhim me'morlik yodgorligi Kievdagi Avliyo Safiya sabori Kiev Rusining bosh ibodatxonasi bo'lib, u davlatning kuch qudrati va yagonaligini tarannum etadi. 1037 yili qurila boshlagan bu savorlarni Vizantiya me'morligida keng tarqalgan budsimon qubbali sistemadan olingan bo'lib, besh nefli qilib ishlangan. Lekin u Vizantiyaning shu tipdagi binolaridan o'zining tashqi ko'rinishi, eng avvalo, un uch qubbali qilib ishlanishi bilan ajralib turadi. Binoning markaziy qismida eng katta va baland qubba bo'lib, u binoni mustahkam va qudratli qilib ko'rsatadi. Bino atrofi galereyalari bilan o'ralgan. Ular esa binoga engillik kiritadi.

Bu galereyalar baland qubba atrofida pasayib borayotgan mayda qubbalar bilan birgalikda binoning dekorativ tomonini yanada bo'rttirib ko'rsatadi. Ibadatxonaning tantanavor piramidali kompozitsiyasi, qubbachalarning yagona yirik qubba atrofida birlashishi bularning hammasi me'morning asosiy g'oyasi feodal ierarxiyasini, Kiev Rusi davlatini qudratini ulug'lash xalqning engilmasligini ko'rsatishga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu davrda qurilgan ibodatxonalar faqat toat-ibodat uchungina mo'ljallanib qolmay, davlatning muhim siyosiy va madaniy markazi vazifasini ham o'tagan. Bu erda tantanali marosimlar, yig'inlar o'tkazish, elchilarni qabul qilish, davlat xazinasini saqlash uchun ham foydalanilgan.

Kiev Rusi parchalanishidan keyin tashkil topgan knyazliklar ichida Vladimir yoki Vladimir-Suzdal knyazligi eng kuchli bo'ldi. U XII asrda tashkil topib, XII asr oxiri va XIII asr boshlarida, Buyuk Vladimir knyazligi degan unvonni oldi va hatto, Kiev knyazligini o'z hokimiyatiga itoat etishga majbur etdi.

Me'morlik san'ati Buyuk Vladimir Suzdal knyazligini ulug'lashi, qudratini namoyish etishi zarur edi. Shu boyisdan Vladimir shahri qurilishiga alohida e'tibor berildi. Bu erda qurilgan binolarning ko'pchiligi oq toshdan yaratilgan bo'lib, bu material unga o'ziga xos nafasat baxsh etgan.

Vladimir knyazligining ilk oq toshdan qurilgan me'morligi Pereslavl-Zelesskiydagi bir qubbali Spaso-Preobrajenskiy saboridir. U dekorativ bezaklardan holi, ko'rinish jihatidan yaxlit hamda me'morlik kompozitsiyasining simmetrik echimi bilan xarakterlanadi. Vladimir me'morligining mashhur yodgorliklardan yana biri «Tillakor darvoza» (1164) bo'lib, u rus qal'a-qo'rg'on me'morligining nodir yodgorligi hisoblanadi (2.1.6-rasm).

Vladimir me'morligida «Uspenskiy sabori» alohida o'rin e gallyaydi. U Kievdagi asosiy umum rus Avliyo Safiya ibodatxonasi singari ulug'vor, ko'rkam bo'lishi, shaharning haqiqiy siyosiy va madaniy markazi vazifasini o'tashi, shu bilan birga, Vladimir hokimiyatini tarannum etishi lozim edi. Rus me'morligiga xos bo'lgan fazilat, ayniqsa, Nerlidagi Pakrov cherkovida

(1165) hamda Vladimirdagi Dmitriev saborida (1194-1197) yanada yaqqol nomoyon bo'ladi.



2.1.6-rasm. Spaso-Preobrajenskiy saborining tashqi kurinishi.

Nerlidagi Pokrov cherkovi qadimgi Rus me'morligining eng poetik yodgorligi hisoblanadi. Shahardan chekada qurilgan bu cherkov o'zining nihoyatda nafis va erkinligi bilan ajralib turadi. Bir qubbali, yuqoriga cho'ziq holda qurilgan binoning dubo'lg'asi silindrik baraban ustiga o'rnatilgan. U binodagi engillikni yanada bo'rttiradi.

X-XI asrlarda Novgorod Kiev davlatidagi katta shaharlardan biri bo'lib, qadimgi Rusning muhim madaniyat o'chog'i sanalgan. XI asr o'rtasida bu erda qurilgan Avliyo Safiya ibodatxonasi shundan dalolat beradi. Bu sabor o'z plani jihatidan Kievdagi saborga o'xshash, lekin undan bir oz kichik va besh bahaybat dubo'lg'ani eslatadigan gumbazlidir. Bu gumbazlar yumaloq poydevor-barabanlarga o'rnatilgan. Binoning tashqi tomoni bezaklari sodda devorlari tik silliq ortiqcha bezaklari yo'q. Binoning bunday bezatilishi unga yaxlitlik, sipolik va ulug'vorlik baxsh etadi. Novgorod 1136 yili qo'zg'olondan so'ng yirik boyar va savdogarlar respublikasiga aylandi

XII-XIII asrlarda Novgorod va Vladimirdagi me'morchilik yodgorliklari keyingi Rus san'ati taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi.

XIV asr Novgorod me'morligining klassik, noyob yodgorligi Fedor Stratilat cherkovi hamda Spas-Preobrajenskiy sobori hisoblanadi. Bu binolar

ulug'vor, serhasham va go'zaldir. Binoning bunday go'zal bo'lishida turli shakldagi taxmonchalardan o'rinli foydalanilgan, uchburchaksimon chuqurchalar, sodda arkalar muhim rol o'ynagan.

Vizantiya shaharsozligi. O'rta asrning muhim madaniyat o'choqlaridan biri Vizantiya davlatidir. Sharqiy Rim imperiyasida 395 yili vujudga kelgan bu davlat 1453 yilgacha yashadi. Varvarlar xujumidan bir muncha chetda bo'lgan bu davlat uzoq vaqt antik hayoti va madaniyati an'analarini saqlagan holda, asta sekinlik bilan yangi farmatsiyaga-feodalizmga o'ta boshladi.

Bu erda antik arxitektura an'analari e'zozlandi va davom ettirildi. Shu bilan birga, bu an'analar mustahkamlanib borayotgan feodalizm g'oyalari, xristian dini ideologiyasi bilan boyitildi.

Vizantiya arxitekturasida ideal obrazga ega bo'lgan munosabat o'z qiymatini saqlab qoldi.

Vizantiya me'morchiligining o'ziga xos tomonlarini IV asrda uning maydoniga xristian dinining kirib kela boshlagan davridan shakllana boshladi.


Bu xususiyat Vizantiyaning dastlabki gullagan davri VI-VII asrlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Konstantinopol bu davrda katta Vizantiya imperiyasining faqat siyosiy markazi emas, balki madaniy o'chog'iga ham aylandi. «Ikkinchi Rim» deb nom olgan bu shaharda monumental qurilish san'ati rivojlandi. Bu erda xashamatli monastir va ibodatxonalar ansambilini yaratish etakchi o'rinni egallaydi. Bu ansambl tiplari rang-barang. Ayniqsa, Vizantiya uchun antik ijtimoiy ma'muriy binolarni qurish san'ati an'analari asosida qurilgan markaziy gumbazli va cho'ziq bazelika tipidagi ibodatxonalar qurilishi xarakterlidir.

Bu binolarda ichki inter'erning fazoviy kengligi xristian ibodati talabi asosida echilgandir. Bu binolar tashqi ko'rinishidan sodda, vazmin, lekin ichki kenglik nihoyatda nafis va serxashamdir. Shu maqsadda me'mor inter'er uchun yorqin, serjilo marmar, oltin va shunga o'xshash qimmatbaho materiallardan keng foydalangan. Nur va soyaning xona ichidagi mosligi unga alohida sirli va sehirlu kuch baxsh etgan.

Ilk Vizantiya ibodatxonasining namunasi-Ravennadagi uch nefli Sant Apollinare Nuovo bazelikasida shu xususiyat o'z ifodasini topgan. Cho'ziq bazelika tipida ishlangan bu ibodatxonaning markaziy keng nefi tepadagi darchalardan tushayotgan nurlar hisobiga yanada tantanavorlik kashf etadi. O'n neflar ustunlarning ritmini yanada oshiradi. Asosiy diqqatni diniy marosimlar o'tadigan maydonga yunaltililgan.

Avennadagi markaziy qubballi San Vitale cherkovi (521-547) ning ichki qismi devor va pollari rangga boy mozayika bilan bezatilgan, rangli marmar bilan pardozlangan. Vizantiya me'morligi uslubi grek va rim

me'morligi traditsiyalarining mahalliy traditsiyalar bilan uyg'unlashishidan vujudga keldi (2.1.7-rasm).



2.1.7-rasm. San Vitale cherkovining umumiy kurinishi va tarhi.

Jumladan, Konstantinopoldagi Safiya ibodatxonasi o'z konstruktiv to'zilishi jihatidan Panteon ibodatxonasi konstruksiyasiga o'xshab ketadi, lekin bu o'xshashlik bir muncha yashiringan holda talqin etilishi bilan xarakterlanadi.

Vizantiyaliklar grek rim ark-gumbaz sistemasidan ham o'z maqsadlarini ifodalash uchun foydalanganlar. Vizantiya me'morligida xona kengligiga alohida e'tibor berilishini takidlash lozim. Inter'er fazosi aktiv, ta'sirchan, xayajonli. Xona ichining kengligi, cheksiz va ulug'vor bo'lib tuyulishi, serxashamliligi bilan kishiga psixologik ta'sir o'tkazishga qaratilgan. Vizantiya me'morligi va madaniyati jahon xalqlari me'morligi san'atini madaniyatini rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Jumladan, bu madaniyat janubiy slavyanlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Qadimgi Rus arxitekturasi va madaniyati taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Nazorat savollari

1. Ilk xristian me'morchiligi davrida asosiy ibodatxonalar qaysi shakl va tuzilishga ega bo'lgan?
2. Katakombalar va bazilika tipidagi ibodatxonalar qanday qurilgan va ularning diniy ahamiyati nima edi?
3. Vizantiya arxitekturasi asosiy xususiyatlari va konstruksion yechimlari nimalardan iborat?
4. Vizantiya imperiyasida gumbaz va mozaika san'ati qanday rivojlangan?

5. Santa-Sofiya sobori (Hagia Sophia) Vizantiya me'morchiligining qaysi jihatlarini namoyon qiladi?

6. Vizantiya arxitekturasi Uyg'onish davriga qadar bo'lgan Yevropa arxitekturasiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

2.2. Uyg'onish davridan sanoat inqilobi va ma'rifat davrigacha bo'lgan Evropa me'morchiligi, XVIII-asr oxiridan to hozirgi kungacha jahon me'morchiligi

XV asrdan boshlab Yevropa davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tezlashadi. Ayniqsa, shaharlarda hunarmandchilik rivojlanib, turli ishlab chiqarish korxonalari tashkil topadi. Savdo-sotiq rivojlanib, dengizlar orqali xalqaro savdo aloqalari yolg'a qo'yiladi.

Ayniqsa, Italiyaning shimoliy hududlaridagi shaharlar Florensiya, Venetsiya, Genuya, Milan va boshqalarda kapitalistik ishlab chiqarish kurtakladi. XIV asr oxirlari XV asr boshlarida va u bilan bog'liq madaniyat rivojlanishi, asosan, hunarmandchilik ishlab chiqarishining yuqori darajada rivojlanganligi va shaharlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq edi. Gumanizm mafkurasi o'rta asrlarga xos diniy mafkura va dunyoqarashga qarama-qarshi bo'lib, ma'rifatparvarlik va fuqarolik huquqlarini himoya qilish g'oyalari bilan bog'liq edi. Jamiyatda mavjud dunyoqarashning bu tarzda o'zgarishi madaniyat, adabiyot va ilmu fan sohalarida ham o'zgarish yasadi. Gumanistik harakat birinchi navbatda antik jamiyatda mavjud bo'lgan g'oya va aqidalarni qayta tiklashga qaratilgan bo'lib, shuning uchun bu davr madaniyati "Renessans" yoki "Uyg'onish" nomini olgan.

Uyg'onish davri madaniyati bir qator ulug' arxitektorlar, haykaltaroshlar va rassomlar hayoti va faoliyati bilan bog'liq. Ular jumlasiga Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Bramante, Brunallesko, Palladio, Vinola va boshqalar kiradi.

Uyg'onish davrida arxitektura nazariyasi nihoyatda rivojlanadi. Birinchi navbatda bu Qadimgi Rim arxitektura nazariyotchisi Vitruviy asarlarining topilishi bilan bog'liq edi. Bir qator olimlar Vitruviy asarlarini o'rganib chiqib, shu asosda o'zlari arxitektura nazariyasini yanada rivojlantirishdi. Ular orasida Leon Battista Albertining "Me'morchilik to'g'risida o'nta kitob" nomli asarlari, Andrea Palladioning "Arxitektura to'g'risidagi to'rt kitob" nomli va Djakomo Vinolaning "Besh arxitektura orderlarini yasash" qoidalari nomli asarlari shaharsozlik va arxitekturaning barcha sohalarini qamrab olib, amaliy ko'rsatmalarga boy edi. Leonardo da Vinchining bir qator asarlari qurilish mexanikasi muammolariga bag'ishlangan edi. Leonardo da Vinchi va Filaretning bir qator asarlari shaharsozlik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ular markaziy kompozitsiya

asosida shaharning yangicha tuzilishini taklif qilishgan. Palma-de-Nuova deb nomlangan Italiyadagi yangi shahar shu asosda bunyod etilgan.

Uyg'onish davri arxitekturasida kompozitsion jihatdan va qurilish konstruksiyalari bilan gotika arxitekturasidan keskin farq qiladi. Uyg'onish davri arxitekturasida order sistemalari va badiiy ifodalanish vositalarining antik arxitekturasiga xos an'analari qayta tiklanadi va arxitekturada san'atlar uyg'unlashishi, ya'ni haykaltaroshlik va rassomchilik asarlarini arxitektura bilan uyg'unlashtirish vositalaridan keng foydalaniladi. Roman va gotika uslublarining rivojlanishi asosan ibodatxonalar qurilishi bilan bog'liq. Uyg'onish davri arxitekturasida kompozitsion jihatdan yuqori saviyada bajarilishi va dekorativ bezak elementlaridan keng foydalanishi bilan ajralib turadi. Uyg'onish davri arxitekturasida gotika karkas tuzilishidan to'liq voz kechilib, uning o'rniga oddiy va tejamlil bino va inshootlar tuzilishiga o'tiladi. Bu davrda binolar devorlari asosan g'ishtdan yasalib, ustki yopilmasi gumbaz va qobiqlardan bajarilgan. G'isht devorlar suvoqlangan yoki marmar va boshqa toshlar bilan qoplangan. Uyg'onish davri arxitekturasining badiiy ifodalanish vositalari asosan quyidagilardan iborat: Orderli ustunlardan tashkil topgan arkada; imoratlarda pilyastra va derazalar atroflarini o'simlik va geometrik shakldagi bezaklar bilan bezatilishi; bino tashqi devorlarining "rust" shaklida bo'linishi va bezatilishi; torn yopilmasining oldinga chiqib turgan karniz bilan bezatilishi va boshqalar (2.2.1-rasm).




2.2.1-rasm. Uyg'onish davri bezaklarining asosiy vositalari.

Italiyada Uyg'onish davri arxitekturasi uch bosqichdan tashkil topgan; erta bosqich - XV asr: yuqori bosqich – 1500-1530-yillar; so'nggi bosqich - 1530-1580 yillar.

Birinchi bosqich rivojlanishi asosan Toskana viloyati va uning asosiy shahri bo'lgan Florensiyadagi qurilishlar bilan bog'liq. Florensiya shahrida XV asr boshlarida boy-badavlat oilalar tomonidan yangi turdagi turarjoy imoratlari – “pallasso” qurilishi keng tarqaladi. Qasr turidagi bu imoratlar 2-3 qavatdan iborat bo'lib, to'g'ri burchakli reja asosida qurilgan. Bu binolar simmetrik kompozitsiyaga ega bo'lib, qavatlar orasidagi bo'linish tashqi ko'rinishda yaqqol ifodalangan. Derazalar bir xil o'lchamda bajarilib, aniq metrik qator asosida joylashtirilgan. Arxitektor Mikelachcho loyihasi bo'yicha XV asr o'rtalarida qurilgan Medichi pallassosi Florensiyada Uyg'onish uslubining ilk namunalaridan sanaladi. Bu pallasso ichki hovlisi atrofi ustunlari galereya bilan o'ralgan. Galereya ustida 2 va 3-qavatlarda ham ochiq ayvonlar joylashtirilib, ular orqali turli xonalarga kirilgan. Pallassoning ichki tuzilishi o'zining yengil kompozitsiyasi bilan ajralib turadi, tashqi ko'rinishi esa biroz og'ir va mahobatli kompozitsiyaga ega.

L.B. Alberti loyihasi bo'yicha 1404-1472-yillarda Florensiyada qurilgan Ruchellai pallassosi kompozitsion jihatdan boshqa pallasolardan keskin farq qiladi. Bu bino 3 qavatdan iborat bo'lib, binoning tashqi ko'rinishida orderlardan foydalanilgan. Pilyastralarga order shakli berilib, har qaysi qavatda turli orderlardan foydalanilgan (2.2.2-rasm).



2.2.2-rasm. L.B. Alberti loyihasi bo'yicha 1404 -1472-yillarda Florensiyada qurilgan Ruchellai pallassosining grafik tarzda kurinishi.

Florensiyada pallasolardan tashqari boshqa turdagi jamoat binolari qurilishi ham keng ko'lamda olib borilgan. Uyg'onish davri arxitekturasi asoschilaridan biri Filippo Brunalleski loyihasi asosida qurilgan Ospedale

Innochenti - bolalarni tarbiyalash saroyi bu davrning eng yuksak arxitekturaviy yodgorligidir. Ikki qavatli bu binoning tashqi ko'rinishi yengil va chiroyli ustunli ayvondan tashkil topgan. 1444-1479-yillarda qurilgan bu bino Uyg'onish davri arxitekturasida rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Uyg'onish davri arxitekturasida markaziy kompozitsion tuzilishga ega ibodatxonalar keng tarqaladi. Florensiyadagi Santa Mariya del Fore ibodatxonasi qurilishi 1296-yilda arxitektorlar Kambio va Talenti loyihasi bo'yicha boshlangan, ammo XV asrgacha tugallanmagan edi. Binoni tugallash uchun tanlov o'tkaziladi va bu tanlovda F. Brunalleski loyihasi g'olib deb topiladi. Bu loyiha bo'yicha diametri 42 metrni tashkil qiluvchi gumbaz yopilmasini qurish kerak edi. Gumbaz uchlik shaklda bo'lib, balandligi 31,3 metr va yoy radiusi, 36,2 metrni tashkil qiladi. Gumbaz 2 ta qatlamdan iborat bo'lib, tashqi qatlam qalinligi 2,4 - 2,1 metrni tashkil qiladi (qatlamlar qalinligi yuqoriga qarab kamayadi). Ikki qatlam orasida bo'shlik bo'lib, qatlamlar sakkizta asosiy va 16 ta oraliq devorchalar bilan bog'langan. Gumbaz qurilishi 1420-yilda boshlanib, 1471-yilda tugallangan. Gumbaz bilan birga binoning umumiy balandligi 114,1 metrni tashkil qiladi. Bu gumbaz qurilishida qadimgi Eron gumbazlari tuzilishi (Sultoniyadagi maqbara), Qadimgi Rim va Vizantiya tajribasidan keng foydalanishdi. Bu gumbaz qurilishi arxitekturaning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

F. Brunalleski ijodining yana bir namunasi Passi kapellasi 1430-1443-yillarda Florensiyada qurilgan. Markaziy kompozitsiya asosida qurilgan bu ibodatxona qurilishida order sistemalaridan keng foydalanilgan. Binoning bosh tarzi kolonnalar bilan bezatilgan galereyadan tashkil topgan. Kirish peshtoqida 6 ta korinf orderli ustunlar ishlatilgan.

Venetsiya shahrida XV asrning II yarmida qurilgan San-Marko saroyi arxitektor Petro Lombardo loyihasi mahsulidir. Shahar savdogarlari buyurtmasi asosida qurilgan bu bino 3 qavatdan tashkil topgan. Birinchi qavatda orderlar asosida ustunli ayvon tashkil qilingan. 2 va 3-qavatlarda orderlar pilyastra shaklida bajarilgan.

1500-1530-yillarda Rim shahri madaniyat markaziga aylanadi va bu yerda katta qurilish ishlari olib boriladi. Rim shahrida katolizm markazi Vatikan joylashgan bo'lib, bosh rohib – “papa” shu yerda yashaydi. Papa Yuliy II va Lev X davrlarida Rim shahrida buyuk me'morlar - Rafael, Mikelanjelo, Bramante, Sangallo va boshqalar ish olib borgan.

Uyg'onish davri arxitekturasida bu bosqichda mukammal shakl va kompozitsiyaga ega bo'lib, bino va inshootlar ichki va tashqi ko'rinishida mukammallikka erishiladi. Pallasso jamoat binosi sifatida to'liq shakllanadi va uning ichki hovli ko'rinishi bilan tashqi ko'rinishi orasidagi tafovut yo'qotiladi. Orderli kompozitsiyalar aniq bir tizimga tushiriladi va mahobatli ifodalanish xususiyati kasb etadi. Shaharlarda aniq reja asosida muntazam

ansambllar barpo etiladi. Shahar tashqarisida villa - tashqi saroylar boshlanadi va ular to'liq me'moriy kompleks sifatida shakllanadi.

Bramante loyihasi bo'yicha 1502-yilda Rim shahrida qurilgan Tempetto ibodatxonasi gumbazli rotonda shaklida bo'lib, doriy orderi ustunlari bilan ayvon qilib o'ralgan. Orderli ustunlar mutanosibligi, plastikaga boy kompozitsion yechim va badiiy ifodalanish vositalarining tektonik jihatdan aniq xususiyatlari bu binoga o'ziga xos husn bergan.

Bramante o'z loyihasi bilan Avliyo Pyotr sobori uchun o'tkazilgan tanlovda g'olib chiqdi. Papa Yuliy II buyurtmasi asosida quriladigan bu ibodatxona Uyg'onish davrining eng katta va eng mukammal inshooti bo'lishi kerak edi. Qurilish ishlari ko'lami keng bolganligi sababli Bramante hayotligida binoning faqat devorlari va gumbazosti ustunlari tugatildi. Planda Bramante loyihasi bo'yicha ibodatxona to'rtburchak va uning ustiga joylashtirilgan salb shakllaridan iborat edi. Binoning markaziy qismi ulkan gumbaz bilan yopilishi kerak edi. Bramante o'limidan keyin Avliyo Pyotr ibodatxonasi qurilishi Mikelanjeloga topshirildi. Mikelanjelo Bramante loyihasiga ozroq o'zgarishlar kiritadi va gumbaz qurilishini asosan oxirigacha etkazadi.

Mikelanjelo loyihasi bo'yicha tugallangan Avliyo Pyotr ibodatxonasi gumbazli markaziy kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, bosh fasad qismi korinf orderi ustunlari bilan bezatilgan peshtoqqa ega. Binoning tashqi ko'rinishlari va ichki tuzilishi plastik jihatdan yaxshi ishlab chiqilgan va turli dekorativ elementlar- karniz, har xil tasmashakl detallar va haykallar bilan bezatilgan. Ibodatxona ichki rangtasviri va Vatikan lodjiyalarini rangtasvir asarlari bilan bezatish buyuk rassom Rafael Santiga topshirildi.

Mikelanjelo Florensiya shahridagi San-Lorenzo cherkovi qurilishini ham oxiriga yetkazadi. Bu cherkov qurilishi Brunalleski loyihasi asosida boshlangan edi. Bu cherkov kompleksiga kiruvchi Medichi kappellasi (maqbarasi) Mikelanjelo tomonidan qayta qurilib, binoning ichki tuzilishida haykaltaroshlik asarlaridan keng foydalanilgan. Plastik jihatdan ordenli ustunlar va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan Medichi kappellasi qurilishi 1520-yilda tugatilgan.

Bu bosqichda Venetsiya shahrida qurilgan binolardan shahar markazidagi Avliyo Mark maydonida qad ko'targan kutubxona alohida e'tiborga loyiq. Yakopo Sansovino loyihasi bo'yicha qurilgan kutubxona Dojlar qasri qarshisida joylashtirilib, maydon umumiy ansambliga uyg'unlashtirilgan. Ikki qavatli kutubxona binosining bosh tarzi orderli arkada bilan bezatilgan. Kompozitsion jihatdan kutubxona binosi yengil ochiq qilib ishlangan va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan.

Bu davrda qurilgan pallasolardan Rim shahridagi Farneze pallassosi ajralib turadi. Antonio Sangallo loyihasi bo'yicha 1589-yilda qurilishi

tugallangan bu bino mahobatli orderli galereya bilan bezatilgan va umuman binoning tashqi kompozitsiyasi tantanali va ulug'vor ko'rinishga ega.

Kechki Uyg'onish davri arxitekturasi (1530-1580) ikki yo'nalish rivojlanishi bilan bog'liq: birinchi yo'nalish orderli arxitektura, ya'ni klassik an'analar rivojlanishi boisa, ikkinchi yo'nalish bino va inshootlarning boy qilib bezatilishi, ya'ni dekorativizmdan iborat edi. Bu davrning eng yirik arxitektorlari Djakomo Vinola va Andrea Palladiolar edi. Ular birinchi navbatda o'zlarining nazariy asarlari bilan mashhur edilar. Vinolaning "Besh order qoidalari" va Palladioning "Arxitektura to'g'risida to'rt kitob" asarlaridan to XX asrgacha foydalanib kelindi.

Vinolaning amaliy ishlaridan 1559-yilda Rim shahrida qurilgan Papa Yuliy III villasi o'ziga xos kompozitsion tuzilishi bilan ajralib turadi.

Papa Yuliy III ning shahar tashqarisidagi hovlisi Vinola tomonidan bo'ylama o'q bo'yicha rivojlangan kompozitsiya asosida loyihalaniib, asosan ikkita ichki hovli, bog' va imoratlardan tashkil topgan.

Andrea Palladioning amaliy arxitekturaviy faoliyati ko'proq Vichensa shahri bilan bog'liq bo'lgan. Andrea Palladio loyihalari bo'yicha Vichensada bir necha pallasso binolari va shahar tashqarisida villa binolari qurilgan. 1576-yilda qurilgan pallasso Kapitaniato katta kompozit orderli ustunlari bilan ajralib turadi. Binoning birinchi qavati katta lodjiyadan iborat bolsa, ikkinchi qavatda asosiy xonalar joylashgan. Orderli ustunlar pilyastra shaklida ikki qavatga ko'tarilgan.

Palladio villalaridan Vichensa yaqinidagi Rotonda villasi butun dunyoga mashhur asarlardan sanaladi. Markaziy kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan bino tarhi kvadrat shaklida bo'lib, uning to'rt tomonidan orderli kolonnalardan tuzilgan galereya (ayvon) bilan bezatilgan. Binoning markaziy qismi gumbaz yopilmaga ega. Bu villa o'zining yuksak kompozitsion tuzilishi, mutanosibliigi va shaklining uyg'unligi bilan kuzatuvchini mahliyo etadi.

Andrea Palladioning ijodiyoti keyinchalik klassitsizm arxitekturaviy uslubining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Fransiyada Uyg'onish davri uslubi Italiyaga nisbatan qariyb 100 yil keyinroq, XVI asrdan boshlab rivojlangan. Fransiyada bu uslub asosan qirol qarzlari va kyoshklar qurilishi bilan bog'liq.

Angliyada Uyg'onish davri arxitekturaviy uslubi XVI asr boshlarida boshlanib, XVII asr - sanoat revolyutsiyasi boshlangunga qadar davom etadi. Bu uslubda qurilgan binolardan Uollaton-xoll kyoshki XVI asr oxirlarida qurilgan. London shahrida XVII asrning birinchi yarmida qurilgan qirolning Uayt-xoll qasri arxitektor Inigo Djons loyihasi bo'yicha qad ko'tardi. Bu bino tashqi ko'rinishlari kompozitsiyasi order sistemasiga asoslangan.

I. Djonsning yana bir ma'lum loyihasi qirolicha uchun qurilgan Grinvichdagi Villa qurilishi bilan bog'liq (2.2.3-rasm).



2.2.3-rasm. Uollaton-xoll Angliyadagi Uyg'onish (Elizabet davri) davri saroylaridan biridir.

Niderlandiyada Uyg'onish davri uslubi shaharlarda qurilgan turli ishlab chiqarish sexlari, turarjoy binolari va jamoat binolari bilan bog'liq. Jamoat binolari orasida ratusha yoki Fransiyada otel-de-vill nomini olgan shahar boshqaruv organlari binolari keng tarqaladi. Antverpen shahrida XVI asr o'rtalarida qurilgan ratusha binosi arxitektor Kornelis Floris loyihasiga asoslangan.

Ispaniyada Uyg'onish davri arxitekturaviy uslubi asosan XVI asrda keng tarqaladi. Ispaniyada bu uslub Mavritaniya musulmon arxitekturasi va gotika uslubining uyg'unlashib rivojlanishiga asoslangan. Ispaniyada Uyg'onish davri arxitekturaviy uslubi plateresko (zargarlik mahorati) nomini qabul qiladi, chunki ispaniyalik me'mor va ustalar binolarning dekorativ bezatilishini zargarona mahorat bilan bajarishgan. Bunday binolarga XV asr oxirlarida qurilgan Gvadalaxaradagi gersog Infantado va Sevilya shahrida 1527-1534 yillarda qurilgan ratusha binolari misol bo'la oladi.

Nazorat savollari

1. Uyg'onish davrida (Renessans) Yevropa me'morchiligining asosiy xususiyatlari va davr uslublari qanday edi?
2. Renessans me'morchiligida inson, tabiiy muhit va geometriya qanday muhim rol o'ynagan?

3. Barokko va Rokoko arxitektura uslublarining asosiy belgilari va farqlari nimada?

4. Ma'rifat davri (XVII–XVIII asr) me'morchiligida simmetriya, funktsionallik va ilmiy yondashuv qanday namoyon bo'lgan?

5. Sanoat inqilobi me'morchilikka qanday o'zgarishlar olib keldi va qurilish texnologiyalari qanday rivojlandi?

6. XIX asr eklektika va neoklassitsizm uslublarini tushuntiring va ularning asosiy xususiyatlarini sanab bering.

7. XX asr boshidan zamonaviy me'morchilik (modernizm, Bauhaus, funksionalizm) qanday rivojlandi va asosiy prinsiplar nima edi?

2.3. O'rta va yaqin sharq davlatlari arxitekturasi

O'rta va yaqin Sharq davlatlarining arxitekturasi juda boy va xilma-xil tarixiy rivojlanishlarga ega. Ushbu mintaqa ko'plab madaniyatlar va dinlarning kesishgan joyi bo'lib, uning arxitekturasi ham bu xilma-xillikni aks ettiradi. Quyida O'rta va yaqin Sharq arxitekturasi asosiy jihatlari keltirilgan:

Islom arxitekturasi: O'rta va yaqin Sharq davlatlarida keng tarqalgan. Bu uslubning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: Masjidlar islom arxitekturasi markaziy elementi hisoblanadi. Masjidlar katta markaziy zallar, baland minoralari, gumbaz shaklidagi rooflariga ega. Misol uchun, Istanbuldagi Ayasofiya va Damashqdagi Umaviy masjidi (2.3.1-rasm).



2.3.1-rasm. Istanbuldagi Ayasofiya masjidi.

Ko'rgazma va Poytaxtlar: Ba'zi musulmon imperiyalarining poytaxtlarida, masalan Bag'dod va Samarqand, buyuk saroylar va boshqalar qurilgan.

Kubik va bo'rtma naqshlar: Geometrik naqshlar va calligrafik yozuvlar juda keng qo'llanilgan.

Eron arxitekturasi o'zining markaziy va yuqori xususiyatlariga ega. Ularning mashhur elementlari: Katta qoplamalar va qo'shni balkonlar bo'lib, bir yoki ikkita devorga o'ralgan katta ochiq sohalar. Rangli keramika: Eronning ko'plab arxitektura asarlarında rangli keramika ishlari, geometriya va floristik naqshlar keng ishlatilgan. Persiya bog'lari: Eronning klassik bog'lari va suv tizimlari, ayniqsa Shiraz va Isfahonda mashhur (2.3.2-rasm).



2.3.2-rasm. Eronning klassik bog'lari va suv tizimlari.

Usmanli arxitekturasi Usmanli imperiyasi davrida arxitektura juda kuchli rivojlanib, ko'plab buyuk inshootlar yaratildi. Masalan, Istanbuldagi Suleymaniy masjidida yoki Sultanahmet masjidida. Qush yo'llar va Saraylar o'zining boy interyerlari va taxtlar bilan, Topkapi saroyi kabi saroylar usmanli arxitekturasining eng yaxshi namunalaridir (2.3.3-rasm).

Misir arxitekturasi Misrda mamluklar davrida arxitektura juda rivojlangan bo'lib, quyidagi jihatlar mavjud: Mamluklar o'zlarining mudofaa tizimini kuchaytirish maqsadida kuchli qal'alar qurishgan. Masalan, Qal'a al-Jabarti. Masjidlar: Ko'plab mashhur masjidlar, jumladan Muhammad Ali masjidida (Kahira), mamluk arxitekturasining ajoyib misolidir (2.3.4-rasm).



2.3.3-rasm. Istanbuldagi Suleymaniy masjidining tashqi ko'rinishi.



2.3.4-rasm. Kahiradagi Muhammad Ali masjidi.

Yaqin Sharq Arxitekturası (Turkiya va boshqa hududlar). Beyt al-Hikma va madrasalar: Bu turdagi qurilishlar ilmiy va diniy markazlar sifatida ishlatilgan. Pahlavonlar va Darvazalar: Ba'zi shaharlarda, xususan Isfahonda, portlar va darvozalar markaziy ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'rta va yaqin Sharq arxitekturası zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashmoqda.

Misol uchun, Dubai va Abu-Dabi kabi shaharlarda yuqori texnologik inshootlar, ya'ni Burj Khalifa kabi osmono'par binolar qurilgan. Lekin, shu bilan birga, an'anaviy elementlar ham saqlanib qolgan (2.3.5-rasm).



2.3.5-rasm. Dunyodagi eng baland bino. Burj Xalifa.

O'rta va yaqin Sharq arxitekturasi, shubhasiz, juda rang-barang va boy tarixga ega bo'lib, har bir davr va hududning o'ziga xosligini aks ettiradi.

O'rta asrlar shaharsozligi bir qancha o'ziga xosliklarga ega. Bu o'zi xosliklar qadimgi shaharsozlik bilan qiyos qilinganda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Qadimgi davrda aksari shaharlar markazlashgan hokimiyatlar qudratli devollari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda barpo bo'lar edi. O'rta asrlardagi ayniqsa, ilk o'rta asrlarda hokimiyatlar tassarufi asosan mayda hududlar bilan cheklangan. Markaziy hokimiyat qadimgi davrga qaraganda zaif edi. Bu esa o'rta asrlarda mayda hokimiyatlar sharqqa tayanch bo'lgan qal'alar (ko'shklar, zamoklar) qurilishi shaharsozlikdan ahamiyatliroq bo'lib qolishga olib keldi. Ayni vaqtda qadimgi davrda markaziy hokimiyatlarning sustlashgan chog'lari bo'lgani kabi o'rta asrlarda ham markaziy hokimiyatlarning kuch-qudratga to'lgan chog'lari ham bo'lgan. Tabiiyki bunday jarayonlar o'rta asr shaharsozligi ham turli ko'rinishlarda o'z aksini topgan.

Qadimgi shaharsozlikda shaharlar qisqa vaqtda bunyod etilib ko'proq tarhi to'g'ri to'rtburchak shaklida ega ko'challari to'rsifat o'tkazilib shahar hududi kataklarga bo'linar edi. O'rta asrlardagi shaharlar ko'proq uzoq vaqt-

asrlar moboynda bunyod etilib shaharlar tarhi doira shaklini, asosiy ko'chalari esa radial-xalqa ko'rinishni olar edi. O'rta asrlar shaharlarida ham basharning umuman tamaddunida (sivilizatsiyasida) bo'lgani kabi dinlarning tarqalishi katta ta'sirga ega bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharqda xususan O'rta Osiyoda islom dinini tarqalishi shaharsozlikka kirib kelgan bir qancha jiharlar orqali namoyon bo'ladi. Bu jihatlar Hindistoning va Boburiylar sulolasi qaror topgan vaqtdagi shaharsozlikda ham kurinadi. Hindistoning janubiy qismida va Xitoydagi shaharlikda qadimgi davr vujudga kelgan an'analar davom etdirladi. Qadimgi Rim imperiyasining negizida paydo bo'lgan davlatlarda-g'arbiy Rim imperiyasida (Evropa mamlakatlarida) va Sharqiy Rim imperiyasi (Vizintiyada) shaharsozlik an'alariga turlicha qarashlar mavjud edi.

An'analar Vizantiya davlatida bevosita davom etilgan bir vaqtda, G'arbiy Evropa mamlakatlarida ular unitilayozgan edi. Roman va gotika davrlarida (X-XV asrlarda) yangicha shaharsozlik bunyod etiladi. Kiev davlatining va o'rta asrlardagi Rusiyaning shaharsozlik Vizantiya an'alarini davom etdirishga harakat qildi.

Frotning o'ng qirg'og'idagi Ko'ra shahridagi Darol-Imora saroyida ham arxona Mshattadagi kabi uch kefli va ortidagi gumbazli shaklga ega bo'lgan. Markaziy hovlida bo'ylama va ko'ndalangiga ketgan komnozitsion o'qni belgilash mumkin. Bu usul keyinchalik keng tarqaldi. Abbosiylarning eng rivojlangan davri dastlab hukmronlik qilgan xalifa Mansur, Xorun ar-Rashid va Ma'mur xukmronligi davriga to'g'ri keladi. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi (Dor ul-Xikma) faoliyati jahon markazlaridan bo'lganligini takidlaydi.

Yaqin va o'rta Sharqining O'rta asrlardagi shaharsozligiga xos bo'lgan jihatlar ummoyiylar va abbosiylar davrlaridanoq shakllanib bo'ldi. Ummaviylar poytaxti Damaliq edi. Shaharning markazi bozor bo'lib, u devor bilan ixotalangan bo'lgan maydoni (385x305m) qamrab olgan edi. Maydonda 708 yilda xalifa al-Volid tomonidan 157 x100,0 m. bo'lgan. Katta masjid qurdirdilar. Masjid maydonining deyarli yarmini hovli egallagan. Katta masjid O'rta er dengizi atrofidagi boshqa masjidlar me'morchiligiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Nazorat savollari

1. O'rta Sharq va Yaqin Sharq arxitekturasining asosiy xususiyatlari nimada?
2. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida (Mesopotamiya, Fors, Eron hududlari) arxitektura qanday rivojlangan?
3. Zigguratlar va boshqa diniy binolar O'rta Sharq me'morchiligida qanday ahamiyatga ega edi?

4. Islom arxitekturasi qachon va qanday rivojlangan, uning asosiy elementlari nimalardan iborat?
5. Masjidlar, madrasalar va minora arxitekturasi O'rta Sharq va Yaqin Sharqda qanday shakllangan?
6. Arab va Fors arxitekturasida mozaika, freska va bezak san'ati qanday qo'llanilgan?
7. O'rta va Yaqin Sharq arxitekturasida gumbaz va tonella elementlari qanday ishlatilgan?
8. O'rta Sharq me'morchiligi va Yevropa me'morchiligi o'rtasidagi farq va o'xshashliklar nimadan iborat?


III-BO'LIM. O'RTA OSIYO ARXITEKTURASI TARIXI

3.1. Amir Temur davri arxitekturası tarixi

Temur Samarqandda eng avval (1371-1373) mo'g'ul istilochilari vayron qilgandan so'ng ham 150 yil davomida tiklanmay kelayotgan shahar tashqi mudofaa devori va darvozalarini yangitdan qurdiradi. Shahar osma suv yo'li (Juyi arziz) yakson etilishi tufayli suvsiz qolgan Samarqand mahallalariga Zarafshondan suv keltiradi. Bu bilan u shahar aholisinnng tinchligini saqlash, nufuz-e'tiborini ta'minlash, mahallalarini obod etish ishlarini yo'lga qo'yadi.

Shaharda Temur tiklagan mudofaa devori o'ta mustahkam, baland, olti darvozali bo'lib, eni shunchalik mahobatli ediki, ayrim joylarida, masalan, Feruza darvozasidan Shahzoda darvozasigacha hatto devor ustidan otda yurish ham mumkin bo'lgan.

Ayni paytda Temur Samarqandda o'z saltanatining qo'rg'oni Ark qal'a va undagi muhtasham saroylarni qurdiradi. Ark-qal'a shahar tashqi mudofaa devorining g'arbiy qismiga tutash mahobatli ichki qo'rg'oni hisoblangan. Shahar tashqi mudofaa devorining uzunligi, Bobur iborasi bilan aygganda, "o'n ming olti yuz qadam", ya'ni taxminan 10 kilometr ga yaqin va uning oltita munaqqash darvozalari bo'lgan. Qal'a ichida xalq tilida Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy deb atalgan ulug'vor binolar qurilgan bo'lib, ular bu erda sobiq ittifoq davrida qurilgan "Afrosiyob" mehmonxonasining shimoliy qismida joylashgan edi. Ushbu mahobatli saroylardan tashqari arkda masjid, kutubxona, shohona uy-joylar, Amir Temurning xazinasi va taxtgohi, pul zarblanadigan qo'ra, qator aslaqasozlik ustaxonalari, hammomlar hamda zindon ham bo'lib, atrofi baland va qalin devor bilan o'ralgan edi. Ko'ksaroy to'rt qavatli muhtasham bino bo'lib, yuksak mahorat bilan bezatilgan. Oldida chorbog'i bo'lgan Bo'stonsaroy esa Ko'ksaroyga yaqin, uning shimoliy qismida joylashgan edi. Shahar arki daxlsizligini uning 8 metr lar chaması baland devorini o'rab olgan suvga to'la chuqur zovur ta'minlab turardi. Ark darvozalaridan biri o'sha davrda shahar savdo va jamoat markazi hisoblangan hozirgi Registon maydoni bilan keng ko'pri va ko'cha orqali bog'langan edi. Registondagi hozirgi Sherdor madrasasi hududida Temurning xotini Tuman oqo qurdirgan ko'p gumbazli kattakon Chorsu-"Timi ko'laxfurushon" joylashgan edi (3.1.1-rasm).



3.1.1-rasm. Temurning Samarqandda qurdirgan usti yopiq savdo ko'chasing tarhi. O'ngda ushbu ko'chaning XIX asrdagi holati. Sh. Ratiya rekonstruksiyasi.

Amir Temur Samarqandga va Shahrisabzga o'zi zabt etgan mamlakatlaridan beqiyos boyliklar va ular madaniyati, san'atining zubdasi bo'lmish me'morlar, rassomlar, shoirlar, olimlar, mohir hunarmandlar (qulozozlar, toshtaroshlar, yog'och hamda tosh yo'nuvchi naqkoshlar, kandakorlar, zargarlar, tikuvchilar) va zukko ustalarni olib kelardi. Ularning barchasinn o'z homiyiligiga olib ish va maosh bilan ta'minlardi. Natijada shahar hunarmand va savdogarlarga to'lib, do'konlarga, mollar sig'may ketgan, Samarqand ma'rifat, hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan edi.


Shahar qurilishi o'sar, Temurning farmoyishi bilan uning bozorlari va hunarmandchilik mahallalari kengaytirilar, shahar tarhi keskin o'zgarib borar edi. Temur shaharning Ohanin darvozasidan Chorsu darvozasigacha Registon maydoni orqali o'taladigan savdo rastalari ko'rinishida ko'cha ochishni buyurgan.


Ushbu ko'chaning shaharsozlikda tutgan o'rni haqida 1404 yili Samarqandga Temur huzuriga tashrif buyurgan ispan elchisi Klavixo shunday deb yozadi: Samarqand shahriga har yili ko'plab turli-tuman mollar olib kelinadi. Unda ana shu mollarni tartib bilan sotish uchun katta bir joy bo'lmaganligi sababli podishoh shahar bo'ylab ikki tarafida mol sotiladigan do'konlar hamda hujralar o'rnashgan ko'cha o'tkazishni buyuradi. Shaharning bir chekkasidan boshlanadigan bu ko'cha uni kesib o'tib, narigi chekkasiga borib etishi kerak edi. Kattakon ko'cha ochib, ikki tomoniga

hujralar qurdilar, har bir hujra oldida ok tosh qoplangan baland supachalar bor edi. Hamma hujralar qo‘sh oshyonli, butun ko‘cha usti tuynukli qator gumbazlar bilan yopilgan, tepadagi derazalardan yorug‘ tushib turar edi. Ko‘chaning ayrim joylariga xovuzlar qurilgan. Kunduzi ishlaydiganlar kech kirishi bilan ketib, kechasi boshqalar ishlagani keladilar. Birovlar imorat buzishsa, boshqalari er tekislaydi, yana birovlar quradilar. Yigirma kun o‘tgancha shuncha ish amalga oshirildiki, kishi hayratga tushadi".

Ayni paytda, Temur buyrug‘i bilan shahar darvozalaridan Registon maydoniga olib chiquvchi obod ko‘chalar qurilgan edi. Ushbu ko‘chalar bo‘ylab keyinchalik yangi mahallalar, masjid-madrasalar, hammom va guzarlar shakllana boshlagan.

Samarqandning XIV asrdagi me‘moriy va manzaraviy qiyofasi Temurning farmoyishlariga ko‘ra qurilgan shahar ichidagi inshootlar va shahar chetlaridagi bog‘-rog‘lar bilan belgilanar edi. Ularning turarjoy binolari uzra qad ko‘tarib turgan serhasham gumbazlari, adl qomat minoralari va ulug‘vor peshtoqlari shaharning asosiy nuqtalarini, umumiy manzarasini ifoda etardi. Shaharning janubiy g‘arbiy qismidagi Chorsu darvozasi yaqinida Temurniig nabirasi Muhammad Sulton xonaqosi va madrasasi, keyinchalik qayta qurilib Temurning o‘zi, avlodlari dafn etilgan maqbaradan iborat Go‘ri Amir nomi bilan mashhur binolar turkumi, G‘arbda Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroy joylashgan shahar istehkom qal‘asi - Ark , shimoliy - sharqdagi Ohanin darvozasi yaqinidagi qo‘sh binolar-Temurning jome masjidi va uning qarshisidagi Bibixonim madrasasi, yana undan g‘arbroqda, Afrosiyob etagidagi Shohizinda qabristoni hamda shahar atrofidagi bog‘-rog‘lar va ulardagi ko‘shku saroylar edi (3.1.2-rasm).






3.1.2-rasm. Temuriylar bog'larini Samarqandda SamDU botanika bog'i misolida qayta tiklash loyihasi. Arxitektor S.N. Sadikova

1399 yilning may oyida Temur Hindiston safaridan qaytgach, Samarqandda uning farmoni bilan yangi jome masjidi (hozirgi Bibixonim masjidi) ning qurilishi boshlanadi. Temur davlatining poytaxtiga har tomonlama zeb berarkan, hajm jihatidan tobora mahobatliroq shaharozlikda tutgan mavqei jihatdan ahamiyatliroq binolar qurishni, ularning tashqari va ichki tomonlarini hashamatliroq betakror bezashni buyuradi. Jome masjidining ham ko'lam va mahobati Temur davlati dovrug'iga mos tushmog'i lozim edi. Ayn paytda, masjid Temurning islom diniga, Allohga bo'lgan e'tiqodini o'zida mujassamlantirmog'i lozim edi.

Temur jome masjidining el-yurt orasidagi obruyiga alohida e'tibor berib, masjidni qurish ishlariga shaxsan o'zi qiziqqan: masjid binosining tarhi tayyorlanib tasdiqlangach, qurilishni boshlab yubortiradi. Lekin Temur galdagi "etti yillik" jangovar yurishini boshlashga majbur bo'ladi. Shunga qaramay, qurilish sur'ati aslo pasaymaydi, mahobatli va muhtasham masjid binosi qurib bitkaziladi. Lekin bu paytda Temur safarda edi. Ayni paytda, Temurning katta xotini Saroymulxonim (Bibixonim) bunyod etilayotgan jome yonida jozibali va ulug'vor madrasa qurilishini boshlab yuboradi (3.1.3-rasm).



3.1.3-rasm. Amir Temur jome masjidining umumiy ko'rinishi:
 a - tarhi; b - masjid maqsurasining tepadan ko'rinishi; v - masjidning XIX
 asrda tushirilgan fotosi.

Temur harbiy safardan qaytgach (1404 yilning kuzida) madrasa va jome masjidini tomosha qilar ekan, uning nazarida masjidning bosh peshtoqi yonidagi madrasa dargohiga nisbagan tor va past ko'rinadi va g'azabga tushib, bosh peshtoqni buzib qayta qurishga farmon beradi. Dargoh kengaytiriladi, peshtoq baland ko'tariladi. Tuzatish ishlarini Temurning o'zi shaxsan masjid yonidagi Bibixonim madrasasidan turib, bir necha kun kuzatib boradi.


Me'morchilikning shunday uslubida keyinroq qurilgan binolar, masalan, Isfahondagi Maydonishohda joylashgan Masjidi Kabir, Qum va Mashhaddagi maqbaralar Temur himmati bilan Samarqandda bunyod etilgan jome masjidiga nisbagan takroriydir.

Zamonlar o'tishi bilan kuchli talafot ko'rgan Samarqand jome masjidining me'moriy mahobati hanuzgacha zamondoshlarimizni hayratga soladi. Temur Shohizinda qabristonini ham diqqatdan chetda qoldirmaydi, u Qusam ibn Abbas maqbarasi dovrug'ini yanada oshirishga intiladi. Temur nazdida "Olamning qutbi", "Ruyi zaminning sayqali" Samarqand o'z Makkasiga ega bo'lishi kerak edi. Bunday ziyoratgoh joy shaharning siyosiy va goyaviy nufuziini oshirar, Temurning mo'min-musulmonlar orasidagi hurmati yanada kengayar edi.

Avval, Temur nihoyatda qunt va dabdaba bilan Qusam ibn Abbas qabri ustidagi binoni bezattiradi. Shundan so'ng birma-bir Temurning qarindosh-urug'lari va a'yonlari uchun maqbaralar bunyod etish boshlanadi.

Bu erda Temurning sarkardalaridan biri amir Xusaynning onasi To'g'luq tekin uchun ham maqbara quriladi. Amir Temur singlisi Shirinbeka vafotidan so'ng (1385 yili) unga atab mahbara qurdiradi. Maqbara bir xonali bo'lsa-da, yonidagi Turkan oqa va Amirzoda maqbaralaridan farqli o'laroq, peshtoqli va baland gumbazli, nihoyatda go'zal imorat: tashqarisi chorqirra bo'lib, ustiga 16 raxli gardish va qo'shgumbaz o'rnatilgan. Peshtoqi yorqin ko'k rangli nozik islmiy terma o'ymakor koshinlar bilan shunday naqshlanganki, bunday naqsh Samarqandda birinchi bor qo'llanilgan edi. Koshinkoriy gumbaz esa garih naqshlar bilan bezatilgan.


Shohizinda maqbaralarida 20 dan ziyod binolar saqlanib kelgan. Ularni Samarqanddagi XII - XV asrlarga oid me'moriy va bezak san'atining o'ziga xos qomusi deyish mumkin (3.1.4-rasm).



3.1.4-rasm. Shohi-zindagi maqbaralar majmuasining gumbazlar galereyasi.

Amir Temurning Samarqandda bunyod ettirgan obidalaridan yana biri temuriylar sulolasining xilxonasi sifatida dovrug'i olamga ketgan Go'ri Amir maqbarasidir. Dastlab (1399-1400 yillar) bu erda Temurning nabirasi, valiahdi shahzoda Muhammad Sulton nomidan madrasa va xonaqoh quriladi. Madrasa aslzoda xonadonlarining farzandlariga dunyoviy ilmlardan ta'lim berish va ularni davlat xizmatiga tayyorlashga, xonaqoh esa dongdor ziyoratchilarni qabul qilishga mo'ljallangan edi. Madrasa va xonaqoh chortaraf hovlining qarama-qarshi tomonlariga joylashtirilib, yaxlit me'moriy ansambli (majmua) tashkil qilinadi. Hovli baland peshtoq, bir maromda joylashgan ravoqlar, ayvonlar va stunlar bilan bezatilib, burchaklariga tik minoralar o'rnatilgan. 1403 yili yosh shahzoda Muhammad Sulton harbiy safarda kasallanib vafot etgach, Sultoniya ko'miladi. Bir


yildan so‘ng uning jasadi Samarqandga olib kelinib vaqtincha madrasa xonaqoqsining gumbazi ostiga dafn etiladi. 1404 yilning kuzida Amir Temur g‘arb safaridan qaytgach, Muhammad Sulton uchun ushbu majmuaning janub qismidagi ayvonga tutash qilib sag‘anali, alohida tantanavor, serhasham bir maqbara qurishga farmoni oliy beradi. 1405 yili Temurning o‘zi ham Xitoy yurishi vaqtida vafot etgach, u nevarasining yoniga dafn etiladi va maqbara “Go‘ri Amir maqbarasi” deb nom oladi. Shundan so‘ng ushbu obida temuriylar sulolasining xilxonasiga aylanadi. Unda Amir Temur va Muhammad Sulton sag‘analaridan tashqari, sohibqironning ikki o‘g‘li – Shohrux va Mironshoh, nabirasi Mirzo Ulug‘bek, Temurning piri shayx Sayid Baraka va maqbaraning qibla tarafidagi supa ustida Mir Sayid Umarning sag‘analari ham bor. U kishi tasavvuf ahlining ulug‘ namoyandalaridan biri bo‘lib temuriylarga pir sanalgan. Maqbarada yana ikki kichik qabr bor. Ular Ulug‘bek Mirzoning go‘dakligida vafot etgan o‘g‘illari: Abdullo Mirzo (1420 y. tug‘ilgan) va Abdurahmon Mirzo (1421 y. tug‘ilib 1432 y. vafot etgan) larga tegishlidir (3.1.5-rasm).



3.1.5-rasm. Go'ri Amir majmuasi arxitekturasi va me'moriy-rejaviy yechimlari.

Amir Temur o‘zining Ark-qal‘asida (1371-72 yy.) bino etgan imoratlardan biri uning pirlari qatorida turgan shayx Nuriddin Basir (u kishining "Qutbi chahorda-hum" degan laqabi bo‘lgan) mozori ustiga qurgan go‘zal va baland gumbazli maqbaradir. Abu Tohirxojaning "Samariya" asarida (Toshkent: Kamalak, 1991) yozilishicha, Temur ushbu go‘zal maqbara gumbazi ustiga oltindan bir qubba yasattirgan ekan. Bu baland gumbazli maqbara binosi Samarqandni chor Rossiyasi qo‘shinlari istilo qilgunga qadar shaharning eng go‘zal obidalaridan biri hisoblanib kelgan. Obida 1881 yili rus korchalonlari tomonidan portlatib yuborilgach, shayx

Nuriddindan qolgan suyklari Shohizindaga Qusam ibn Abbos mozoringing g'arbiy-shimoliga ko'miladi (3.1.6-rasm).




مزار حضرت قاسم بن عباس



3.1.6-rasm. Maqbaraning Basr Kattav XIX asr oxirida tushirgan fotosi Amir Temur qurdirgan va bizgacha saqlanmagan Nuriddin Basr maqbarasi. XIV asr.

Amir Temur nomi bilan bog'liq bo'lgan maqbaralardan yana biri XIV asrning 80-yillarida qurilgan hazrati Ruxobod maqbarasidir. Maqbarada Temur o'zining pirlari qatoriga qo'ygan kishi XII asrning yirik ruhoniylaridan biri shayx Burhoniddin Sog'arjiy qabri bor. Maqbara me'moriy jihatdan o'zining monumentalligi bilan ajralib turadi. U tashqaridan deyarli bezaksiz, tarhi chorsi, yani kvadrat, ichki bezaklari hashamdor qilib ishlangan (3.1.7-rasm).



3.1.7-rasm. Samarqandda Temur davrida uning piri Sog'orjiyga atab qurilgan Ruxobod maqbarasi.

Amir Temur Samarqandda bunyod etgan va hozirgacha saqlanib qolgan noyob obidalarning biri “Ishratxona” yodgorligidir. G.A. Pugachenkova obidani temuriy Abu Sayd Mirzoning xotini Habiba Sultonbegim (XV asr) bevaqt vafot etgan suyuqli qizi Xovand Sulton bekaga atab qurdirgan maqbara desa, ustod Po‘lat Zohidov obidani Amir Temur alohida ixlos bilan bunyod etgan ertaknamo bog‘lardan biri- Bog‘i Dilkusho ichidagi ulug‘vor ko‘shk deb hisoblaydi (3.1.8-rasm).



3.1.8-rasm. Amir Temur Samarqandda bunyod etgan va hozirgacha saqlanib qolgan “Ishratkhona” yodgorligi.

Go‘ri Amirniyg yonginasida XV asrga oid yana bir noyob, nihoyatda nafis memoriy yodgorlik-Oqsaroy maqbarasi saqlanib qolgan. Obida Temuriy amirzodalar uchun qo‘shimcha dahma-maqbara sifatida qurilgan. Maqbara o‘rtada joylashgan tarhi xochsimon shakldagi asosiy xona va unga birikkan bir necha xonalardan iborat. Asosiy xonadagi va marmardan sayqal berilgan sakkiz qirrali dahma joylashgan. Asosiy xona gumbazini ishlashda o‘sha davr me‘morligining zamonaviy usullaridan qo‘llanilgan: gumbaz to‘rtta katta ravoq va o‘zaro kesishgan ravoqchalar hamda toqilar yordamida yopilgan. Bino ichi bezaklarida Ishratxonadagidek "kundal" uslubidagi naqshlar ko‘p uchraydi. Nafis ishlangan oq ko‘k va tillahal ranglar o‘zaro uyg‘unlashib ketgan. Biroq, binoning tashqi ko‘rinishi nihoyasiga etmay qolib ketgan. Xullas, bino qurilmalari va me‘moriy jihatlari maqtovgva sazovordir.

Nazorat savollari

1. Amir Temur davri arxitekturasining asosiy xususiyatlari va uslublari nimadan iborat?
2. Amir Temur davrida markaziy Osiyo shaharlarida me‘moriy rivojlanish qanday kechgan?
3. Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlardagi temuriy yodgorliklar qaysilar?
4. Temuriy binolarda gumbaz, minoralar va bezak san‘ati qanday ishlatilgan?
5. Amir Temur davrida masjid, madrasalar va maqbaralar qanday arxitektura shaklida qurilgan?
6. Temuriy arxitektura bezak san‘ati va geometrik naqshlar bilan qanday boyitilgan?
7. Amir Temur davri yodgorliklarining siyosiy va diniy maqsadlari qanday ifodalangan?

8. Temuriy arxitektura Usmonli, Eron va boshqa sivilizatsiyalar arxitekturasiga qanday ta'sir qilgan?

9. Temuriy inshootlar qaysi qurilish materiallaridan foydalanilgan?

3.2. Temuriy davri arxitekturasi tarixi

Temur va temuriylar arxitekturasi haqida so'z ketar ekan, shu choqqacha asosan Amir Temur va Mirzo Ulug'bek bunyodkorligi ko'zga tashlanar edi. Bu ikki yirik me'morchilik peshvolari o'zlarining insoniyat taraqqiyotidagi qilgan buyuk bunyodkorlik faoliyatlari bilan keng jamoatchilik ongiga chuqur singib ketgan. Ayni paytda, ko'hna tarix sahifalaridan munosib o'rin olgan yana bir Temuriy shahzoda – Shohrux Mirzoning arxitekturasi chuqur o'rganilmagan. Shohrux Mirzo davri arxitekturasini chuqur tahlil etmasdan turib temuriylar arxitekturasiga to'g'ri tavsif berib bo'lmaydi. Shuning uchun mazkur bobni Shohrux Mirzo bunyodkorlik faoliyatiga bag'ishladik.

Sohibqiron Amir Temurning o'g'li va zamondoshi, Mirzo Ulug'bekning otasi Shohrux Mirzo (1377-1447) mashhur va tabiatan olijanob hukmdor, ilm fanga moyil va bunyodkor inson edi. Amir Temurning to'rtta o'g'li (Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohrux Mirzo) bo'lib, ulardan eng kenjasi Shohrux Mirzo edi. Sohobqironning eng katta o'g'li Jahongir Mirzo 1376 yili kasal bo'lib, 20 yoshida vafot etadi. Ikkinchi o'g'li Umarshayx Mirzo ham 1394 yili Kurdistondagi Hurmutu qal'asi yonida o'q tegib, 38 yoshida halok bo'ladi. 1405 yil Temur vafot qilgan chog'ida uning ikki o'g'li Mironshoh Mirzo (1366-1408) va Shohrux Mirzolar hayot edi. Temurning vafoti oldida temuriy shahzodalar ichida eng obro'lisi Shohrux Mirzo bo'lib, u o'sha paytda Xuroson hokimi, nufuz va ulug'vorligi jihatidan eng baland maqomga erishgan edi.

Temur vafotidan so'ng hokimiyat Shohrux Mirzo qo'liga o'tgach, Eronda ham Turonda ham bir necha o'n yilliklar davomida hokimiyatda nisbatan osudalik hukm suradi. Shohrux Mirzo o'z akalari Jahongir Mirzo, Mironshoh Mirzo avlodini o'z qo'li ostiga birlashtirib, Ozarboyjon, Movarounnahr, Xorazm, Xuroson va Shimoliy Afg'onistondan iborat katta bir davlat jilovini o'z qo'liga oladi. Shohrux Mirzo Temur saltanatining sobiq sarhadlarini qayta tiklay olmasa-da, mamlakatda ancha muddat osoyishtalik barpo etib, saltanat rivojiga yangi kuch va mazmun baxsh etadi.

Buxoro madrasasi. Ulug'bekning Buxoroda qurgan madrasasi 1417 yilda barpo etilgan bo'lib, tarhi 45 x 40 metrga teng. Madrasaning bosh kirish qismi baland peshtoq bilan belgilangan, uning ikki tomoni ikki qator ravoqlar, burchaklari esa guldastalar bilan bezatilgan. Hujralar ikki qavatli qilib qurilgan, ammo bir qishgi, ikki yozgi darsxona mavjud. Shunisi qiziqki, bosh peshtoq tomonidagi hujralar ko'cha tomonga qaratilgan. Ular

peshtoqning har ikki tarafida ham to'rtadandir. Samarqandda barpo etilgan binoning to'rt tashqi burchagida to'rtta minora qad ko'targan bo'lsa, Buxorodagi madrasaning to'rttala burchaklarini guldastalar mahkamlab turibdi. Kirish yo'lagi uch qismga bo'lingan dahlizga olib kiradi. Hovliga dahlizdan faqat yon tomondagi yo'laklar orqali kirish mumkin. Chunki, madrasa maqomi shunday tuzilganki, kirish eshigi orqali tashqaridan hovlini ko'rish taqiqlangan. Madrasa oddiy bezatilgan, ko'k rangli koshinlar va g'ishtlar bilan naqshlangan. 1586 yilda madrasa ko'rinishi yangilanib, o'sha davrga xos bo'lgan tarzda uch xil rangli yangi koshinchalar bilan qoplangan (3.2.1-rasm).



3.2.1-rasm. Buxorodagi Ulug'bek madrasasi.

Ulug'bek madrasalaridagi koshinkoriy bezaklarning birisi boshqasida hech qachon takror ishlatilmagan. Ma'lumotlarga ko'ra, Buxorodagi Ulug'bek madrasasining bosh me'mori isfaxonlik me'mor usta Tohir o'g'li Ismoil bo'lgan. Bu me'mor Amir Temur tomonidan olib kelinib Samarqanddagi Go'ri Amir peshtoqini bunyod etgan mashhur bunyodkor Ismoil Mahmud Isfaxoniyning nabirasi bo'lgan. Buxoro madrasasi hajmiy jihatdan aniqligi, ortiqcha hashamsiz ekanligi, vertikal va gorizontallik bo'linishlarning geometrik jihatdan mutanosibligi bilan ajralib turadi. Bu erda masjid vestibullari usti, darsxonalar, ya'ni me'moriy g'oyaning XV asr bilan solishtirganda yangi qubba-gumbaz tizimini yaratish bobidagi ijodiy izlanishlari yorqin namoyon bo'ladi.

G'ijduvon madrasasi Ulug'bekning uchinchi madrasasi hisoblanib, 1433 yilda qurilgan. Madrasa bir qavatli bo'lib, tarhi va o'lchamlari jihatidan soddaroq holatda bunyod etilgan. Madrasa to'g'ri to'rtburchakli 31,5 x 30

metrli o'lehamlarga teng. Bu yodgorlik arxitekturaviy majmuaning asosiy bir qismi hisoblanadi. U XII asrda shakllana boshlangan Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoniy hazirasi yonida "qo'sh" usulida qurilgan. Qabr yonidagi madrasa ziyoratchilar uchun ham joy hisoblangan. Shu jihati bilan bu inshoot Buxoro va Samarqand madrasalaridan farq qiladi. Madrasa binosi ulkan emas. Asosiy peshtoq, unga yondosh devorlarga nisbatan bir oz balandroq. Yon taraflari faqatgina bir qavatlidir. Binoga kirish sharq tomondan ikki tabaqali o'ymakor naqshli eshik orqali amalga oshiriladi. Bino peshtoqi o'ziga xos shaklda salobatli qilib ishlangan. Peshtoq gumbaz bilan yopilgan chortoqqa chiqaradi. Eshikdan gumbazli xona orqali to'g'ri hovliga chiqiladi. Kirish qismining ikki yonida an'anaviy xonalar: o'ngda – masjid, chapda esa – darsxona joylashgan. Taxminan murabba tarhli hovli bir qavatli ravoqlar qatori bilan o'ralgan. Bu ravoqlar orqali o'nta hujraga kiriladi. Janubiy va shimoliy tomonlarda to'rttdan, g'arbiy tomonida esa ikkita hujra joylashgan. Yirik ravoq faqatgina g'arbiy tomonda, kirish qismiga qarama-qarshi tomondagina ishlangan. Old tarzida Samarqanddagi madrasa kabi hujralar yo'q. Bu erda ham biroz botiq soxta ravoqlar peshtoqning ikki yonlarida joylashgan. Bu ravoqlarning har biridan bittadan to'g'ri to'rtburchakli darcha va uning tagida eshik ochilgan. Ular masjid va darsxonalaridan chiqqan. Old tarzning chetlari devor balandligi bilan bir xil aylana shakldagi to'rttdan uch qismi bo'rtib chiqqan minora – guldastalar bilan tugallangan. Bunday minoralar janubiy-g'arbiy va shimoliy-g'arbiy burchaklarda ham mavjud, faqatgina ularning diametri kichikroq. Minora yuzasidagi bezaklar uning dastlab baland bo'lganligidan darak berib turibdi (3.2.2-rasm).



3.2.2-rasm. Ulug'bek madrasasi (G'ijduvon).

Ulugʻbek bobosi Amir Temur davrida qurilishi boshlanib, ayrim sabablarga koʻra bitmay qolgan bir talay muhim binolarni ham qurib bitkazdi. Samarqandda Amir Temur jome masjidi taʼmirlanadi. Goʻri Amir maqbarasi safiga yangi imoratlar qoʻshiladi, Shohizinda ansambli qurilishi nihoyasiga etkaziladi. Marvda hayriya muassasalari; shuningdek, Yassidagi Hoja Ahmad Yassaviyning qabri ustiga qurilgan binolar tugallanadi. Bulardan tashqari, Ulugʻbek farmoyishi bilan Movarounnahr shaharlarida koʻplab chorsu, savdo rastalari, karvonsaroylar, hammomlar, sardobalar, Samarqandda Obirahmat suvi yoqalab bir qancha koʻrkam bogʻ-rogʻlar barpo etiladi, Bogʻi Maydonda rasadxonaga yaqin joyda “Chilsutun” koʻshki ham bunyod ettiradi (3.2.3-rasm).



3.2.3-rasm. Bogʻi maydonda Ulugʻbek bunyod etgan “Chilustun” koʻshkining grafik rekonstruksiyasi (T.Sh.Mamatmusaev boʻyicha).

Samarqanddagi Bibixonim masjidi hovlisining oʻrtasidagi koʻk marmar toshdan yasalgan ulkan lavh – Qurʻon qoʻyiladigan maxsus kursini ne-ne odamlar koʻrmagan. Ushbu lavh ham Mirzo Ulugʻbek farmoniga binoan yasalganligi koʻpchilikka maʼlum (3.2.4-rasm).



3.2.4-rasm. Samarqanddagi Bibixonim masjidi hovlisining o'rtasidagi ko'k marmar toshdan yasalgan ulkan lavh.

Ulug'bek 1424 yili Go'ri Amir maqbarasida uning kun chiqish tarafidan eshik ochtiradi va undan to maqbaraga qadar gumbazli yopiq ayvon qurdiradi. Maqbara eshigining tepasi, yon taraflari, shuningdek, yopiq ayvon naqshin bo'yoqlar bilan bezatilgan. Qabrlar atrofidagi jimjimador oq marmar panjaralarni ham Ulug'bek qo'ydirgan bo'lib, ular maqbaraning ichki ko'rinishiga alohida husn qo'shib turibdi. Ulug'bek davrida Temur qabri uchun kattakon to'q yashil nefritdan tosh yo'nalib, unga Temurning shajarasi o'yib yozdiriladi.

Rasadxona. Ulug'bek hayotida eng katta o'rin tutgan, Evropada "Samarqand akademiyasi" deb shuhrat topgan, Ulug'bek va u homiylik qilgan olimlarning ilmiy kashfiyotlari, tadqiqot ishlari joyi va oliy mahkamasi hisoblangan, Samarqandda bunyod etilgan mashhur binolardan biri Ulug'bek rasadxonasidir. U 1424-1429 yillari hozirgi Cho'ponota tepaligida, Obirahmat arig'i bo'yiga yaqin joyda quriladi. Rasadxonaning hajmiy echimi, bezak va jihozlari haqida hali juda oz, afsuski, faqat umumiy ma'lumotlargagina egamiz, xolos. XVII asrgacha saqlanib, keyinchalik vayron bo'lib ketgan rasadxona qoldiqlarini rus olimi V.L. Vyatkin 1908 yili unga taqdim etilgan tarixiy hujjatlar asosida topgan. SHundan keyin rasadxona o'rganila boshlangan. 1941 yili M.E.Masson, 1948 yili qazish va

o‘rganish ishlarini arxeolog olim V.A. Shishkin davom ettiradi. Sovet davrida olib borilgan uzoq tekshirishlardan so‘ng bino ustuvon (silindr) ko‘rinishida bo‘lganligi aniqlandi. Olimlardan V. Vyatkin, M. Masson, V. Shishkin, B. Zasyrkin, T. Qori-Niyoziy, G. Pugachenkovalar hamda keyingi yillarda M. Bulatov, V. Nilsen, N. Karabovsevlar rasadxona arxitekturasi, shaklu-shamoyilini ilmiy asosda aniqlab berishga harakat qildilar.

Rasadxona uch qavatli, g‘oyat hashamdor va pishiq g‘ishtdan ishlangan ulkan bino bo‘lgan. Mutaxassislar fikricha, bino balandligi 30,4 metr, aylanasining diametri esa 46,2 metrga teng. Binoning asosiy qismini radiusi 40,2 metrli Sudsi faxri (sektant) deb atalgan ulkan kuzatish asbobi tashkil qilgan. Sudsning saqlanib qolgan qismi er ostida joylashgan bo‘lib, qolgan qismi er sathidan 30 metrcha baland bo‘lgan. Rasadxona binosi o‘zining kattaligi, qurilish uslubining o‘ziga xosligi va uskunalash jihatidan Sharq va Evropa mamlakatlaridagi boshqa barcha astronomik inshootlardan ustun turgan.

Rasadxona etagida Ulug‘bek ikkita mumtoz chorbog‘ ham qurdirgan edi. Biri Bog‘i Maydon (bu bog‘ Ulug‘bek davrigacha ma‘lum bo‘lib, unga Temur asos solgandi), ikkinchisi esa Chinnixon nomini olgandi (3.2.5-rasm).



3.2.5-rasm. Ulug‘bek rasadxonasining hozirgi holati.

Chilsutun. Bog‘i Maydonda ikki oshyonli Chilsutun nomli go‘zal va mahobatli ko‘shk qurilgan bo‘lib, uning devori va ustunlariga marmardan sayqal berilgan. “Chilsutun” – “Qirq ustun” ustunlarning ko‘pligidan darak

beradi. U ikki pastgi va yuqorigi qismlardan iborat bo‘lib, ustunlari va tag izarasi batamom toshdan ishlangan. Ko‘shk qoldiqlari orasidan oq marmar ustun qoldiqlari topilgan. Bino murabba (kvadrat) tarhga ega. Uning to‘rt burchagidan yirik minorasimon burjlar ko‘tarilgan. Bu burjlar ichida zina bo‘lib, yuqorigi qismga mana shu burjlar orqali chiqilgan. Burjlar sirti koshinkor bezatilgan. Yuqorigi qismining to‘rt tarafida ayvon bo‘lgan. Ayvon tashqi tarafdan panjaralar bilan to‘silgan. Undagi tosh ustunlarning ba‘zilari morpech shaklida bezatilgan. Ustunlarning kursisi va muqarnas boshasi xushbicham bo‘lgan. O‘rtada chordara uy qilingan. Imoratning kursisi, ya‘ni pastgi aososi batamom toshdan bezab chiqilgan. Bu qismda oshxona, oziq-ovqatlar qaznoqi va boshqa yordamchi xonalar mavjud bo‘lgan. Bino chordarasi yirik gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz sakkiz qirralik asosga o‘rnatilgan. Burjlar tepasi ham gumbazchalar bilan tugatilgan. Bu imoratga alohida mahobat baxsh etgan. Yoz kunlarida bino ayvoni ustida ham dam olish mumkin bo‘lgan. Tomga ham burjlar orqali chiqilgan. Ko‘shkning tepa va past qismlariga to‘rt tarafdan eshik ochilgan. Bino atrofiga ham e‘tibor katta bo‘lgan. Atrof-muhit ko‘kalamzorlashtirilgan bo‘lib, turli xil chiroyli daraxtlar, gulzorlar binoga yanada ko‘rk bag‘ishlagan.

Ulug‘bekning Shahrisabzda qurdirgan binolarning yana biri Shahrisabzlik Temuriylar avlodi namoyandalari atab bunyod etilgan va keyinchalik xalq orasida “Gumbazi Sayidon” (“Sayidlar gumbazi”) deb nom olgan maqbaradir. Maqbara janub tomondan Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasiga tutash bo‘lib, Shahrisabzdagi “Ko‘k gumbaz” masjidi – Ulug‘bek qurdirgan jome va boshqa inshootlar bilan birga “Dor ut-tilovat” ansamblini tashkil qiladi. Maqbara rejasi kvadrat shaklida bo‘lib, tomonlari tashqaridan 9 metr, ichkaridan 6 metrga yaqin. Kvadrat asos ustida sakkiz qirrali prizma, uning ustida esa ustivon (gardish) joylashgan bo‘lib, u baland zangori gumbaz bilan yopilgan. Maqbara qismlarining o‘lchovlari bir-biriga hamohang va uyg‘un. Peshtoqi ko‘k, zangori, oq tusli naqshinkor girihlar bilan bezatilgan. Bezaklar g‘oyat nafis, ichki devor va gumbaz sathi girih va islmiy naqshlardan, zamini esa oq gulganchdan ishlangan. Ustivon tashqaridan koshinkor girihlar bilan naqshlanib, girihlar orasiga oq koshindan yirik qilib kufiy xatlar bitilgan. Maqbara ichida 4 ta qabrtosh bo‘lib, uchtasi saidzodalar Amir Abdul Muoniy, Muhammad Said Ma‘rufxon, Abdul Muoniylarga tegishlidir. Bir qabrtosh sirtidagi yozuvlar o‘chib ketgan. Bu shaxslar shahrisabzlik ulug‘ kishilar – saidlardan hisoblangan (3.2.6-rasm).



3.2.6-rasm. Ulug‘bekning Shahrisabzda Gumbazi Sayidon maqbarasi.

“Gumbazi Sayidon” arxitekturasi jihatidan Samarqand Shohizindasidagi “Qo‘sh gumbazli maqbara”ga, naqshlarining tuzilishi jihatidan Bibixonim masjidi va SHohizinda maqbaralariga o‘xshab ketadi.

Afsuski, Ulug‘bek qisqa umr ko‘rdi, uning ilg‘or tadbirlari va ilmiy faoliyati reaksiyon kuchlar tomonidan qattiq qarshilikka uchradi. Vatan xoinlari rahnamo bo‘lgan fitna natijasida Ulug‘bek 1449 yil 25 oktyabrda vahshiylarcha o‘ldirildi.

Biz buyuk Ulug‘bek haqidagi fikr yuritar ekanmiz, uning nimalar qilishga ulgurmaganligi xususida emas, balki nimalarni ro‘yobga chiqarganligi uchun faxrlanib eslaymiz va uning o‘chmas xotirasini e‘zozlaymiz. Akademik V.V.Bartold ta‘biri bilan aytganda, musulmon olamida Ulug‘bekdek zahmatkash va odil podshoh bo‘lmagan. Ulug‘bek zamondoshlari ham xuddi shu fikrda edilar.

Darhaqiqat Ulug‘bekdek “ulumg‘a ilk urgan” (ibora Navoiyniki) ilk va saltanat sultonini uning davrigacha olam ko‘rmadi. Ulug‘bek nafaqat o‘zini, balki Samarqandni Turkistonni, temuriylar ilmu-ma’naviyatini butun dunyoga abadiy tanitib ketdi.

Nazorat savollari

1. Temuriy davri arxitekturasining asosiy xususiyatlari va uslublari nimadan iborat?
2. Temuriy davrida markaziy Osiyo shaharlarida me‘moriy rivojlanish qanday kechgan?
3. Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlar Temuriy davr arxitekturasida qanday ahamiyatga ega?
4. Temuriy binolarda gumbaz, minoralar va bezak san‘ati qanday ishlatilgan?
5. Temuriy me‘morchilikda masjid, madrasalar, maqbaralar va karvonsaroylar qanday qurilgan?
6. Temuriy arxitektura naqshlari va geometrik bezaklar qanday ma‘no va funksiyani ifodalaydi?

7. Temuriy yodgorliklarining siyosiy va diniy maqsadlari arxitekturaga qanday aks etgan?

8. Temuriy arxitektura boshqa sivilizatsiyalar, masalan, Usmonli yoki Eron arxitekturasi qanday ta'sir qilgan?

9. Temuriy inshootlar qaysi qurilish materiallari va texnologiyalardan foydalangan?

3.3. Buxoro amirligi arxitekturasi tarixi

Buxoro shahrini barpo etilganligini olimlar yangi eraning birinchi asrlari deb e'tirof etadilar. Keyingi ma'lumotlarga ko'ra Buxoro shahri tarixi 2500 yilga borib taqaladi. 1991-yilda Yunesko qoshidagi Dunyo madaniy me'rosi ro'yxatiga kiritildi. 1997yilda esa Yunesko tashabbusi bilan Xalqaro miqyosida Buxoroning 2500 yilligi nishonlandi (3.3.1-rasm).



3.3.1-rasm. Buxoro shahri markazining panoramasi.

VI asrlarda Buxoro o'z vohasiga qarashli erlarni birlashtiruvchi, ilk feodal davlatining poytaxtiga aylandi. Uning shahristoni sun'iy ko'tarilgan o'lkan tepalikda qurilgan Ark qo'rg'oni atrofida shakllanaboshladi. Turar joylar, hunarmandlarning ustoxona va do'konlari, kasbi korining o'ziga qulay hududlardan joy olib taraqqiy qilaboshladi. Shahar atrofida baland,baquvvat devor ham asta-sekin qurilabordi. Uning XVI asrga oid qoldiqlari bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Buxoroning qadimiy ko'cha va gazarlarining tutashgan joylarida qurilgan mahobatli va salobat to'kib turgan peshtoqlariyu, ketma-ket qavarib turgan bozor timlarining jozibali shakllari, shahar ustidan qad ko'tarib turgan Minorai Kalon uning ertakona, ilk ko'rinishi saqlanib kelinayotganligidan dalolat berib turadi (3.3.2-rasm).



3.3.2-rasm. Buxoroning qadimiy joylarida qurilgan mahobatli arxitekturaviy obyektlari.

Buxoroda mug‘ullar istilosigacha qurilgan binolar garchi ko‘p bo‘lmasada lekin jahon me‘morchiligi durdonalari qatoriga kirgan binolardan biri Somoniylar maqbarasi IX-X asrlarda qurilgan. Ko‘p katta bo‘lmagan bu bino kub ko‘rinishida bo‘lib tashqari tomonidan arkali proyomli, torgina galyorkalardan iborat sakkiz qirrali baraban ustida qurilgan gumbaz bilan tugallangan.

Badiiy obrazi va konstruksiyasi timsolining mantiqiyliigi uning monumentalligini yanada yaqqollashtirgan. Mayda och sariq g‘ishtchalardan naqshinkor etib terilgan bino fasadi devorlariga tushgan nur unga g‘oyatda engil va jimjimadorli ko‘rinish baxsh etadi. Keyingi Qoraxoniylar davrida Arslonxon tomonidan 1127 yilda qurdirilgan me‘morchilik durdonalaridan biri Minorai Kalon (3.3.3-rasm) hisoblanadi.

Uning asosi diametri 9m. bo‘lib balandligi 46 metrni tashkil etadi. Uning betakror naqshlari silliqqlangan g‘ishtlardan sayqallangan. Minora garchi 800 yildan buyon qad ko‘tarib turgan bo‘lsada ta‘mirlanishga muhtoj bo‘lmagan. Bir vaqtning o‘zida Minora yonida jom‘e masjidi ham qurilgan bo‘lib u bizgacha etib kelmagan. Ammo uning o‘rniga Shayboniylar hukmronligi boshlangandan keyin 1514 yilda Masjidi Kalon (katta masjid) va 1530-1536 yillarda Miri Arab (3.3.4-rasm) madrasasi qayta qurilgan.



3.3.3-rasm. Minori Kalon va Masjidi Kalon ko‘rinishi. (1127-1514 yy.)



3.3.4-rasm. Miri- Arab madrasasi (1530-1536 yy.).

Himoya devorlari ortida bugungi kungacha saqlanib kelayotgan, qoraxoniylarning qasr va bog‘lari o‘rnida 1119-1120 yillarda qurilgan Nomozgoh masjidi ham diqqatga sazovor qurilmalardan bo‘lib bu u erda Qurbon hayit va boshqa diniy bayramlarda jamoa yig‘inlari bo‘lib o‘tgan.

Masjidning mehrob qismi maydasillig‘langan g‘ishtchalar va rangli terakota plitalari bilan geomerrik va epigraflı naqshlar bilan juda nafis dekorativ ko‘rinishda ziynatlangan.

XII asrda qurilgan arxitektura yodgorliklaridan yana biri **Mag‘oki-Attori** masjidi o‘zining nozik ziynatlagan, boy dekorativ uslubi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi (3.3.5-rasm).



3.3.5-rasm. Mag‘oki – Attori masjidi. (XII-asr.)

Bu bino nomining (Forscha - Mag‘oq-chuqurlik) kelib chiqishi arab istilosiga qadar X - asr muarrixı Narshaxiyning xabar berishicha masjidning o‘rnida oldin otashparastlarning ibodatxonasi bo‘lgan va bu erda butlar, dorivorlar, shirinliklar sovdosi, “attorlar”qatori bo‘lgan. Buxoroda XI-XII asrlarda qurilgan yodgorliklar ko‘p bo‘lmasada o‘sha davrdagi qurilish ishlari va badiiy bezak ishlarining nihoyatda yuqori darajada bo‘lganligini bizgacha etib kelgan imoratlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Chashmai Ayub maqbarasi XIV asrda Amir Temur buyrug‘i bilan buloq ustiga qurilgan. Buloqni Buxoroliklar shifobaxsh hisoblashadi. Rivoyatlarga ko‘ra Buxoroda quruqchilik yillari xalq xudoga suv berishini iltijo qilgan, shunda payg‘ambar Ayub hassasi bilan erga urganida, aynan shu joyda buloq paydo bo‘lgan ekan (3.3.6-rasm).



3.3.6-rasm. Chashmai Ayub maqbarasi XIV asr.

Sayfiddin Baharziy va Buyan Kulixon maqbarasi sufiylar pirlaridan hisoblanmish Najmiddin Kubro shogirdi, “Kubraviya” jamiyatining asoschisi Sayfiddin Baharziy qabri ustiga qurilgan bo‘lib uning muxlisi xon Bayan Kuli ham uning qarshisida dafn etilgan. Keyinchalik uning qabri ustiga ham maqbara ko‘tarilgan (3.3.7-rasm).




3.3.7-rasm. Sayfiddin Baharziy va Buyan Kulixon maqbarasi.

Poyi Kalon ansambli XII-XVI asrlarda qurilgan uchta me'moriy obidalardan Minori Kalon, Masjidi kalon va Miri Arab madrasalaridan tashkil topgan me'moriy ansambli bo'lib, Buxoroning eng yirik, ulug'vor va badiiy qimmatga ega qurilmalaridan hisoblanadi (3.3.8-rasm).



3.3.8-rasm. Poyi Kalon ansambli. XII-XVI asr.

Labi – Havuz - Ansabli XVI asrda qurilgan Ko'kaldosh madrasasi va XVII asrda barpo etilgan Nodir Devon Begi xonaqoh va madrasasi, o'lchami: 36*42, chuqurligi 5metrni tashkil etadigan to'rtburchak formadagi Labi-Havuz bilan yakunlanadi. Qadimdan Buxoroliklarning yig'iladigan, soya-salqin, markaziy maydonlaridan biri bo'lib bu erda sartaroshxonalar, choyxona, bozor bo'lgan. Havuz nafaqat mikroklimat yaratish uchungina bo'lib qolmay, u shahar va atrof aholisini suv bilan ta'minlashda xizmat qilgan. Meshkoblar uning suvidan ko'chalarga sepib muhitni salqinlashtirganlar. Havuzga chap tomonida joylashgan Shohrud kanali orqali suv quyilgan (3.3.9-rasm).



3.3.9-rasm. Labi – Havuz ansabli. XVI asr.

Ko'kaldosh madrasasi - 1568-1569 yy. qurilgan bu bino O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari ichida eng kattasi va o'ziga xos xususiylikka ega bo'lib ikki qavatli, uning tashqi tomonlari yopiq devor bo'lmay, ikkinchi qavatida bolkon tipidagi, chuqur ochiq ayvonlar mavjud. Uning peshtoqi ancha cho'zilgan ko'rinishda bo'lib, har ikkala burchagi "guldasta" deb ataluvchi burchak minoralari bilan yakunlanlangan. Uning chuqur arkalariga esa glazurlangan mozaik plitalar bilan bezak berilgan va ayvonchalarning burchaklari yashil oneksdan terilgan ustunchalardan iborat. Madrasa oldidan 1620 yilda havuz qazilgan. Madrasaning 160 ta hujrasi bo'lib unda 320 ta talaba taxsil olgan (3.3.10-rasm).



3.3.10-rasm. Ko'kaldosh madrasasi.


Nodir Divon Begi – xonaqohi – XVII asrda ziyoratchilar, sufizmni targ‘ibotchilari bo‘lgan darvishlar va boshqalar uchun (O‘sha davrlarda O‘rta Osiyoda Kubraviya, Naqshbandiya kabi sufizm jamiyatlari mavjud bo‘lgan) qurilgan. Bino to‘g‘ri burchakli ensiz peshtoqlik, burchaklari “guldasta” minorlari bilan yakunlangan bo‘lib uning zali bir gubazli va intereri stalaktidlar bilan bezalgan. Uning hovlisida ikki qavatli hujralar joylashgan (3.3.11-rasm).



3.3.11-rasm. Nodir Divon Begi – xonaqohisining tashqi va ichki ko‘rinishi.

Nodir Devon Begi – madrasasi XVII - asrda qurilgan bo‘lib peshtoq, uning ikki yonida “guldasta” va yonlarida uzunasiga ketgan, ikki qavat hujralar. Peshtoq dekori odatagi oddiy - traditsion naqsh bo‘lmay, ustolar o‘sha davr uchun katta yangilik - tirik mavjudod tasvirini tushirganlar. Tasvirda oyoqlari bilan afsonaviy hayvonni maxkam qisib olib, quyoshga qarb intilayotgan afsonaviy qush –Semurg‘ ifodalangan. Portalning qolgan qismlarida o‘simlik naqshlari bilan to‘ldirilgan bo‘lib burama tanalik gullar va boshqa naqsh elementlari tushirilgan. Pannoda qizil ranglar ishlatilmay, asosan sovuq - havorang, yashil, sariq ranglardan foydalanilgan. Buni balki obi – havoning issiqligi uchun shunday echimga kelgan bo‘lishi mumkindir. Shuningdek ustolar portalni badiiy bezak

ishlarida an’anaviy yozuvlar, Qur’on suralaridan lavhalar keltirganlar (3.3.12-rasm).



3.3.12-rasm. Nodir Devon Begi – madrasasi XVII-asr.


Buxoro hududida tarixiy davrlarning barcha sathlariga oid - IX asrlardan tortib to bugungi kuni argacha bo‘lgan yodgorliklar mavjud. Bulardan XVI – asrda qurilgan Bohovoddin Naqshbandiy ziyoratgohi (xonaqohi), “Naqshbandiya” jamiyati davomchilar bo‘lgan Julbardiy shayxlari qabristoni Chor-Bakr (XII-XVI asrlar) maqbaralari kompleksi, Juma Masjidi, minora va havuzdan tashkil topgan Bolo–Havuz kompleksi (XVIII asr), Xo‘Ja Zayniddin (XVI asr) xonaqohi, Fayzobod (XVI asr), Chor-Minor (XIX asr) madrasasi, Qiz-Bibi sufiy ayollar maskani (monastir XVIII-XX asrlar), Sitorai Moxi Xosa qasri (XX asr) kabi me’moriy obidalar o‘zining qaytarilmas formalari bilan mashhurdir. Buxoroning Varaxsha, Vobkent, Vang‘ozi Paykent kabi va boshqa hududlarida ham ko‘plab yodgorliklar saqlanib kelmoqda.

3.4. Xiva xonligi arxitekturasi tarixi

O‘tgan davrdagi kabi bu davrda ham istiqomat manzilgohlarining ikki asosiy xili: Shahar va qishloq bo‘lgan. Adabiyotda va og‘zaki nutqda muzofot, kasaba, kent, mahalla (alohida olingan manzilgoh sifatida), yozloq, ovul kabi iboralar kam uchraydi. Biroq ularning ilmiy Shaharsozlik tariflari

ishlab chiqilmagan. Shahar va qishloqlarning mavqei, qiyofasi va jihatleri ularning Turkiston hududidagi, karvon yo‘llar joylashganligidan kelib chiqadi.

Odatda biror sug‘orish tizimida bo‘lgan Shahar va qishloqlar o‘zaro bog‘langan yaxlit vohani tashkil qilgan. Masalan, Chirchiq daryosi tevarigidagi, shimoliy - Sharqda joylashgan Niyozbek qal’a (hozirgi Chirchiq Shahari o‘rnida) va janubi – g‘arbda Eski qovunchi qishlog‘i (hozirgi Yangi yo‘l Shahari) bilan chegaralangan hudud Toshkent Shaharining dehqonchilik qilinadigan erlari deb hisoblangan. Antik va undan keyingi davrlarda odatda bunday dehqonchilik vohalari uzun devorlar bilan o‘ralgan (3.4.1-rasm).



3.4.1-rasm. Toshkentning 12 darvozasi va qal’a devori xaritasi.

Ko‘pgina Shaharlar bo‘lib o‘tgan siyosiy – iqtisodiy inqirozdan keyin o‘zlarini tiklab oladilar. Yangi Shaharlar ham barpo etiladi. Jumladan, Shahrixon XIX asrda vujudga kelgan Shaharlardandir. Ba’zi Shaharlar o‘zlarini kichikroq miqyosda o‘nglanib oladilar. Ariqlar qazilib (masalan, Toshkent tevarigidagi Xonariq) yangi manzilgohlar barpo etiladi. Chunonchi, Rusiyaning bosqinchiligiga qarshi tadbir sifatida Sirdaryo bo‘ylarida Qo‘qon xonligi tomonidan qal’alar tizimi barpo etiladi. Ularning ichida eng mashhuri – Oq masjid qalasi bo‘lgan (3.4.2-rasm).



3.4.2-rasm. 1853-yildan keyingi Oqmachit qal'asining ko'rinishi.

Turkistonning ba'zi Shaharlari to'g'risidagi chor ma'muriyati keltirgan statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi vaziyatga e'tibor berish kerak. Mustamlakachilar Shunday ish olib borganki, uning natijasida aholisi ko'proq bo'lgan, qadimiy Shaharlar Shahar deb hisoblanmagan, kolonial maqsadlarda barpo etilgan, aholisn kam bo'lgan joylar esa Shahar hisoblangan. Bunga o'xshash statistika sovet davrida ham davom etdi.

Aholi joylarda hududiy – ma'muriy bo'linish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shaharlar odatda yirik va mayda, inshootlar esa faqat mayda Shaharsozlik birliklarga bo'lingan. Bu Shaharsozlik bo'linmalar turli nom bilan yuritilgan. Buxoro 12 jarib yoki mahalla, Samarqand 4 qita, Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent Shaharlari 4 daha deb nomlangan yirik bo'linmalarga taqsimlangan edi. Yirik bo'linmalar o'z navbatida maydalariga bo'lingan. Bular ham turli joylarda turlicha nomlangan. Mayda bo'linmalar Buxoro, Samarqand, Qarshi kabi Shaharlarda – guzar; Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent kabi Shaharlarda – mahalla, Xorazmda esa – masjid (masjiddkavm) deb atalgan. Demak, «mahalla» iborasi qo'llanish joyiga qarab ikki ma'noni

bildiradi: Buxoroda – bu yirik bo‘linmani, boshqa hollarda esa mayda bo‘linmani anglatadi.


Shaharlarning asosiy qismlari aksari mahallalardan (mayda bo‘linmalardan) iborat bo‘lgan. Mahalla umumiy erda joylashib kundalik hayotda o‘zaro yordam berish tamoyili asosida tashkil topgan ijtimoiy birlikdir. Mahalla ko‘pincha ko‘cha yoki bir necha ko‘cha yonlaridagi xonadonlarni birlashtirgan. Ularning markazida – guzarida hovuz, masjid (aksari maktabi, ba‘zan madrasasi bilan), choyxona, novvoyxona va boshqa kundalik ehtiyoj uchun qurilmalar bo‘lgan. Mahalla ishini oqsoqol, imom, dasturxonchi va qorovul kabi lavozimlardagi shaxslar olib borgan. To‘y - ma‘raka uchun mahallaning mulki: qozon, idish – tovoq, tobut va uskunalar bo‘lgan.

Mahallalar nizolarining qurilmalari zichligi, funksional, tuslanishi jihatidan bir xil bo‘lmagan. Shaharlarning geometrik markazlaridagi mahallalarda qurilmalar zich bo‘lgan. Shahar aholining asosiy qismi savdo va hunarmandchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Shaharning chetlaridagi mahallalar dalasifat: qurilmalari siyrakroq, hovlilari kengroq, serdaraxt bo‘lgan.

Keyingi vaqtda me‘morlik tarixi fanida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ba‘zi tarixiy Shaharlarda zikr etilgan yirik va mayda bo‘linmalardan yana boshqa, o‘rtacha bo‘linmalar mavjud ekan. Ular bir qancha mayda bo‘linmalardan tashkil topgan o‘rtacha bo‘linmalar ular Marg‘ilonda – o‘ram, Xo‘jandda – roat deb atalgan. Demak, oldin qayd etilganlarni nazarga olsak Marg‘ilonda ikki Shaharsozlik bo‘linishi emas, balki uch bosqichli: daha – o‘ram – mahalla bo‘linishi qaror topgan deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Undan tashqari mayda bo‘linmalar ham bir necha qismlarga – ko‘chalarga ajratilishi mumkin. Masalan, XX asr boshlarida Toshkentdagi Mergancha mahallasi bir necha ko‘chalarga bo‘linganligi ma‘lum (3.4.3-rasm).

Shaharlar o‘tmishda o‘zlarining atroflaridan qo‘rg‘on devor bilan chegaralanib turgan. Ular Shaharlarni mudofaa qilish va shartli ravishda ma‘muriy chiziq vazifasini o‘tagan. Shartlilik shundan iboratki, Yuqorida aytib o‘tilganidek ko‘pgina Shaharlar qo‘rg‘on devoridan tashqaridagi tevarak bilan funksional jihatdan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Qo‘rg‘on devorlarning ko‘proq paxsa va xom gishtdan qurilgan bo‘lib, qalinligi tepaga qarab ingichkalashib borgan. Odatda devorlarning tepa sathi Shunday bo‘lganki, uning ustida navkar, xatto ba‘zan ikki otlq yonma – yon yura olgan. Devorning tashqi tomonida kunguralari bo‘lgan. Kunguralar birinchidan, Shaharning qamal vaqtlarida himoyachilarni dushman uqidan to‘sib turish vazifasini o‘tasa (funksiyasi), ikkinchidan, uning ko‘rinishida ritm hosil qilib tarzini joylantirib turgan (estetikasi). Devor sirtidan

Shaharda darvozalar aholini tashqi dunyo bilan bog‘lab turgan. Ular Shahar markazidan tarqalib tevarakdagi yo‘llarga aylanib ketadigan ko‘chalarning qo‘rg‘on devor bilan kesishgan joylarida qurilgan. Odatda darvozaning ikki yonida burjlar bo‘lgan. Darvozaning o‘zi esa ikki tabaqali bo‘lgan. U aksari ravoq shaklining ichida joylashtirilgan. Darvozalar kechasi yoyilib, kunduzlari ochilgan. Darvozabonlarning xonalari ko‘proq ko‘chaning ikki tomonida joylashgan. Nisbatan yaxshi saqlangan darvozalardan biri Buxoroning Shayx Jalol darvozasidir. Unda darvozabonlarning xonalari bo‘lib, tarkibida ayvon ham mavjud. Xivaning rabod devorida Qo‘sh darvoza nomli darvoza bo‘lib, u odatdagilardan ikki yonma – yon o‘rnatilgan darvozalari bilan ajraladi. Qo‘sh darvoza o‘zining originalligi, ko‘rkamligi bilan boshqalardan ham farqlanadi (3.4.5-rasm).




3.4.5-rasm. Ichan qal'aning umumiy ko‘rinishidan fragment.

Oshkora, diqqat tortadigan darvozalardan tashqari devorlarda ko‘zga tashlanmaydigan eshiklar ham bo‘lgan. Toshkentda ular *qopqa* nomi bilan atalgan. Shunga ko‘ra Toshkentning 12 darvozasi bo‘lishiga qaramay, uni «32 qopqali» Shahar deyishgan.

Ko‘p hollarda Shahar devorlari bo‘ylab tashqi tarafdin suvga to‘ldirilgan zovur – handaq ham bo‘lgan. Xandaq ham devor kabi Shaharning muhofazasini ta‘minlovchi qo‘rg‘on me‘moriyasining bir tarmog‘i sifatida qadimdan ma‘lum. Masalan, Xorazmdagi antik davrga mansub Jonbozqal’a, Tuproqqal’a Shaharlarida ham handaqlar bo‘lgan. Aniqroq aytilsa, handaqlar antik davrdan ham qadimiyroqdir.

Yirik Shaharlarda hokim qarorgohlari – qal’alar (ark, o’rda) bo’lib, ular Shaharning boshqa qismlaridan ajralib turgan. Aksari hokim qarorgohi vazifasini o’tagan. Joylashuvi turlicha bo’lgan. Buxoro kabi Shaharlarda dastlabki qal’a bu vaqtga kelib ham tarixiy o’rnini saqlab qolgan. Boshqalarida esa qal’a ko’chib yurgan. Ular sirasiga Samarqand, Toshkent kabi Shaharlarning qal’alari kiradi. Aksariyat qal’alar Shaharning qo’rg’on devorlariga tutashgan. Xivada qal’a Shahriston – Ichan qal’a devoriga g’arbdan tutash bo’lgan, Olloqulixon tomonidan Ichan qal’aning Sharqida, Polvon darvoza yonida bir necha tutash imoratlar solingandan keyin (ular ichida saroy – Tosh hovli xam bor) qadimgi qal’a Ko’hna ark nomi bilan atala boshlandi (3.4.6-rasm).



3.4.6-rasm. Xiva shahri: dishan va ichan qal’alar rejasi.

Turli Shaharlarning qal’alari tarkiblarida umumiylik mavjud. Aksari ularda nog’oraxona, jilovxona, xaram, arxona (rasmiy qabullar uchun), zarbxona (tanga zarb etish uchun), masjid kabi binolar, sarbozlarning mashqlari uchun maydon bo’lgan. Binolar funksiyalariga qarab ratsional holatlarda, hajmiy – jihatdan yaxlit holda o’zaro birlashtirilgan.

O’rta Osiyoddek iqlimi issiq mintaqada suvning ahamiyati beqiyosdir. Shaharning suv tarmog’i boshida bir yoki ikki bosh ariq turadi: Buxoroda –

Shohrud, Samarqandda – Siyob, Xivada – Polvon yob, Marg‘ilonda – Marg‘ilonsoy, O‘ratepada – Kattasoy, Toshkentda – Bo‘zsvuning ikki shoxi – Kalkovuz va Anhor Xo‘jand esa Sirdaryoning o‘zidan suv ichadi. Daryo va bosh ariqlardan yon ariqlar ajraladi. Ulardan ham maydalanib borgan ariq deyarlik har hovligacha etib borgan va Shahardan chiqib ketgan. Xar xonadon o‘z hovlisiga iloj bo‘limganda qo‘shnining hovlisi orqali o‘tkazishga xaqli bo‘lgan. Bu rioya qilinishi shart bo‘lgan odat *obraha xaqi* nomi bilan ma‘lum bo‘lgan. Ariqlarning yo‘nalishi erning past – balandligiga bog‘liq bo‘lgan va Shaharning ba‘zi qismlarida ko‘cha bo‘ylab o‘tgan. Iste‘mol uchun suvni aholi aksar katta va kichik hovuz va hovuzchalardan olgan. Oqar suvdan tashqari buloq va quduqdan ham foydalanilgan. Xivanning Bog‘cha darvozasi oldidagi quduq, Toshkentda Chorsuda bo‘lgan. Dukkosha bulog‘i ma‘lum va mashhurdir. Suv inshootlarining yaxshi holatda saqlanishiga alohida e‘tibor berilgan (3.4.7-rasm).



3.4.7-rasm. Navoiy viloyati Karmana tumanidagi tarixiy sardoba.

Turkiston Shaharining ko‘rkamligini ko‘p jihatdan bog‘lar ta‘minlagan edi. Bog‘larga asosan mevali daraxtlar ekilgan. Ular ko‘proq Shahar chekkalarida va qo‘rg‘on devor tashqarisida barpo etilgan. Yuqorida zikr etilgan mavzu va bog‘otlarning asosiy qismini bog‘lar, polizlar tashkil etgan. Ularning orasida dala hovlilari (uyalar) joylashar edi.

Shaharlarning qiyofasini undagi turli binolar me'morligi shakllantirgan. Qurilmalarning eng ko'p tarqalgan turi turar uylar (hovlilar) edi. Shahar markazida odatda uylar zich, hovlilari tarroq bo'lib, chekkasiga kelib uylar siyrakroq, hovlilari keng bo'lgan. Dala hovlilari esa tarkoq, onda – sonda uchragan.

Qadimgi Shaharlarning tarhlarida ko'chalar yuzaki qaraganda bir xildek, betartib va tasodifan, o'sha holatda paydo bo'lgandek tuyuladi. Aslida esa ko'chalarning tizimi Shaharning joylashuviga, past – balandliklariga, irrigatsiyasiga va tarixiy sharoitga qarab shakllangan. Ularda mantiqiylik, ratsionallik, badiiylik mavjud.

Shaharlarning tarxiy tizimi aksari quyidagicha bo'lgan. O'rtada Shaharning asosiy markazi bo'lmish bozor joylashgan. Registon ham shu erda bo'lgan. Bosh, birinchi darajali ko'chalar markazdan radial yo'nalishda tarqalgan. Ular odatda Shaharning qo'rg'on devoridagi darvozalar mavjudligi bilan ajraladi va devor ortida boshqa Shahar va qishloqlarga olib boradigan yo'lga aylanib ketadi. Bosh ko'chalar bir muncha to'g'riligi hamda biroz kengligi bilan xarakterlanadi.

Bosh ko'chalarning ichida ham asosiylarini ajratish darkor. Ular karvon yo'llari negizida tashkil topgan, yaxlit yo'nalishdagi bir yoki ikki juft bosh ko'chalardan hosil bo'ladi. Bosh ko'chalarga ikkinchi va uchinchi darajali ko'chalar tutashtirilgan. Oraliqlarida mayda ko'chalar hosil bo'lgan.

Ko'p hollarda Shaharning qo'rg'on devorlari o'rnida xalqa yo'l shakllangan. Uning sodir bo'lishi Shunday kechgan; turli davrlarga mansub bo'lgan qo'rg'on devorlar bo'ylab yo'l paydo bo'ladi, devor yo'q bo'lib ketgach yo'l ko'chaga aylanadi. Ko'chalarning shakllari qo'rg'on devorlarning shakllariga monand ravishda to'rtburchakka va aylanaga yaqin bo'ladi. Mavqei jihatidan bunday ko'chalar ikkinchi darajaliydirlar. Odatda ular bosh ko'chalar bilan birgalikda Shaharning radial – halqa sxemasini tashkil qilgan.

Shaharning asosiy funksional (va aksar xollarda geometrik ham) markazi bozor edi. Unda nafaqat turli savdo yoki hizmat (charxchilik, chegachilik kabi) jarayonlari bajarilibgina qolmay, balki ba'zi xunarmandlar o'z mahsulotlarini ishlab chiqargan. Masalan, temirchilar tesha, bolta kabilarni bozorda ham tayyorlaganlar, ham sotganlar. Bunday maskanlarda qurilmalarning asosiy tipi – do'konlar bo'lgan. Xunarmandlik joylari asosan *rasta*, ya'ni muayyan kasb – xunarga tegishli qator asosida tashkil bo'lgan. Pichoqchi, baqqol, maxsido'z kabi xunarmandlar o'z rastalariga ega bo'lishgan. Rastalar odatda oddiy do'konlardan iborat edi. Shu bilan birga bozorda qurilmalarga xojat bo'lmagan turli maxsulot bilan savdo qilish uchun ochiq maskanlar – maydonlar tayin qilingan edi. Masalan, un bozor, qo'y bozorlar ochiq joylarda uyushtirilgan (3.4.8-rasm).



3.4.8-rasm. O'tmishdagi savdo inshootlarining ko'rinishi.

Yirik bozorlarda asosiy rastalar joylashgan savdo ko'chalarining ustilari yopiladigan edi. Ular tim deb atalgan. Buxoro, Toshkent, Marg'ilon, Shahrixonda Shunday timlar mavjud bo'lgan.

Bozor xordiq chiqaradigan joy vazifasini ham o'tagan. Maddoq, masxaraboz, polvon, dorboz kabilar o'z san'atlarini namoyish etishar edilar. Bozor choyxonalarida xonandalar, sozandalar, shoirlar to'planishib turishgan, askiyabozlar hazil – mutoyiba qilishgan. Ramazon oylarida bozor kechalari ham davom etgan. Bunday bozor bozori sha'b deb nomlangan.

Shaharlarning ijtimoiy – siyosiy mavqega ega maydonlari bo'lgan. Ular Registon nomi bilan ma'lum. Registon maydonlari odatda bozor bilan birga (tarkibida yoki yonma – yon) bo'lgan. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi kabi Shaharlar bunga misol bo'lishi mumkin. Turkistonda Registonlarning me'moriy jihatdan salobatligisi Samarqandda bo'lgan.

Xiva Shahari ikki qal'adan: Ichan qal'a va Dishan qal'adan iborat bo'lgan. Xivaning shahristoni bo'lgan Ichan qal'a tarhda to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib shimol – janub yo'nalishiga ega. Shimolda Bog'cha darvozasi, janubda Tosh darvozasi mavjud. Ularni ko'cha birlashtirib turadi. Asosiy ko'cha esa g'arb – Sharq yo'nalishida o'tadi. Ko'cha mos ravishda Ota va Polvon darvozalaridan o'tadi. Ota darvoza oldida qal'a – Ko'hna ark joylashgan. Dishan qal'a Xivaning rabodi bo'lib, Ichan qal'aning tevaragida, Sharqdan g'arbiga qarab cho'ziladi. Xorazm xoni Olloqulixon (XIX asr o'rtasi) aholini qo'shni qabalalar hujumidan saqlash maqsadida Dishan qal'ani uzunligi 6 km. bo'lgan devor bilan o'ratadi. Qurilishda Xorazm aholisining ko'p qismi qatnashib olti xaftada bitqaziladi. Dishan qal'ada 10 darvoza bo'lgan. Bular: Xazorasp (yoki Quyi), Pishkanik, Bog'i shamol, Shayxlar, Tozabog', Shoximardon; Dosh oyoq, Qo'sh, Gadoylar va Gandumiyon darvozalaridir. Dishan qal'aning bosh ko'chalari Ichan qal'a ko'chalarini davom ettiradi. Shaharning bozor, tim va rastalari asosan Dishan qal'ada bo'lgan

Nazorat savollari

1. Buxoro amirligi arxitekturasining asosiy xususiyatlari va uslublari nimadan iborat?
2. Amirlik davrida Buxoro shahrining me'moriy rivojlanishi qanday kechgan?
3. Buxoro amirligi davrida masjidlar, madrasalar va karvonsaroylar qanday qurilgan?
4. Amirlik davri yodgorliklarida gumbaz, minoralar va bezak san'ati qanday ishlatilgan?
5. Buxoro amirligi arxitekturasida davlat va diniy maqsadlar arxitekturaga qanday aks etgan?
6. Buxoro amirligi davrida foydalanilgan qurilish materiallari va texnologiyalari qaysilar edi?
7. Amirlik arxitekturasi Markaziy Osiyo va boshqa hududlar me'morchiligiga qanday ta'sir qilgan?
8. Amirlik davri shaharsozlik va ijtimoiy inshootlar (bozor, karvonsaroy, hammom) qanday tashkil etilgan?
9. Amirlik arxitekturasida bezak, naqsh va geometrik elementlarning o'rni qanday edi?
10. Buxoro amirligi arxitekturasi bugungi kunda madaniy meros sifatida qanday ahamiyatga ega?

3.5. Qo'qon xonligi arxitekturasi tarixi

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi kuchli markaziy hokimiyatga ega bo'lgan markazlashgan davlat sifatida qaror topishi natijasida iqtisodiyotning birmuncha jonlanishi madaniy hayotga ta'sir etmay qolmadi.

Mamlakat poytaxti Qo'qon va boshqa shaharlarda bir qator me'morchilik obidalari, yo'llar, ko'priklar, hammomlar qurildi, amaliy va hattotlik san'ati rivoj topdi. XIX asrning birinchi yarmida xonlikda Umarxon, Muhammadalixon, Nodirabegim, Xudoyorxon, Sulton Murodbek, Sulton Sayidxon, harbiy boshliqlardan

Musulmonquli, Aliquli, Xolmuhammad mingboshilar va zamonasining ilg'or, ma'rifatli kishilari tomonidan me'moriy obidalar qurdirildi, shaharsozlik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Me'morchilikda asosiy e'tibor madrasalar, masjidlar, xonaqolar, darvesh va qalandarlar uchun takyaxonalar, qorixonalar, sardobalar, ko'priklar, hammomlar, bozor rastalari barpo etish ishlariga qaratilgan (3.5.1-rasm).



3.5.1-rasm. Norbutabiy madrasasi.

Me'morchilik imoratlarining markazi Qo'qon shahri bo'lib, 1842-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda 15 ta madrasa mavjud bo'lib, eng ko'zga ko'ringanlari Hakim to'ra, Mohlar oyim, Muhammadalixon, Norbo'tabek, Jomiy, Oliy, Sulton Murodbek, Xo'ja dodxoh, Ming oyim madarasalari bo'lgan. Shahar markazi Chorsuda to'rtta yirik madrasa qad ko'targan. Ushbu madrasalarning 38 tadan 108 tagacha hujrasi bo'lgan.

Bu davrda Toshkent shahrida ham bir qancha madrasalar barpo etilgan. Jumladan, Umarxon davrida Tinchbof go'zarida Shukurxon madrasasi, Ko'kcha dahasida Eshon Bo'rixo'ja Sanchiqmoni madrasasi qurilgan. Keyinroq Muhammadalixon farmoni bilan shahar registonida madrasa qad rostlagan va unga Mir Inoyatulloh bosh mudarris etib tayinlangan. Isoxo'ja madrasasi, Charxchiko'cha madrasasi, Mahmud dasturxonchi madrasalari ham shu davrda bunyod etilgan. Shuningdek, Marg'ilonda Saidahmadxo'ja madrasasi, Andijon shahri atrofida Otaqo'zi madrasasi, Mirzaquli Bo'lish madrasasi kabilar qurilgan. Umuman olganda, xonlikning Qo'qon, Toshkent, Andijon, Xo'jand, O'ratepa, Marg'ilon, Turkiston kabi shaharlarida 200 dan ortiq madrasalar barpo etilgan (3.5.2-rasm).

Xonlikda Jome (juma va hayit namozlarini o'qish uchun) va mahalla (besh vaqt namoz o'qish uchun) masjidlari qurilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Jome masjidlari o'zining salobatligi bilan ajralib turgan. Ular baland gumbazli va tekis shiftli bo'lib, har ikkala turdagi binoning ichki ko'rinishidagi shiftiga va tashqi ko'rinishidagi gumbaz bezagiga alohida e'tibor berilgan. Masjidlar binosining qurilishi va ularning ta'miri asosan vaqflar hisobidan amalga oshirilgan. Qo'qon xonligida maqbaralar xonlar, sayyid va xo'jalar qabrlari ustida barpo qilingan va ularning qurilishi hamda ta'mirlanishi savobli ishlardan hisoblangan. Shuningdek maqbaralar qurdirish obro' orttirish vositasi ham bo'lgan. Farg'ona vodiysida XVIII – XIX asrlarda qurilgan maqbaralarning ichki ko'rinishida XI – XII asrlarga xos an'analar ko'zatiladi.



3.5.2-rasm. Toshkentdagi Eshon Bo'rixoja Sanchiqmoniy masjidi.

Xonlik me'morchiligi tarixida jamoat binolari sirasiga kiruvchi hammomlar alohida o'rin egallaydi. Hammomlar pishiq g'ishtdan, bir necha gumbazli qilib qurilgan va ular egasining nomi bilan atalgan. Xonlikda me'morchilikning rivojlanishi savdo-sotiq munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan inshootlar qurilishida ham kuzatiladi. Xonlik hududlarida markaziy yo'llar bo'ylab rabot va karvonsaroylar faoliyati davom etgan, bozorlar rivojlangan. Jumladan, Toshkentda Chorsu bozori sakkizta ko'chani birlashtirgan. Bu bozor o'nga yaqin savdo maydonlari va qirqa yaqin savdo – hunarmandchilik rastalarini o'z ichiga olgan. Rastalar ko'chani ikki tomoni bo'ylab joylashgan va ularni ko'cha o'rtasini egallagan baland tim birlashtirgan. Tim yog'och tirkagich va to'siqlardan tashkil topgan. Bunday bino va inshootlar hukmdorlar, alohida amaldorlar va shaxslar tomonidan qurdirilgan. Xonlik me'morchiligiga yog'och, temir, pishiq yoki xom g'isht, yupqa spool g'isht, ganch, marmar, xarsang tosh, sog' tuproq va ohak asosiy qurilish materiallari bo'lgan. Temir va yog'och kam bo'lganligi bois qurilishda ko'proq pishiq yoki xom g'isht, ganch, tosh, loy, somon va ohak ishlatilgan. Binolar poydevoriga xarsangtosh yoki marmartosh yotqizilgan. Qurilishda terak, tol, tut, yong'oq, qayrag'och va archa yog'ochlaridan keng foydalanilgan. Pishiq g'isht, ganch, yupqa sopol g'ishtlar maxsus xumdonlarda pishirib tayyorlangan (3.5.3-rasm).



3.5.3-rasm. Toshkentdagi Zangi Ota maqbarasining naqshu-nigorlari (N.V. Gilmanova bo'yicha).

Xonlikda qurilgan binolarning umumiy tuzilishi va rejalashtirishida an'anaviylik saqlanib qolgan bo'lsa-da, Qo'qon me'morchiligida tashqi aloqalarning ham ta'siri seziladi. Binolarning bezaklarida rang-barang g'ishtlar ko'p ishlatilgan. Shiplarga solingan gullar O'rta Osiyodagi qadimiy yodgorliklardan o'zining jimjimadorligi, bo'yog'ining yorqinligi, ularning ba'zan ko'zni qamashtiradigan darajada aralash – quralash bo'lib ketganligi bilan farq qilgan. Qo'qon xonligida qurilish va me'morchilik bilan birga amaliy san'at ham rivoj topgan. Xususan, amaliy san'atning naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi sohalari yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, ularda me'morchilikda keng foydalanilgan. Amaliy san'atning yuqori darajasi Xudoyorxon saroyida, Oltiariqdagi Do'sti Xudo masjida ayvonida ishlangan nashqlarda Andijon atrofidagi Otaqo'zi madrasasi bezaklaridagi islamiy naqshlarda, Chodak masjidining yog'och va ganch o'ymakorligida, Rishtondagi Xo'ja Ilg'or masjidining shift bezaklarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qo'qon xonligi me'morchiligi va amaliy san'atida butun O'rta Osiyo uchun xos bo'lgan an'anaviy uslublar bilan bir qatorda mahalliy xususiyatlar ham saqlangan. Qo'qon, Toshkent me'morchilik maktablarining vakillari jamoat binolarini qurish va ularni bezashda, naqshlar tanlashda o'z maktablarining an'alarini takomillashtirganlar hamda rivojlantirganlar. Qo'qon va Toshkentning mahalliy me'morchilik maktablari o'zlarining keng rejali, hajmli manzaralari, bezak va jihozlarning g'oyat nafisligi, ranglarning


shoʻxchanligi hamda yogʻoch va ganch oʻymakorligi bilan ajralib turadi. Xonlik meʼmorchiligida chiroyli qilib aylantirib urgʻu berilgan, ichiga islamiy naqshlar tushirilgan, koʻproq qizil hamda yashil boʻyoqlar bilan jilolangan bezaklar koʻpchilikni tashkil etadi. Bu davrda xonlikda hattotlik va kitobat sanʼati ham rivoj topgan edi. Qoʻqon xonligining oʻz hattotchilik maktabi boʻlib, mamlakatda koʻplab xattotlar yashab, ijod qilganlar. Xattotlarning aksariyati shoir, tarixchi boʻlgan yoki miniatyura sanʼati bilan shugʻullangan. Qoʻqonlik Muhammad Latif, Abdulgʻozi Xoʻja Xoʻqandiy, Mirzo Bobokalon Xoʻqandiy, Ahmadjon kotib, Abdugʻafur xattot, Mirzo Sharif Dabir, toshkentlik Muhammad Yunus Toyib Toshkandiy, Abdulvahobxoʻja muhrkan, eshon Abdusamiʻxoʻja Xatib oʻgʻli kabilar koʻzga koʻringan xattotlardan boʻlgan. Bu xattotlar nasx, shikasta, nastaʼliq kabi yozuv usullarini puxta egallaganlar. Xattotlik sanʼati asosan Qoʻqon, Toshkent, Andijon, Xoʻjand, Oʻratepa kabi shaharlarda koʻproq rivoj topgan.

Nazorat savollari

1. Qoʻqon xonligi arxitekturasining asosiy xususiyatlari va uslublari nimadan iborat?
2. Qoʻqon xonligi davrida shaharsozlik va meʼmoriy rivojlanish qanday kechgan?
3. Qoʻqon xonligi yodgorliklari qaysi turdagi binolarni oʻz ichiga olgan (masjid, madrasalar, karvonsaroy, saroy)?
4. Qoʻqon arxitekturasida gumbaz, minoralar va bezak sanʼati qanday ishlatilgan?
5. Qoʻqon xonligi arxitekturasida davlat va diniy maqsadlar arxitekturaga qanday aks etgan?
6. Qurilish materiallari va texnologiyalari Qoʻqon arxitekturasida qanday boʻlgan?
7. Qoʻqon xonligi meʼmorchiligi Buxoro va Samarqand meʼmorchiligidan qanday farq qilgan?
8. Shaharsozlik va ijtimoiy inshootlar (bozor, karvonsaroy, hammom) Qoʻqon davrida qanday tashkil etilgan?
9. Qoʻqon arxitekturasida naqsh, geometrik bezak va dekorativ elementlarning oʻrni qanday edi?
10. Qoʻqon xonligi arxitekturasi bugungi kunda Markaziy Osiyo madaniy merosida qanday ahamiyatga ega?

3.6. XIX asr oxiri-XX asr boshlari O'rta Osiyo arxitekturasi tarixi

Turkiston erlari Rossiya tomonidan bosib olingandan keyingi zamonda ikki davrga ajratish mumkin. Bu davrlarning chegarasi XX asrning birinchi unyilligiga, temir yul qurilishi vaqtiga to'g'ri keladi. Turkistonda XIX asrning 2-yarmidan boshlab ayrim qadimiy shaharlarining chekkalarida, yonlarida yoki ulardan biror masofada «yangi shahar»lar paydo bo'ldi. Samarqandda va Toshkentda dastlabki «yangi shahar»lar qadimgi qal'alarning buzib tashlanishi hisobiga, ularning o'rinlarida qurildi. Xiva va Buxoro shaharlari o'zlarining asrlar davomida shakllangan shaharsozlik tizimlarini saqlab qoldilar. Buxoroning «quriqchisi» sifatida Kogon qurildi. Marg'ildan birmuncha masofada «Yangi Marg'ilon» - hozirgi Farg'ona shahri tashkil bo'ldi (3.6.1-rasm).



3.6.1-rasm. Kogon shahri bosh rejasi.

Turkiston shaharlari hayotida yuqorida aytilgan yirik va mayda ma'muriy - rejayiy tizimning ahamiyati saqlanib qolgan. Kugina shahar va yirik qishloqlarda (masalan, Parkentda) aholi dehqonchilik bilan ham shug'ullangan (Buxoro shahri bundan mustasno). Bunday shaharlarda oilalar bahorda kuch-kuroni bilan shahar tevaragidagi bog'lariga chiqib ketib, kuzda hosilni yig'ib bo'lgach o'z mahallalariga qaytishgan. Shaharliklarning dehqonchilik qiladigan qurg'on devordan tashqaridagi erlari turli nom bilan

atalgan: Toshkentda - mavzu yoki mavze, Samarqanda va Qarshida - borot deyilgan.

Shahrisabz shahari boshqa o'rtacha kattalikdagi shaharlar qiyofasiga uxshash qiyofaga ega bo'lgan. Uning tarxida XV asrga mansub bo'lgan shaharsozlik tizimi saqlanib qolgan edi. XIX asrning oxirida Shaxrisabzda 52 guzar mavjud bo'lgan. Har guzarda uning jamoat markazida oldi hovuzli hamda kukalamzorlashtirilgan guzar masjidi bo'lgan. Guzarda boshqa xildagi, masalan jome tipidagi masjid ham bo'lishi mumkin. Markazga guzar ahli yig'ilib o'z ishlari xususida kelishib olishar edi. Bunday joylarda ba'zan maktab, zaviya, takiya, madrasalar ham qurilgan (3.6.2-rasm).



3.6.2-rasm. Shahrisabzdagi Malik Ashtar masjidi.

1865 yilda Toshkent Rossiya tomonidan bosib olinganidan sung chor qumondonligi Urdada joylashgan. Keyinchalik Kuymas darvozasidan sharqda yangi qal'a - Tuproqqurg'on kurilgan. U g'arb fortifikatsiyasi qoidalariga muvofiq qurilgan bo'lib noto'g'ri tarxga ega bo'lgan. Ichida kazarmalar, ofitserlar uylari, kasalxona va boshqalar binolar qurilgan edi. Inshootlar Tuproq qurg'on ichiga sig'may qilganda ba'zi binolar uning tashqarisida ham paydo bo'ldi. Qal'aning sharqiy darvozasi saqlangan.

XIX asrning 2-yarmi - XX asr boshida ham Toshkentning avvalgi kuzatilgan kengayishi davom etdi. Usha davrdagi darvozalar va ularning atroflaridagi joylar nomlari tahlili shuni kursatadiki, u joylarda ba'zan «Yangi mahalla» nomlari bilan (Beshyog'och, Kukcha darvozarining oldilaridagi kabi), kuprok; "Yangi shahar" nomlari bilan atalgan (Chigatoy, Sagbon, Taxtapul darvozarining oldilaridagi kabi) yangi mahallalar vujudga kelgan. Shunday mahallalardan biri bo'lgan Toshkentning

sharqdagisi Chor hokimiyati tomonidan dastlab Shivli (Shibli) arig'ining chap tomonigacha (loyihachi M.N. Kolesnikov, 1867 y.) kengaytirildi.


1866-1867 yillarda harbiy topograf M.N. Kolesnikov Urda va Tuproqqur'gon bilan Shivli arig'igacha bo'lgan erlarni Yangi shahar extiyojlari uchun rejalashtirdi. Loyiha buyicha keng (25 m) kuchalar utkazish muljallangan edi. Qadimgi Ming Urik hamda Shivli arig'ining bo'ylaridagi bog'larni saqlab qolish kuzda tutilgan edi. Turkiston shaharsozlik tarixini o'rganishda chor ma'muriyatining 1889 yilning «Toshkent shahri Osiyo qismining tarxi» xaritasi muhim manbadir. U 5-chizmachilik bo'limning boshlig'i Rodionov tahriri ostida Toshkent Xarbiy-tipografik toshbosma bo'limida chop etilgan. Xaritada hozirgi Eski shaharning deyarli hammasi kursatilgan. Urda va uning tevaragi bundan mustasno, chunki u erlar Yangi shaharga qushib yuborilgan.

Xarita 100 sajen "I ingliz dyuyumi" miqyosi (masshtabi) bo'yicha bajarilgan. Ushbu xaritani o'rganish Toshkent shaharsozligiga doir ba'zi qimmatli ma'lumotlarni beradi. Xaritada 268 masjid va 96 guzar kursatilgan. Ulardan 200 masjid va 41 guzar yakka holda keltirilgan. Qolganlari boshqa qurilma yoki shaharsozlik unsuri bilan turli birikmalarda keltirilgan. Xaritada guzarlar 2-3 mahalla markazi tariqasida berilgan. Guzarlarning tarkibida dukonlar bulib, ularning soni aksari 10-20 atrofida.

Me'moriy birikmalar ichida masjid - guzar (eng kup, qirqqa yaqin), masjid-madrasa, masjid-madrasa-guzar birikmalar qayd etilgan. Ularning tarkibida mozor yoki yakka qabr bo'lgan birikmalar ham mavjud. Toshkent Turkistonning ma'muriy, savdo va sanoat markaziga aylandi. U asr boshiga kelib qariyb 300 ming aholiga ega buldi. Usha vaqtda shaharda 280 dan ortiq maxalla bo'lgan. Shahar qadimgi va yangi qismlardan tashkil topgan edi.

1890 yil ma'lumotiga kura, shahardagi kuchalarning umumiy uzunligi 1343 kilometrga etgan. Eski shahar binolari me'morligida, jumladan masjid va madrasalar qurilishida ustalar tomonidan qadimiy, yapaloq g'ISHT bilan barobar zamonaviy o'lchamlarga yaqin ulchamlardagi *solloti g'isht*, gumbaz va tomlar uchun tunuka, zinalar uchun temir ham qullanildi. Eski shaharda kuppina yangi binolar paydo bo'ldi. Shayxontaxur majmuasining darvozasi (1892 yil, usta Abduraxim), Tuxta boyvachcha masjidi (1906 y.), Shayxontaxur dahasining Baland masjidi (1925 yil, usta Mumin) kabi binolar bunga misol bo'la oladi. Ayni vaqtda Yangi shaharning ayrim binolarida, masalan «Xiva» kinoteatrida (1910-1916 y., arx. G. Svarichevskiy, imorat saqlanmagan) mahalliy me'moriy shakllardan foydalanildi. XIX asr oxiri-XX asr boshida Toshkentda bir necha evropacha imoratlar: savdo binosi (1911 yil, 4-poliklinika), Eski shahardagi 1-telegraf (saqlanmagan, avvalgi kasb-hunar bilim yurti, keyin uqituvchilarining malakasini oshirish kurslari, Jangob arig'i bo'yida bo'lgan), Maxsiduzlik ko'chasidagi Turon


mehmonxonasi-hozirgi omonat kassasi va viloyat kutubxonasi binolari qurildi (3.6.3-rasm).



3.6.3-rasm. Toshkentning tarixiy dorvozalari.

Toshkentning Chorsubozori nafaqat savdo, balki hunarmandchilik markazi ham bo'lgan. Bozor bir xil mollar bilan savdo qiluvchi bozorcha maydonlari va hunarmandlar rastaslaridan iborat bo'lgan.

Yangi shahar eskisi kabi asosan bir qavat va xom g'ishtdan qurilgan edi. Lekin markaziy kuchalarning ba'zilari tosh bilan farsh qilindi. Bunday kuchalarning yonlarida g'ishtin magazin, bank, mehmonxona, restoran, hashamatli turar uylar ham qurildi. Masalan, Andijon kuchasida arxitektor G. Svarichevskiy loyihalagan saroy qurildi. Yangi shaharda Katta prospekt, Moskva va Konstantin kuchalari ajralib turgan. Katta prospektning Moskva va Mixail kuchalarining chorrahasida cherkov va savdo maydoni (Piyon bozor) bo'lgan. Bu erda saqlangan binolaridan Buyuk knyaz N.K. Romanov saroyini (1889-1890 y.) kursatish mumkin. 80- yillar boshida Yangi shahar janub tomonga qarab kengayib Shahar bog'i (1882 y.) barpo etildi. Ofitserlar majlisxonasi qurildi. 1899-yil va 1906-yilda Kaspiyorti va Orenburg temir yullari paydo bo'lgach, sanoat korxonalari paxta zavodlari, temir yul ustaxonalari va boshqa yangi tipdagi imoratlar qurildi (3.6.4-rasm).



3.6.4-rasm. Buyuk knyaz N.K. Romanov saroyini hozirgi ko'rinishi.

Zangiota majmuasi Toshkent viloyatining Zangi ota qishlog'ida vujudga kelgan. XX asr elliginchi yillarda majmua gumbazli darvozaxonadan boshlanar edi. Uning shundoq orqasida yulning chetlarida ikki pastakkina minora qad kutarib turgan. Dastlabki darvozaxona sirlangan g'isht va guldastalar bilan bezalib, minoralardan 22 metr narida bo'lgan. Yulning janubi-g'arbida kichkina shiypon turgan edi (3.6.5-rasm).



3.6.5-rasm. Zangiota majmuasining ichki ko'rinishi.

XX asr boshida darvozaxonadan boshlangan yul ikki tomoniga teraklar ekilgan xiyobon orqali madrasa hovlisiga olib borgan. Hovli o'rtasida solloti g'ishtidan qurilgan baland qirralik minora mavjud. Hovlining g'arbini peshayvonli namogoh (XVIII asr oxiri-XIX asr boshi) masjidi egallaydi. Uning yaxlit bo'lgan ichini g'ishtin ustunlar gumbazli xonalarga bo'lgan. O'rta xonaning mexrobli devori rangli girix va yozuvlar bilan madrasa hovlisining boshqa uch tomonini ham bir qavatli xujralar egallaydi. SHimoliy tomonda darsxona, sharqiy tomonda esa ikki tarafi ham peshtoq bilan nishonlangan yana bir darvozaxona bor. Zangi ota majmuasi boshqa Toshkent majmualariga ham xos bo'lgan jihatlarda barpo etilgan.

Nazorat savollari

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyoda arxitektura rivojlanishiga qanday tarixiy-siyosiy omillar ta'sir ko'rsatgan?
2. Rossiya imperiyasi davrida O'rta Osiyo shaharsozligida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
3. An'anaviy mahalliy me'morchilik bilan Yevropa uslublari o'rtasidagi uyg'unlashuv qanday namoyon bo'ldi?
4. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qurilgan ma'muriy va jamoat binolarining asosiy xususiyatlari nimada edi?
5. Temir yo'l qurilishi va sanoat rivoji arxitekturaga qanday ta'sir ko'rsatdi?
6. O'rta Osiyoda eklektika va neoklassitsizm elementlari qanday qo'llanilgan?
7. Shaharlarning eski (mahalliy) va yangi (Yevropa tipidagi) qismlari qanday farqlangan?
8. Qurilish materiallari va texnologiyalarida qanday yangiliklar paydo bo'ldi?
9. Bu davr arxitekturasida milliy an'analar qay darajada saqlanib qolgan?
10. XIX asr oxiri – XX asr boshlari O'rta Osiyo arxitekturasi bugungi zamonaviy me'morchilik rivojiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

3.7. Yevropa arxitektura stillarining O'rta Osiyo arxitekturasiga ta'siri

Yevropa arxitektura stillarining O'rta Osiyo arxitekturasiga ta'siri, tarixiy davrlar davomida yuzaga kelgan madaniy o'zaro ta'sirlar, savdo yo'llari, siyosiy aloqalar va mustamlakachilik siyosati orqali shakllandi. O'rta Osiyo hududi, geografik jihatdan, Sharq va G'arb o'rtasida muhim o'rin tutgan va shu sababli u ko'plab madaniyatlar, uslublar va g'oyalar

almashishining markazi bo'lgan. Yevropa arxitektura uslublarining ta'siri ayniqsa XIX va XX asrlarda sezilarli bo'ldi.

Rossiya imperiyasining ta'siri XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo hududlaridagi kengayish jarayonida mustamlakachilik arxitektura uslublarining O'rta Osiyo arxitekturasiga ta'siri kuchaygan. Rossiya imperiyasi o'ziga xos arxitektura uslublarini, masalan, **neoklassitsizm** va **barokkoni** ushbu hududda o'zgacha shakllarda qo'lladi. Bu uslublar O'rta Osiyo shaharlarida, ayniqsa Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysi kabi mintaqalarda o'z ifodasini topdi.

Neoklassitsizm va Barokko. Rossiyaning arxitektura uslubi neoklassitsizmga asoslangan bo'lib, bu uslubda shakllangan davlat binolari, temir yo'l stansiyalari, pochta ofislari va boshqa jamoat inshootlari O'rta Osiyoda qurilgan. O'sha davrda Rossiya tomonidan qurilgan ko'plab davlat muassasalarining tashqi ko'rinishi klassik (yunon yoki rim) uslublariga asoslangan bo'lsa-da, ular O'rta Osiyo shaharsozligining an'anaviy elementlari bilan uyg'unlashgan (3.7.1-rasm).



3.7.1-rasm. Eski ToshMIIdagi sobiq kadet korpusi.

Pochta va temir yo'l stansiyalari. Temir yo'l qurilishi va pochta xizmatlari uchun qurilgan jamoat binolari zamonaviy arxitektura uslublarini qo'llab-quvvatladi. Ushbu binolar ko'pincha Rossiya arxitekturasining mustahkam va monumental uslublariga ega bo'lib, shaharlar orasida yangi aloqalarni mustahkamladi (3.7.2-rasm).



3.7.2-rasm. Temir yo‘l stansiyalari. 1899 y.

G‘arbiy arxitektura ta‘siri: XIX asrning oxirida va XX asrning boshlarida, Rossiya mustamlakachiligidan so‘ng, O‘rta Osiyo ko‘plab g‘arbiy arxitektura uslublariga duch keldi. G‘arbiy mamlakatlar, ayniqsa, Fransiya, Britaniya va Germaniya, O‘rta Osiyo shaharlarida qurilgan ba‘zi binolarga ta‘sir ko‘rsatdi. Bu davrda **modernizm, art-deko, neobarokko** kabi uslublar keng tarqalgan.

Modernizm va Art Deco. XX asrning boshlarida **modernizm** va **art-deko** uslublari, shu jumladan zamonaviy texnologiyalar va materiallardan foydalanish O‘rta Osiyoda keng tarqaldi. Bu uslublar, o‘z navbatida, funksional va yengil dizaynlarni ta’kidlagan holda, O‘rta Osiyo arxitekturasida yangi inshootlarning qurilishiga olib keldi. Shaharsozlikda temir-beton konstruksiyalar, yoritish tizimlari va aerodinamik shakllar qo‘llanildi (3.7.3-rasm).

Shaharlar va jamoat binolari. O‘rta Osiyo shaharlarida, ayniqsa Toshkent va Samarqandda, modernizm uslubidagi binolar ko‘p qurila boshladi. Bu binolarda ko‘plab g‘arbiy arxitekturaviy elementlar, masalan, yuqori balandlikdagi binolar, keng peshtaxtalar va to‘g‘ri chiziqlar, ko‘rinadi. Buxoro va Xiva kabi shaharlarda esa g‘arbiy elementlar, an’anaviy O‘rta Osiyo arxitektura elementlari bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilgan.

O‘zbek arxitekturasining o‘ziga xosligi va milliy elementlar. Shu bilan birga, O‘rta Osiyo arxitekturasining o‘ziga xosligi ham saqlanib qolgan. G‘arbiy arxitektura uslublari O‘rta Osiyo shaharlarida faqat tashqi ko‘rinishida ta‘sir o‘tkazgan bo‘lsa-da, milliy uslub va bezaklar, masalan, **mozaika, keramika, kupol** va **arqonli minora** kabi O‘rta Osiyo

arxitekturasi anʼanaviy elementlari ham mavjud boʻldi. Oʻzbek arxitekturasi Gʻarb uslublari bilan uygʻunlashgan holda, oʻzining milliy mustahkamligini saqlab qoldi (3.7.4-rasm).




3.7.3-rasm. Toshkent modernizmi: Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi



3.7.4-rasm. Oʻrta Osiyo arxitekturasi anʼanaviy elementlari.

Tez o'zgarayotgan texnologiyalar. G'arb arxitekturasining ta'siri texnologik jihatdan ham sezildi. Yevropa davlatlarining yangi qurilish materiallarini O'rta Osiyoga olib kelishi, shuningdek, beton, shisha va metal kabi zamonaviy materiallar O'rta Osiyo arxitekturasida qo'llanildi. Bu texnologiyalar qurilishning yanada yengil va tezroq bo'lishiga yordam berdi, biroq an'anaviy dekorativ elementlar ham saqlanib qolgan (3.7.5-rasm).



3.7.5-rasm. Sitorai Moxi-Xosa saroyining ichki ko'rinishi.

Mustahkam va zamonaviy yondashuvlar. O'rta Osiyo arxitekturasining rivojlanishida g'arbiy ta'sirlar bilan birga, an'anaviy yondashuvlar ham mavjud bo'ldi. O'rta Osiyo arxitekturasining mustahkamligi, keng turdagi bezaklar, ma'naviy simvollar va diniy elementlar, bularning barchasi O'rta Osiyo shaharlarini o'ziga xos tarzda taqdim etdi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va uslublar o'rtasida uyg'unlikni saqlash, O'rta Osiyo arxitekturasining noyob xususiyatidir.

Yevropa arxitektura stillarining O'rta Osiyo arxitekturasiga ta'siri, tarixiy, madaniy va siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Mustamlakachilik davri, g'arbiy ta'sirlar va zamonaviy texnologiyalarni qabul qilish jarayonlari, O'rta Osiyo arxitekturasining yanada o'zgarishiga olib keldi. Biroq, milliy elementlar va an'anaviy bezaklar hamda mustahkam konstruktiviyalar saqlanib qoldi. O'rta Osiyo arxitekturasi, g'arbiy va sharqiy uslublarning uyg'unlashgan manzarasi sifatida o'ziga xos rivojlandi.

Nazorat savollari

1. Yevropa arxitektura uslublari O'rta Osiyoga qaysi tarixiy davrda va qanday sharoitda kirib kelgan?
2. Rossiya imperiyasi davrida Yevropa me'morchiligi O'rta Osiyo shaharsozligiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
3. Neoklassitsizm va eklektika uslublari O'rta Osiyoda qanday namoyon bo'lgan?
4. Yevropa tipidagi ma'muriy va jamoat binolari an'anaviy mahalliy arxitekturadan nimasi bilan farq qilgan?
5. Yevropa arxitektura elementlari (kolonna, fronton, arkada va boshqalar) O'rta Osiyo binolarida qanday qo'llanilgan?
6. Yangi shahar rejalashtirish tamoyillari (to'g'ri ko'chalar, maydonlar, kvartallar) qanday joriy etilgan?
7. Qurilish materiallari va texnologiyalarida qanday yangiliklar kuzatilgan?
8. Yevropa uslublari bilan milliy bezak san'ati o'rtasida qanday uyg'unlik yuzaga kelgan?
9. Sovet davrining dastlabki bosqichida modernizm va konstruktivizm O'rta Osiyo arxitekturasiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
10. Yevropa arxitektura stillarining ta'siri bugungi zamonaviy O'zbekiston arxitekturasida qanday namoyon bo'lmoqda?

**“ARXITEKTURA TARIXIGA KIRISH” FANIDAN ASOSIY
ATAMALAR (TAYANCH IBORALAR)**

Abaka – (yunoncha-abax-taxta) - kapitelning eng yuqori plitasi.

Akant (yunoncha akan) – o‘simliksimon naqshlarga taqalib turuvchi va ularni o‘zaro birlashtirib turuvchi dekorativ element, chiziq.

Akveduk (aqua-suv va duko-o‘tkazaman) – suv o‘tkazgich tarnov.

Altar (lot.altaria-baland) – qadimgi Yunonlar va Rimliklarda qurbonliq keltiradgan joy, xrestianlarda maxfiy majlislar o‘tkaziladigan joydagi stol, shuningdek umumlashtirilgan holda ibodatxonaning sharqiy qismi, provaslav ibodatxonalarida – ikonastas.

Amfiprostil – (yunon. amfipostulos, amfi-ikki taraflama va prostulos-old qismida ustuni bor) – to‘rt burchak tarxli, old qismi (fasadi) ustunli (portik), yon devorlari silliq, bezaksiz ishlangan bino.

Amfiteatr – (yunon. amfiqeatron) – qadimgi Yunonstonda diniy spektakllar va jamoa yig‘ilishlari o‘tkaziladigan qurilma. Keyinchalik qadimgi Rimda gladiatorlar va turli hayvonlarni urishtirib tomosha qiladigan, tarxi bo‘yicha ellipssimon, tomsiz, o‘tirtg‘ichlari bilan moslangan (kolizey) monumental bino.

Anfilada – eshiklari bir o‘q bo‘ylab ketma-ket joylashgan, qator xonalar majmui, qaysiki ular xonalarning tantanavor perspektiv ko‘rinishini ta‘minlaydi.

Antik – qadimgi Yunon-Rim taraqqiyotiga bog‘liq ma‘lumotlar.

Arka (lot. Fhcus-yoysimon) – egri chiziqli, devordagi yoki ikki tayanch ustunlar oralig‘ini yopilmalarini tayanchi.

Atlant – erkakodam qomati tasviridagi ustun.

Bazilika – (yunon. Dbazilike - podishoh uyi) – tarxda to‘g‘riburchakli, uch yoki besh nefdan iborat, qator ustunlardan iborat bino. Uning o‘rtadagisi odatda eng baland bo‘lib uning devorlari yuqorisida derezalar o‘rnatilgan.

Balyustrada (fran. balustrade) – pilapoyalar, terrassalar, balkonlarni himoyalovchi usti balka yoki perela bilan birlashtirilgan figurali panjara.

Balyasina – ko‘p baland bo‘lmagan balyustrada balkalari yoki perilalarini tayanchi sifatidagi dekorativ ustunchalar.

Baraban – silindrik yoki ko‘pqirrali gumbaz asosi.

Bosha – kapitel, ustunning guldastasimon yuqori qismi, ko‘pincha muqarnas shakllar bilan ishlangan bo‘ladi.

Burj – qal‘a devorlariga, ularning burchaklariga tayanch, kuzatuv va me‘moriy forma sifatidagi qurilma.

Vassa – bolor ustiga teriladigan yarim silindrik yohoch yopilmalar.

Villa – shahar chetidagi bog‘li, hashamatli bino.

Valyuta (lotin. **Valuta**-cpilal, o‘ram, gajak) – ionik orderning qismi, spiral ko‘rinishidagi me‘moriy motiv.

Gipostil (yunon. UpostuloV-ustunlarga tayangan) – Qadimgi sharq mamlakatlarida (Misr, Eron) qator muntazam ustunlarga qurilgan katta zal.

Gurt (nem. Gurt, belbog‘,kamar),(ruscha, poyas, tyaga) – gotik arxitektura nervyura - svodni tashkillashtiruvchi arka, bino qavrg‘asi.

Girih – (arabcha “tugun” so‘zidan olingan) handavaviy (gometrik) shakllardan tuzilgan naqsh.

Guldasta – imorat burchaklarini mahkamlash uchun ishlatiladigan minorasimon qurilma.

Gumbaz – arxitektura keng qo‘llaniladigan yopma turi. Gumbazning qurra (yarim shar), qit‘a (segment), mahrut (asosi piramida), toq (sferakonik), turkistoni (asosi silindr, usti konus), sag‘anaposh (sag‘anasimon), balxi, sholg‘omi, mirzoi, zarbalik, chortark, naqshbandi, va boshya turlari malum.

Doriy orderi – yunon arxitekturasida yuzaga kelgan uch orderning bir turi.

Dipter – atrofi ikki qator ustunlar bilan o‘ralgan antik imorat.

Zamin – o‘ymakorlikda va naqqoshlikda tanlangan asos.

Zakomar qadimgi rus arxitekturasida silindrik svodlarda ishlatilgan yarim aylana formalar.

Zikkurat – qadimgi Mesopotamiya arxitekturasida piramidasimon qavatli sajdagoh minora.

Impost – devorga o‘rnatilgan yoki alohida turgan ustunlar ustiga qo‘yiladigan va unga arkalar tayanadigan bezakli element.

Interer – (fran. Interior-ichki) – ichki fazo, bino ichidagi xonalarga tegishli.

Ionik order-yunon arxitekturasidagi uch orderlarning biri.

Kannelyuralar – (fran. Cannelur-novcha) – orderlar ustunlariga o‘yib ishlangan novchasimon ishlanmalar.

Kapella (ital. Capella-mehrobsiz kichik butxona) – katoliklar arxitekturasida bitta zodagon oila uchun, uning oila yodgorliklarini saqlash hamda ibodat keltirish uchun, qasr va saroylarga qo‘shilgan g‘olda yoki alohida qurilar edi. Masalan Sekstin kapellasi.

Kapitel – (Yunon. Capitellum-boshcha)- ustun va antablement o‘rtasida joylashtiriladigan, orderlarni bir- biridan farqlanib turadigan qismi.

Karvon-saroy – (forscha.-karvonlar uyi) – Sharq mamlakatlarida karvonlar kelib tunashi, savdo bilan shug‘ullanishida yashab turishi uchun mo‘ljallangan bino.

Kariatida (yunon.) – ustun vazifasini bajaruvchi, ayol qomati ko‘rinishidagi me‘moriy element.

Karniz – (yunon. korwniV-yakun, tugallanish) – tom yopilmasini tayanchi va suvdan saqlaydigan, devordan bo‘rtib chiqib turadigan, gorizontal joylashgan, binoga bezak beruvchi vazifasini ham bajaruvchi element.

Kafedra – (yunon. kathedra-kursi, skameyka) – xrestian chirkovlarida xutba, va‘z o‘qiladigan baland joy, minbar. Kaqedra turli o‘ymakor naqshlar va diniy syujetdagi haykallar bilan bezalgan bo‘ladi.

Kesson – (frans. caisson- quti) – shipdagi (potolok) kvadrat yoki ko‘p burchakli chuqurlashtirilgan formalar. Bunday formalar konstruktiv, akkustik, bezak uchun ahamiyatlidir.

Klet – russiya yog‘och arxitekturasida bir-biriga kiygizib ko‘tariladigan, odatda binoning pastki isitilmaydigan, sodda qismi.

Kontrfors – (fran. Contreforce – qarama- qarshi harakatdagi kuch) devor bo‘ylab peredikulyar tarzda, tirkov vazifasini bajaruvchi, toshdan, g‘ishtdan yoki betondan o‘rnatiladigan, devorni mustahkamligini ta‘minlovchi tirkov.

Lodjiya – (ital. Loggia, laudjia - besedka) – bir tomoni yoki bir necha tomonlari ochiq bino, qaysiki devor o‘rnini ustunlar, arkada, parapet va hok. bilan o‘ralgan. Lodjiya, alohida yoki plastik jihatini yaxshilash uchun devor ichkarisiga chuqurlashtirib qurilgan bo‘lishi ham mumkin.

Lopatka, lezina – devordan bo‘rtib chiqib turadigan yassi, to‘rt burchak tekislik. U devor yuzasini kompozitsiyasini yaxshilash yoki devorga konstruktiv jihatdan mustahkamligini oshirish uchun ham ishlatiladi.

Megaron – (yunon. megaron- bino zali) – krito-miken davriga xos tarxi to‘g‘ri to‘rtburchak, oldida portik joylashgan, keyinchalik yunon arxitekturasi proobraziga aylangan bino.

Manej – (frans. Manege) – tarxi to‘rt burchak yoki aylana, biron to‘siqsiz, otlarni minishga urgadigan bino.

Mansarda (frans. mansarde) – bino tomi (cherdagi), yashash uchun moslashtirilgan xonalar.

Mastaba – qadimgi Misrda, tarxi to‘g‘ri to‘rt burchak, yuqoriga qiyalashtirib qurilgan daxma, go‘rxona.

Masjid – (arabcha – sajda qilish joyi) – musulmonlarning sajdagohi. VII-VIII asrlardan boshlab gumbali, ayvonli ko‘rinishlarida shakllanib kelgan arxitektura tipi.

Mahrut – ko‘pqirrali gumbazosti qurilmasi.

Mehrob – masjidlarda qiblani belgilab turuvchi, sajdagoh joy.

Morpech – arxitektura arkasi qirralarida o‘ralib chiqadigan bo‘rtma shakl.

Musavada – loyiha eskizi.

Naos, sella – (yunon. naos) – antik ibodatxanalarda ilohiy haykallar saqlanadigan asosiy xona, xrestian ibodatxonalarida sig‘inish joyi.

Nervyura – (fran. Nervure-pay, tomir) – yo‘nilgan ponasimon toshlardan terilgan, svod qavurg‘asini mustahkamlavchi (gotika arxitekturasida) karkasni tashkillashtiruvchi qism.

Nef – (fran. nef, lotin navis-kema) – cho‘zinchoq xona, internerning bir qismi (odatda bazilikal tipidagi binolarda) har ikkala tomonlarida ustunlar qatori bilan chegaralangan.

Nisha – (fran. niche, italyan. nicchia) – bino devorlariga haykallar, vazalar, qator shkaflar va bosh. o‘rnatish uchun chuqurlashtirilib forma beriladigan me‘moriy usul.

Pavilon – (fran. pavillon) – ko‘p katta bo‘lmagan, engil konstruktiv tuzilishdagi, tabiat bilan bog‘langan bino. Shuningdek, ko‘rgazma ekspozitsiyasi, filmga tushirish, savdo uchun ham qurilgan bo‘lishi mumkin.

Pagoda – (potugal. Pagoda, sanskritdagi bxagavat so‘zidan - ilohiy) – buddaviy me‘morial qurilma, dinga oid tabarruk narsalarni saqlaydigan bino. Pagoda yangi era boshlarida Xitoy, Koreya YAponiyada qurilaboshlagan. Uning tarxi to‘rtburchak yoki ko‘p burchakli bo‘lib bir necha yarusdan iborat bo‘lgan.

Pandus – (fran. Pente douce –qiya, nishab) – binoga kirish yoki chiqish uchun ishlangan, tarxi to‘rt burchak yoki egri chiziqli qiya maydon.

Panno – bino devorida alohida bezakli rom bilan ajratilgan, rangtasvir yoki relefli haykal bilan ishlov berilgan san‘at asari.

Panteon – (lotin. pantheon – barcha xudolarga atalgan joy) – buyuk shaxslar dafn etilgan maqbara.

Passaj – (fran. Passage – o‘tish joyi) – savdo binosi turi, chetlarida magazinlar va idoralar joylashgan bo‘lib, ust yopilmasi shishadan yasaladi. Passajlar odatda uzunchoq formada, ko‘p yarusli bo‘ladi.

Pergola – (ital. pergola) – yashil gul va o‘simliklarga burkangan besedka. Uning vazifasi jazirama issiqdan saqlanish va tabiatdan estetik zavqlanish uchun xilvat hangomaxona.

Priptter – (yunon. pereptor) – tarxi to‘rt burk, to‘rt tarafida ustunlar bilan o‘ralgan bino. Qadimgi Yunon ibodatxonalariga xos qurilmalar.

Peristil – (yunon. peristulos-ustunlar bilan o‘ralgan) – tarxi to‘g‘ri burchak to‘rt tarafi ustunlar (kolonada) bilan o‘ralgan havli, bog‘, maydon, zal. Peristil eradan avvalgi IV asrlardan boshlanib Ellin va qadimgi Rim san‘atida keng tarqalgan.

Podklet – yog‘och yoki tosh turarjoy yoki ibodatxonaning pastki qavati.

Podkletdan odatda xizmat, xo‘jalik ishlarida foydalanilgan.

Portal – (nem. Portal-kirish) – me‘moriy ishlov berilgan, binoga kirish joyi. Masalan O‘rta Osiyo arxitekturasida binoning old qismi, peshtoqi.

Svod – tom yopilmalari ning konstruktiv elementi bo‘lib, uning turlari gumbazsimon, silindrik, egilgan, nayzasimon va hokoza bo‘ladi.

Sinagoga – (yunon.-yig‘ilish joyi, majlisgoh) – iudizmda mazxabdoshlar va sig‘inish uyi.

Sklep – (polyak. Sklep-podval, erto‘la) – dahma, murdalarni dafn qilish joyi.

Tambur – (fran.tambour-baraban) – bino oldidagi yoki orqa tarafidagi eshik oldiga, sovuq havodan va shamoldan saqlanish uchun quriladigan, kichik qurilma.

Terem – (yunon. Teremnon, boshpana, turar joy) – qadimgi Rus arxitekturasida katta turar joy ustki xorom deb ataladigan yarusi. Ko‘pincha podklet ustida quriladigan baland qurilma.

Terassa – (lotin. Terra-er) – Bino oldiga quriladigan qo‘shimcha shishali romlar bilan o‘ralgan, isitilmaydigan qurilma. SHuningdek balandlikda, pog‘onalanib pastga qarab qurilib kelingan binolarni ham terrassali imoratlar deb ataladi.

Timpan – (yunon. timpannon) – eshik va deraza ustida devorga chuqurlashtirilib yasalgan yarim doira, uchburchak, nayzasimon o‘tkir uchburchak shaklida, ichiga haykal, rangtasvir, turli ornamental, gerb tasvirlari tushiriladigan me‘moriy uslub.

Toskan orderi – doriy orderini soddalashtirilgan turi. Qadimgi Rimda yangi eraning I-asrlarda yuzzaga kelgan.

Faxverk – (nemis. Fachwerk, ya‘ni fach -panel, seksiya vawerk - inshoot) – ko‘pincha kam etajli uylarning cho‘pkori, beton yoki metallardan gorizonta, vertikal, qiyalashtirib, tirkovlar tarzida yasalgan va ularning oralig‘i g‘isht, tosh, guvala bilan to‘ldiriladigan karkasli konstruktiv sistema.

Forum – (lotin. forum) – Qadimgi Rimdagi jamoa yig‘iladigan maydon, bozor. Bu joyda ibodatxona sud hukmlari chiqariladiga bazilikal bino va hokozalar joylashtiriladigan joy.

Fronton – (lotin. frontis-peshona. Devorning old qismi) – bino fasadining ustki qismida, ustunlar ustida joylashgan, uchburchak tarzidagi, o‘z karniziga ega bo‘lgan qism. Ushbu me‘moriy formaning yuzasi asosan haykal bareleflari yoki rangtasvir bilan bezatilgan.

Xoll – (ingliz. Hall) – ilk o‘rta asrlarda ikki qiyali, baland tom ostidagi ingliz-sakson urug‘lari a‘zolari yig‘iladigan katta xona; keyinchalik inglizlarning an‘naviy turarjoyidagi qabulxana (mehmonxona) . SHu

xonadan ikkinchi qavatga ko'tarilish uchun zinapoya o'rnatilgan. Zamonaviy jamoat binolari va mehmonxonalarda dam olish, kutish, uchrashuv uchun katta bo'lmagan xona.

Sella – (lotin. cella) – antik ibodatxonaning bosh zali.

Sitadel – (ital. Citadella – kichik shaharcha) – baquvvat qilib qurilgan feodal himoya qal'asi. Qadimgi qal'alar turli xalqlarda turlicha materialdan, loy pasa, xom g'isht, pishiq g'isht va toshdan qurilgan

Shatyor – ibodatxona, qo'ng'iroqxona, minora kabilarning to'rt qirra, sakkiz qirra yoki ko'pqirrali, piramidasimon yakunlanuvchi tom qismi.

Shpil – (nemis. spille) – binoning eng yuqorisida o'tkir konussimon, bayroq, haykal yoki biron bezovchi element bilan yakunlanuvchi qismi.

“ARXITEKTURA FANIGA KIRISH” FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. "Arxitektura faniga kirish" nimani o'rganadi?

- *A. Shaharlarni barpo etish tarixini
- B. Arxitektura tarixini
- C. San'at tarixini
- D. Zamonaviy shaharlarni

2. "Shaharsozlik tarixi" da qo'laniladigan o'rganish uslubiyati.

- A. Tarixiy-tipologik uslubiyat
- B. Tipologik uslubiyat
- *C. Tarixiy-topografik uslubiyat
- D. Tipografik uslubiyat

3. Shahar vujudga kelishi shartlarining asosiylaridan biri.

- A. O'rmon
- B. Tog'-tosh
- C. Sahro
- *D. Daryo

4. Tarixiy shaharlarning tarhiy shakli.

- A. Doira
- B. Uchburchak
- C. Romb
- D. Aylana

5. Qadimgi Misrning qadimgi podsholik davridagi poytaxti bo'lgan shahar.

- *A. Memfis
- B. Rim
- C. Afika
- D. Kopstantinopol.

6. Gizadagi piramidalar majmuasi qaysi davlat shaharsozligiga mansub?

- A. Qadimgi Rim shaharsozligiga
- B. Qadimgi Yunoniston shaharsozligiga
- *C. Qadimgi Misr shaharsozligiga
- D. Miken shaharsozligiga

7. Kaxun shahari necha qismdan iborat?

- A. Bir qismdan
- *B. Ikki qismdan
- C. Uch qismdan
- D. Turt qismdan

8. Axetaton shaharini kurdirgan Fir'avn

- A. Xufu (Xeops)
- B. Xafra (Xefren)
- C. Ligkkavra (Mikern)
- *D. Axnaton (Exnaton)

9. Karnakdagi va Luksordagi Amon Ra majmualarini birlashtirib turuvchi shaharsozlik unsuri

- A. Kentavrlar yo'li
- *B. Sfinkslar xiyoboni
- C. Kentavrlar xiyoboni
- D. Sfinkslar yo'li

10. Ikkidaryo oraligi shaharlarida qo'llanilgan vertikal inshoot

- A. Piramida
- *B. Obelisk
- C. Zikkurat
- D. Peshdevor (pilon)

11. Shumer davlatining poytaxti

- A. Knoss
- B. Miken
- C. Assos
- *D. Ur

12. Dur-Sharrukinda qal'a-saroy shahar devoriga nisbatan qanday joylashgan?

- A. Devordan tashqarida
- B. Devordan ichkarida
- *C. Devor ustida
- D. Shaharda devor yo'q

13. Borsippa shaharining qurilishida qo'llanilgan modul (o'lchov birligi)

- A. Li

- B. Chjouli
- C. Kilometr
- *D. Ashlu (“arqon”)

14. Bobil shaharining asosiy va yangi qismlarini birlashtirib turuvchi unsur

- *A. Ko’prik
- B. Ko’tarma ko’prik
- C. Qilko’prik
- D. Tug’on

15. Bobildagi tantanalar (Marosimlar) ko’chasi Frot daryosiga nisbatan qanday o’tgan?

- A. Perpendikulyar xolatda
- *B. Parallel xolatda
- C. 45o burchak ostida
- D. Daryo ko’chani o’rab oqadi.

16. Taxti Jamshid (Persepol) kaysi kadimgi davlatning poytaxt shahari bo’lgan?

- A. Qadimgi Rimning
- B. Qadimgi Xindistonning
- C. Qadimgi Xitoyning
- *D. Qadimgi Eronning

17. Afg’onistonning shimolidagi shaharning nomi

- A. Qadimgi davrda - Baktra
- B. O’rta asrlarda - Balx
- C. Hozirgi vaqtda – Vazirobod
- *D. Uchchala javob xam to’g’ri

18. Qadimgi transkontikental savdo yo’lining nomi

- A. Buyuk Xitoy devori
- B. Buyuk Karl yuli
- *C. Buyuk ipak yo’li
- D. Katta yo’l

19. O’rta Osiyodagi eng Qadimgi shahar

- *A. Oltin tepa
- B. Tillatepa
- C. Kumush tepa

D. Jez tepa

20. O'zbekiston xududidagi eng qadimgi shahar

A. Qurg'oshinli tepa

B. Toshli tepa

C. Muzli tepa

*D. Sopolli tepa

21. Avestoda zikr qilingan shahar qurilishiga oid masofa

A. Tosh

*B. Ot chopimi (Ot yugurishi)

C. Ashlu

D. Li

22. Shilmoliy Parfiyaning eski va yangi qismlar iborat shahari

A. Assos

B. Moxjedjo-Daro

*C. Nisa (Ko'hna va YAngi Nisa)

D. Pergam

23. Marg'iyonada paydo bo'lgan eng yirik shahar nomi

A. Erk qal'a

B. Govur qal'a

C. Marv

*D. Uchchala nom ham to'g'ri

24. Tarhi uchburchakka yaqin bo'lgan qadimgi Xorazmda paydo bo'lgan dastlabki shaharlardan biri

A. Quy qirilgan qal'a

B. Choshtepa

C. Mingo'rik

*D. Ko'zali qir

25. Tarhi doira shaklida bo'lgan Xorazm istehkomi

*A. Quy qirilgan qal'a

B. Choshtepa

C. Mingo'rik

D. Ko'zali qir

26. Xorazmning so'ngi antik (kushonlar) davriga mansub shahar-xorazshoxlar karorgoxi

- A. Xiva
- B. Urganch
- *C. Tunroq qal'a
- D. Oqtapa

27. Samarkand hududidagi dastlabki shahar paydo bo'lgan tepalik nomi

- A. Oqtapa
- B. Afrosiyob
- C. Siyob
- D. Qal'ali qir

28. Surxandaryodagi atrofi qo'rg'on devor bilan o'ralmagan shahar

- A. Termiz
- B. Ayrtom
- C. Chust
- D. Chingiztepa

29. Toshkent shaharining dastlab paydo bo'lishi qaysi tepa nomi bilan bog'lik?

- A. Oltintepa bilan
- B. Sopolli tepa bilan
- *C. Chosh tepa bilan
- D. Qo'y qirilgan qal'a bilan

30. Qaysi manzilgoh Qadimgi Farg'ona shaharlaridan emas?

- A. Chust
- B. Marhamat
- C. Elaton
- *D. Binkad

31. Xarappka madaniyatiga mansub bo'lgan Hindistondagi eng qadimgi shahar

- A. Chjou li
- *B. Moxendjo-Daro
- C. Afina
- D. Pekin

32. Qadimgi Xitoy shaharlari necha kompozitsion o'q bo'yicha uyushtirilgan?

- *A. Biro'q bo'yicha
- B. Ikki o'q bo'yicha
- C. Uchoq bo'yicha
- D. To'rto'q bo'yicha

33. Qaysi shahar oldinroq paydo bo'lgan?

- A. Iskandariya
- *B. Knoss
- C. Miken
- D. Mileet

34. Miken shahari darvozasining nomi

- A. Sfinkslar darvozasi
- B. Bug'ular darvozasi
- *C. Sherlar darvozasi
- D. Fillar darvozasi

35. Yunonistonning arxaika davrida qurilgan shahar

- A. Taksilla
- B. Chjou li
- *C. Selenunt
- D. Borsippa

36. Qadimgi Yunonistondagi polislar aro diniy markazlarning nomi

- A. Gimnaziy
- B. Teatr
- *C. Altis
- D. Ippodrom

37. Muntazam shaharsozlik tizimining asoschisi kim hisoblanadi?

- A. Zevs
- B. Perikl
- C. Fidiy
- *D. Gippodam

38. Qaysi shahar kvartallarining yarmi klassika davrida, yarmi ellinizm davriga mansub?

- *A. Miletning

- B. Axetatonning
- C. Urning
- D. Bobilning

39. Pirey porti Qaysi shahar bilan tutashib qo'sh shahar xosil kiladi?

- *A) Afina bilan
Rim bilan
Parij bilan
- B) London bilan
Afina shaharining tepalikda joylashgan markazining nomi
Forum
Te rm.
- *C) Akronol
- D) Kreml

41. Qadimda etti mujizalardan biri bo'lgan Faros mayog'i kaysi shaharda?

- A) Rimda
- B) Moskvada
- *C) Iskandariyada
- D) Bag'dodda

42. Qadimgi Rim shaharlarida jamoat yig'iladigan maydon?

- A) Akropol
- *B) Forum
- C) Akveduk
- D) Monastir (rohibgoh)

43. Qadimgi Rim shaharsozligiga oid "Dekumanus maksimus" borasi nimani ifoda etadi?

- A) Maydonni
- B) Aylana ko'chani,
- *C) Fap6 – sharq yo'nalishidagi asosiy ko'chani
- D) Qal'ani

44. VIII asrda Iordaniyada barpo bo'lgan qal'a - saroy

- A) Detinets
- B) Forum
- C) Tetrapil
- *D) Mshatta

45. Xalif Mansur tomonidan 762 milodiy yilda tashkil etilgan doira tarhli Bog'dodning Dajla daryosi chap qirg'onida paydo bo'lgan rabodi nomi.

- A) Keramik
- B) Palantin
- C) So
- *D) Rusafa

46. Abbas I tomonidan XVI asr oxirida parbo etilgan Isfaxon shahrining markaziy maydoni noma.

- A) Maydoni Devon
- B) Maydoni G'ulom
- C) Maydoni Vazir
- *D) Maydoni Shoh

47. Toshkentning ilk o'rta asrlardagi nomi

- A) Nisa
- B) Marv
- *C) Binkad
- D) Balx

48. Registon" so'zining lug'aviy ma'nosi.

- A) Botqoqlik
- B) Ko'l
- *C) Kumloq joy
- D) O'rmon

49. Shohizinda majmuasi qaysi shaharda joylashgan?

- A) Buxoroda
- *B) Samarkandda
- C) Toshkentda
- D) Xivada

50. Shayx Xovand Taxur me'moriy majmuasi hozirgi Toshkentning qaysi tumanida joylashgan?

- A) Yunusobod tumanida
- B) Sobir Raximov tumanida
- *C) Shayxantaxur tumanida
- D) Sergeli tumanida

51. "Qo'sh" tipidagi majmua necha imoratdan tashkil topadi?

- A) Bittadan
- *B) Ikkitadan
- C) Uchtadan
- D) To'rttadan

52. Xindistonda Boburning nabirasi SHox Akbar tomonidan o'z o'g'li Jaxongirning tavalludi sharafiga qurdirgan Fatxpur – sikri shaharidagi idora majmuasi

- A) Salim Chishtiy makbarasi
- B) Fillar xovlisi
- *C) Devon (Devoni xos va Devoni om)
- D) Karvon saroy

53. Xitoyda Bejinning (Pekinning) qurilishida qaysi qadimgi shaharsozlik tizimi qo'llanilgan?

- A) Gippodam tizimi
- *B) "Chjouli" risolida bayon ztilgan tizim
- C) "Artxa shastra" risolasida bayon etilgan tizim
- D) Qaimgi tizim qo'llanilmagan

54. Qadimgi Kiev shaharida Yaroslav shahari Vladimir shaharidan necha barobar katta?

- A) Ikkisi ham teng
- B) Ikki barobar
- *C) O'n barobardan ortiq
- D) Yuz barobar

55. Qaysi shaharni Volxov daryosi Sofiya va Torg tomonlariga ajratib turadi?

- A) Moskvani
- B) Kievni
- *C) Novgorodni
- D) Konstantinopolni

56. Qaysi shaharning posadi (shahristoni) Kitay - gorod deb ataladi?

- *A) Moskvaning
- B) Kievning
- C) Novgorodning
- D) Konstantinopolning

57. Moskvaga keladigan yo'llarni qanday turdagi inshoot majmualari qo'riqlab turgan?

- A) Kreml majmualari
- B) Detinets majmualari
- *C) Monostir (roxibgox) majmualari
- D) Saroy majmualari

58. Sobor va Ivan maydonlari qaysi shaharning kremlida joylashgan?

- A) Sankt - Peterburgning
- *B) Moskvaning
- C) Dur – Sharrukinning
- D) Kaxunning

59. G'arbiy Evropa xisoblangan kaysi shahar o'zining dastlabki qismi - sobori atrofida paydo bo'lgan?

- *A) Mon - Sen Mishel
- B) Rishelo
- C) Monpaze
- D) Vena

60. Evropada kaysi shahar o'zining dastlabki qismi – zamok yonida paydo bo'lgan?

- A) Pergam
- B) Rim
- *C) Nova Ves
- D) Vo - le – Vikont

61. Od daryosining tomonlarida joylashgan Karkason shahari necha qismlardan iborat?

- *A) Ikki qismdan
- B) Uch qismdan
- C) To'rt qismdan
- D) Besh qismdan

62. Garbiy Evropa shaharlarida ikki: maydon va bino ma'nolariga ega bo'lgan markaz?

- A) Agora
- B) Registon
- C) Forum
- *D) Ratusha

63. Italiya Uygonish davrida yaratilgan g'oyaviy-shaharlarda necha tomondan keladigan shamol inobatga olinishi kerak edi?

- A) Besh tomondan
- B) Olti tomondan
- C) Etti tomondan
- *D) Sakkiz tomondan

64. Florensiya shaharida o'rta asrlardagi maydon - ma'muriy markaz

- A) Kapitoliy maydoni
- B) Av. Mark maydoni
- *C) Sinoriya maydoni
- D) Forum romanum

65. Florensiyada shaharida ikki palatsso oralig'idagi ko'cha

- *A) Ufittsiy ko'chasi
- B) Kardo ko'chasi
- C) Dekumanus maksimumus ko'chasi
- D) Sfinkslar hiyoboni

66. Venetsiya shaxridagi bosh maydon

- A) Av. Pyotr maydoni
- *B) Av. Mark maydoni
- C) Ivan maydoni
- D) Qizil maydon

67. Rimdagi Kapitoliy maydonini yaratgan alloma.

- A) Leonardo da Vinchi
- B) Rafael Santi
- *C) Mikelanjello
- D) Bramante

68. Rimdagi Avliyo Pyotr sobori maydonning shakli

- A) Murabba (kvadrat)
- B) Doira va murabba
- *C) Trapetsiya va oval
- D) Oval

69. Rimdagi Popolo maydonidan necha ko'cha tarqaladi?

- A) Ikki ko'cha
- *B) Uch ko'cha

- C) To'rt ko'cha
- D) Besh ko'cha

70. Fransiya klassitsizmimе'morligida eng keng tarqalgan qurilish majmualari

- A) Piramidalar majmualari
- B) Zikkuratlar
- *C) Saroy majmualari
- D) Termlar

71. Parijning Katta Diametri shakllanishiga asos bo'lgan saroylar majmuasi

- *A) Luvr - Tyuilri asroylar majmuasi
- B) Versal saroyi
- C) Sargon II saroyi
- D) Axetaton saroylari

72. London Sitisining 1666 yilgi yongindan keyin K. Ren tomonidan ishlab chikdan kayta kurish loyixdsida garbdan necha asosiy kuchalar tarkalishi muljallangan edi?

- A) Beshta
- B) Turtta
- C) Uchta
- *D) Ikkita

73. XVIII asr boshida Olmoniyada (nemis mamlakatlari xududida) barpo etilgan markgraflar karorgoxi

- A) Versal
- B) So
- C) Karlsrue
- D) Klu

74. Elba daryosining ikki buyida joylashgan shahar

- A) Rim
- B) Bobil
- C) Drezdyn
- *D) Parij

75. XIX asr boshida Afina akropolini klassitsizm ruxiyatida kayta kurishni taklif etgan me'mor

- A) Gippodam

- B) Shinkel
- C) Levo
- D) Iktin

76. Shpre buyida joylashgan shahar

- A) Uruk
- B) Memfis
- C) Berlin
- D) Dur-Sharrukin

77. XIX asr boshida utkazilgan Rivoli ko'chasi qaysi shaharning ko'chasi?

- A) Berlinning
- B) Londonning
- C) Pekinning
- D) Parijning

78. Shimoliy Amerikada ispanlar tomonidan Manxettan orolida tashkil bo'lgan Yangi Amsterdam shahari keyin kanday deb atala boshlandi?

- *A) N'yu-York
- B) N'yu-Jersi
- C) Yangi Arlean
- D) Yangi London

79. Shimoliy Amerikada fransuzlar tashkil etgan shahar

- A) Vashington
- *B) Kvebek
- C) Kaxun
- D) Split

80. Amerikaning Ogayo shtatidagi erlarni taksimlash loyixasi qaysi davrga mansub?

- A) X-XIII asrlarga.-
- B) XIV asr boshiga
- *C) XVIII asr oxiri-XIX asr boshiga
- D) XX asr boshiga

81. Vashington shahari loyixasini 1793 yilda ishlab chiqqaan ma'mor.

- *A) L. Anfan

- B) Jyul Arduen Mansar
- C) Bernini
- D) Bramante

82. Sankt - Peterburgning 1717 yilda ishlab chikilgan va kelgusida rivojlanishi nazarda tutilmaganligi uchun kabul kilinmagan loyixa

- *A) Leblon loyixasi
- B) Bernining loyihasi
- C) Bramante loyihasi
- D) Mikelanjello loyixasi

83. XVIII asrning 2-yarmida Moskva Kremli uchun V. Bajenov tomonidan ishlab chiqilgan, lekin amalga oshmagan loyiha

- A) Admiralteystvo loyihasi
- *B) Katta kreml saroyi loyihasi
- C) Kishki saroy loyihasi
- D) Yozgi saroy loyihasi

84. O'rta Osiyo shaharlaridagi xududiy birliklar qatori "yirikdan maydaga" tartibda qanday keladi?

- A) Mahalla, daha, ko'cha
- B) Mahalla, ko'cha, daha
- *C) Daha, mahalla, ko'cha
- D) Daha, ko'cha, mahalla

85. Xivaning Ichan qal'asi markazida joylashgan bino

- A) Ko'hna Ark
- B) Ota darvoza
- *C) Juma masjidi
- D) Tosh xovli

86. XVIII asrning 2-yarmisida shaharlarnikeskin o'zgartirib yuborgan o'zgarish

- A) Amerikani kashf etilishi
- B) Madaniy inqilob
- *C) Sanoat inqilobi
- D) Mendeleevning davriy jadvali

87. XIX asrning 2-yarmida shaharlarning tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatgan yo'llar

- A) Suv yo'llari

- B) Tosh yo'llar
- *C) Temir yo'llar
- D) Fisht yo'llar

88. XIX asrning 3-choragida betartib ravishda kengayib ketgan Parijdagi ko'chalarning kengaytirish ishlarigi kim rahbarlik qilgan?

- A) Kardikal Rishel'e
- B) Qirol Fransisk I
- C) Qirol Lyudovig III
- *D) Sena prefekti E. Osmonn

89. Parijning Katta diametridagi maydon

- A) Kuyosh maydoni
- B) Oy maydoni
- *C) Yulduz maydoni
- D) Mars maydoni

90. XIX asrning 2-yarmida Parijda qayta tuzilgan manzaraviy park ("ingliz parki") nomi

- A) Sfinkslar hiyoboni
- B) Versal parki
- C) Tyuil'ri parki
- *D) Bulon o'rmoni

91. XIX asrning 2-yarmida Venada tarixiy markaz atrofida vujudga kelgan shohko'cha

- A) Kordo
- B) Dekumanus maksimum
- *C) Ringsstrasse
- D) Rivoli

92. XIX asr 2-yarmi-XX asr boshi davomida jadal kengaygandan keying Londonga nisbatan ishlatiladigan ibora

- A) Go'zal London
- *B) Katta London
- C) Ulug' London
- D) Bahaybat London

93. XX asr boshida E.Govard tomonidan olga surilgan va Lechuort misolida amalga oshirilgan shahardan ("1-magnit"), qishloqdan ("2-magnit") farqli bo'lgan aholi joyi shakli ("3-magnit")

- A) Shahar - qishloq
- B) Shahar - hiyobon
- *C) Shahar - bog'
- D) Shahar - o'rmon

94. 1907 yilda R.Envin tomonidan loyihalanib Londonning shimoliy chekkasida Xempstedda amalga oshirilgan aholi joyi shakli

- A) Rabod - qishloq
- *B) Rabod-bog'
- C) Rabod - hiyobon
- D) Rabod – o'rmon

95. XIX asr 2-yarmida AQSH da keng tarqalgan shahar turlari

- *A) Temir yo'l shaharlari
- B) Osmo ko'prik shaharlari
- C) Asfalt yo'l shaharlari
- D) Tosh yo'l shaharlari

96. XX asr boshida Rossiyada yirik shaharlar chekkalarida vujudga kelgan joylarning atamallari

- A) Shahar - bog'lar
- B) Rabod -bog'lar
- *C) Ishchilar posyolkalari (mavzolari)
- D) Zodagonlar mahallari

97. XX asr boshida Moskva atrofida vujudga kelgan yo'l halqasi

- A) Bulvarlar halqacha
- B) Piyodalar yo'li halqacha
- *C) Temir yo'l halqacha
- D) Kitay - gorod chegarasidagi yo'l

98. Toshkentda chor ma'muriyati tomonidan qurgan qal'a nomi

- A) Tosh qo'rg'on
- *B) Tuproq qo'rg'on
- C) Kum qo'rg'on
- D) Loy qo'rg'on

99. XIX asr 2-yarmida qurilib dastlab "Yangi Marg'ilon" deb atalgan shaharning xozirgi nomi

- A) Kogon
- *B) Farg'ona
- C) Qo'qon
- D) Namangan

100. Samarqandning "Yangi shahar"i qadimgi shaharning qaysi tarafida joylashgan?

- A) Shimolida
- B) Sharqida
- C) Janubida
- *D) G'arbida

XULOSA

Darslik ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi qismida qadimgi dunyo me'morligi, juda ko'plab me'moriy inshoot turlarining vujudga kelishi, saroylar, ibodatxonalar, piramidalar, qo'rg'onlar, bularning hammasi qadimgi Misrda vujudga kelganligi aytib o'tiladi. Shahar qo'rg'onlari, akropol, ibodatxonalar, turar uylar va jamoat binolari qadimgi Gretsiyada vujudga kelganligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Qadimgi dunyo me'morligi yirik inshoot turlarini vujudga keltirdiki, ular zaminida jamoat hamda davlat inshootlarining kompozitsiya asoslari vujudga keldi.

Ahamiyatlisi shundaki, ularning nafaqat texnik yoki badiiy jihatlrigina emas, balki ularning obrazlarini yaratishdir. Yirik ta'sirchan me'moriy inshootlarni qadimgi Misr me'morchiligi berdi.

Misrda birinchi marotaba me'moriy fazoni tashkil etishga asos solindi. Ular ulkan ibodatxonalar ansamblarida o'z aksini topgan. Ularda birinchi marotaba Shunday vazifalarga yo'l qo'yildiki, monumental me'moriy forma va murakkab me'moriy kompozitsiyalar vujudga keltirildi.

Qadimgi Gretsiyada orderlar sistemasi vujudga keltirildi, arxitektonika formalarining qonuniyatlari yaratildi. Turli xildagi bino bo'laklari miqyoslarining mutanosibligi, variantlari, har turdagi qurilish va badiiy me'moriy formalar yordamida har qanday vazifalarni xalq qila olish mumkinligi imkoniyatlari ochildi.

Antik Gretsiyada jamoat binolari hamda ibodatxonalarda orderli kalonadalar qo'llanilishi hisobiga ular ochiq xarakterga ega edi. Qadimgi Grek Shaharozligi ellinizm davrida katta yutuqlarga erishdi.

Boshqa xalqlar me'morchilik yutuqlariga, tajribasiga tayangan holda qadimgi Rim me'morligi buyuk badiiy yutuqlarga erishdi. Ta'sirchan kompozitsion forumlar, davlat inshootlari, ajoyib ko'priklar, akveduklar, hashamatli amfiteatrlar va termalar hamda ko'plab ajoyib kompozitsiyalar Shahar tashqarisidagi turar uylar, villalar vujudga keldi.

Rim imperiyasi davri me'morchiligida butun jahonga hukmronlik g'oyalari kompozitsion obrazlarda yoritishga harakat qilindi. U erda forumlar yopiq administrativ markazlarga, arxitektura orderlari esa faqatgina dekorativ ahamiyatga ega edi. Keyingi imperiya davri arxitektura va san'atida realistik xarakterini yo'qotadi.

Antik Rim ajoyib qiziq injenerlik san'ati yutuqlarini berdi. Katta proletli ob'ektlarni (krest, arka, kupol) hamda me'moriy jamoat inshootlari vujudga keldi.

Qo'llanmaning ikkinchi bo'limida o'rta asrlar me'morligiga xarakteristika beriladi. Me'morchilik obidalari, ularning turlari tahlil

qilinadi. Sharq mamlakatlarida oʻrta asrchilik qaysi davrlardan boshlanganligi meʼmorchilikdagi oʻzgarishlar, qurilish materiallari, konstruksiyalar haqida gap yuritiladi. Jumladan Arab mamlakatlari, Eron, Afgʻoniston, Turkiya, Xindiston, Ozarbayjon xalqlari meʼmorchiligi yutuqlari haqida maʼlumotlar beriladi.

Gʻarb mamlakatlari meʼmorligi, ularning tahlili Gotika, Roman davri gʻarb mamlakatlariga, hususan Germaniya, Fransiya, Angliya, Italiya kabi mamlakatlar meʼmorchiligiga taʼsiri, ularning konstruksiyalari qurilish materiallari, yangi inshootlari haqida gap yuritiladi.

Ushbu maʼlumotlarning barchasi sanʼat arxitektura, dizayn sohasida oʻqiyotgan talabalarga kerakli oʻquv qoʻllanmasi boʻlishiga ishonchimiz komil. Ushbu qoʻllanma kamchiliklardan holi emas, qoʻllanma bilan tanishib oʻz fikr-mulohazalaringizni yoʻllashingizni soʻraymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. "O'zbekiston", 2017 y.
2. Mirziyoev Sh.M. Harakatlar strategiyasi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. Uslubiy risola. T. 2017 y.
3. Vseobshaya istoriya arxitektury. T.1-11 (pod общ.ред Mixaylova). M. 1958-63 gg.
4. Vseobshaya istoriya arxitektury. v 12-ti tomax. - M. 1966-77 gg.
5. Tits A.A., Belogub V.D. Istoriya arxitektury. Xarkov. 1965 g.
6. San'at tarixi. Abdullaev N.12. j. Toshkent. 1979 y.
7. Gulyanskiy N.F. "Istoriya arxitektury. M., 1984 g.
8. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. Sam DAQI. 2000 y.
9. Axmedov M.Q. Ansamblevaya zastroyka: Traditsii i preemstvennost "Arxitektura Uzbekistana" (almanax) Tashkent. 1985 g.
10. Axmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. 1995 y. Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti.
11. Bulatov M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XVvv. 2-oe isp. I dop. M., "Nauka". 1988g.
13. Vamberi Herman. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent. 1991 y.
14. Zohidov P.Sh. Zeb ichra ziynat. Toshkent, G'. G'ulom nashriyoti. 1978 y.
15. Zohidov P.Sh. Me'mor san'ati. Toshkent, G'. G'ulom nashriyoti. 1978 y.
16. Pugachenkova G. A., Rempel L. I. Istoriya iskusstvo Uzbekistana (s drevneyuixh vremen do serediny devyatnadsatogo veka), - M., «Iskusstvo», 1965 g.
17. Shuaze Ogyust. Vseobshaya istoriya arxitektury. Izd. Eksmo. 2008 g.
18. Afonkin S., Istoriya arxitekturnyx stiley. Izd., Timoshka BKK., Sank – Peterburg. 2019g.
19. Masharipova S.A. Arxitektura tarixi. TAQI. 2013 y.
20. Abdullaev Sh. Arxitektura tarixi. - T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. - 276 b.
21. Miryusupova S. A. Arxitektura va shaharsozlik tarixi. Qadimgi dunyo va o'rta asrlar davri arxitekturasi. 2001 y. TAQI.
22. R.G. Blakemore, History of interior Design and Fumiture: From Ancient Egypt to Nineteenth-Century Europe, John Wiley and Sons 1996, p. 100.
23. Charles Gates, Ancient Cities: The Archaeology of Urban Life in the

- Ancient Near East and Egypt, Greece and Rome, Routledge 2003, p. 101
24. Dieter Arnold, Byron Esey Shafer Temples of Ancient Egypt, I.B. Tauris, 2005.
 25. Istoriya arxitektury Shuazi. Tom 1,2.-M: Izd-vo Akademii Arxitektury, 1937- 704 s.
 26. Curl J. S., Wilson S. The Oxford Dictionary of Architecture. 3 ed. Oxford, 2015.
 27. Glancey J. Eyewitness Companions: Architecture. Penguin, 2006.
 28. Hopkins O. Architectural Styles: A. Visual Guide. Laurence King Publishing, 2014
 29. W.M. Flinders Petrie, Kahun, Gurob, and Hawara, Kegan Paul, Trench, Trübner, and Co., London 1890
 30. W.M. Flinders Petrie, Kahun, Gurob, and Hawara, Kegan Paul, Trench, Trübner, and Co., London 1890.

Internet materiallari.

1. R.G. Blakemore, History of interior Design and Furniture: From Ancient Egypt to Nineteenth-Century Europe, John Wiley and Sons 1996, p. 100.
2. Charles Gates, Ancient Cities: The Archaeology of Urban Life in the Ancient Near East and Egypt, Greece and Rome, Routledge 2003, p. 101.
5. Dieter Arnold, Byron Esey Shafer Temples of Ancient Egypt, I.B. Tauris, 2005.
6. Istoriya arxitektury Shuazi. Tom 1,2. - M: Izd-vo Akademii Arxitektury, 1937 - 704. s.
7. Curl J. S., Wilson S. The Oxford Dictionary of Architecture. 3 ed. Oxford, 2015.
8. Glancey J. Eyewitness Companions: Architecture. Penguin, 2006
9. Hopkins O. Architectural Styles: A. Visual Guide. Laurence King Publishing, 2014.
10. W.M. Flinders Petrie, Kahun, Gurob, and Hawara, Kegan Paul, Trench, Trübner, and Co., London 1890.

Darslik

Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich

ARXITEKTURA TARIXIGA KIRISH

Subscribe to print 28/03/2026. Format 60×90/16.

Edition of 300 copies.

Printed by “iScience” Sp. z o. o.

Warsaw, Poland

08-444, str. Grzybowska, 87

info@sciencecentrum.pl, <https://sciencecentrum.pl>

Mazkur darslik 60731100 – Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi, 60212200 – Madaniy meros obyektlarini asrash ta'lim yo'nalishi talabalari mutaxassislik fanlar blokiga kiruvchi “Arxitektura tarixiga kirish” fani bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Ushbu darslik talabalarda arxitektura tarixiga kirish bo'yicha boshlang'ch ko'nikma va malaka shakllantirishga katta yordam beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, arxitektura yutuqlari, arxitektura jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalari haqidagi masalalarni o'z ichiga oladi va keyinchalik olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Shuningdek, undan ushbu yo'nalishlar fanlaridan dars berayotgan o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.



ISBN 978-83-68188-42-4



9 788368 188424